


**ASHIROVA A.I., ALLABERGANNOVA  
M.R., DJURAYEVA D.SH.**

# **TA'LIM NAZARIYASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
URGANCH FILIALI**

**ASHIROVA A.I., ALLABERGANOVA M.R.,  
DJURAYEVA D.SH.**

# **TA'LIM NAZARIYASI**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**5350400 Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohasida  
kasb ta'limi**

**Toshkent  
“METODIST NASHRIYOTI”  
2024**

**UDK: 37.01(075.8)**

**BBK: 74.202ya7**

**A 93**

**Ashirova A.I.**

**Ta'lim nazariyasi /Allaberganova M.R., Djurayeva D.Sh./.**  
**O'quv qo'llanma. – Toshkent: "METODIST NASHRIYOTI", 2024. – 252 b.**

*Mazkur o'quv qo'llanma "Ta'lim nazariyasi" fanining tarixi, predmeti maqsad va vazifalari, ilmiy-nazariy usoslari, innovatsion texnologiyalar va noan'anaviy o'qitish metodlari, talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish usullari, asosiy didaktik kontsepsiylar, ta'lim qonuniyati qonurlari va tamoyillari, masofaviy va media ta'lim, smart ta'lim, kreativ ta'lim texnologiyalar, mualliflik o'qitish texnologiyalar, muammoli o'qitish texnologiyalar hamda hamkorlikda o'qitishni tashkil qilish usullari yoritilgan. O'quv qo'llanma 5350400 Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi bakalavriat ta'lim yo'naliishlari talabalari uchun tavsiya etiladi.*

*В пособии раскрывается история предмета теории образования, целях и задачах предмета, научных и теоретических основах, инновационных технологиях и нетрадиционных методах обучения, методах развития критического и творческого мышления учащихся, основных дидактических концепциях, законах и принципов образования, юриспруденции, дистанционного и медиаобразования, интеллектуального образования, технологий творческого обучения, авторских технологий обучения, проблемных технологий обучения и методов организации совместного обучения. Пособие рекомендуется студентам направлений образования бакалавриата 5350400 – Профессиональное образование в сфере ИКТ.*

*Mazkur o'quv qo'llanma oliv ta'lim muassasalarining 5350400 Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi ta'lim yo'naliishlari o'qituvchilar va talabalari uchun mo'ljallangan.*

**Taqrizchilar:**

**I.Hajiyeva – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, dotsent.**

**II.Baltayeva – Urganch davlat universiteti "Axborot texnologiyalari" kafedrasini dotsenti.**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.**

**ISBN 978-9910-03-126-7**

**© Ashirova A.I. va boshq., 2024.  
© "METODIST NASHRIYOTI", 2024.**

## KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya hamisha jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan, chunki inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Keyingi yillarda oliy ta'limni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Zamонавиу та'лим standartlari, talabalikka qabul qilishning shaffof tizimi joriy etildi. 2019-yilda umumiy qabul kvotalari o'tgan yilga nisbatan 2 marta oshdi.

Prezident qarorlari bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha dasturlar professor-o'qituvchilar va keng jamoatchilik tomonidan mammuniyat bilan qabul qilindi.


Axborot texnologiyalari bugungi kunda har bir sohada asosiy poydevor sifatida kirib bormoqda. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida Respublikamiz Prezidenti 2018-yil 19-fevraldag'i PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldag'i Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetini "Kadrlar tayyorlash milliy tizimini tubdan takomillashtiish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 569-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida imzolangani fikrimizning asosi sifatida qaraladi. Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi qonun" bo'yicha ta'lim tizimini isloh qilinar ekan, bu asosiy diqqat yuqori saviyadagi kadrlarni tayyorlashga qaratilganligi, ta'lim tizimining naqadar ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

## **1-MAVZU. DIDAKTIKA TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDAGI TARAQQIYOTI**

Didaktika (yunoncha so'z bo'lib, "didaklikos" – o'qitadigan, o'rgatadigan degan ma'nolarni anglatadi) – pedagogikaning bilim olish, ta'lismi va tarbiya nazariyasiga oid sohasidir. «Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimasi – ta'lismi nazariyasini anglatadi. Ta'lismi nazariyasi ta'lismi jarayoni tushunchasi va mohiyati, ta'lismi prinsiplari, metodlari hamda tashkilij shakllarni o'z ichiga oladi. Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish maqsadlariga javob beruvchi umumiylar qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo'yadi. Ta'larning asosiy vazifasi yosh avlodda ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, aloqalar tizimini shakllantirishdan, uning barkamol shaxsini rivojlantirishdan iborat. Demak, didaktika «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktika terminini dastlab nemis pedagogi Wolfgang Ratke (1571-1635 yillar) tomonidan o'qitish san'atini ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatilgan.

*Didaktikaning paydo bo'ishi va rivojlanishi.* Umumiy didaktikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy 1632-yilda yozilgan va 1833-38-yillarda qayta ishlanib lotin tilida chop ettirilgan «Buyuk didaktika» asari bilan bog'lanadi (1-rasm).



**1-rasm. Yan Amos Komenskiy (1592-1670-yillar)**

O'qitishning didaktik tamoyillarini, sinf dars tizimini asoslashda, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda mashqlarning ahamiyatini olib berishda Y.A. Komenskiyning xizmatlari katta. U o'quvchilarning tafakkuri, mehnat qobiliyati va nutqini rivojlantirish – o'qitishning asosiy vazifasini alohida ta'kidlab o'tadi.

«Ko'rgazmalilik o'qituvchining oltin qoidasi» degan ibora ham uning nomi bilan bog'liq. Lekin shunday bo'sada, so'nggi yillarda chop etilayotgan adabiyotlarda umumiy didaktika tushunchalarining paydo bo'lishi va rivojlanishida «Avesto» (eramizdan oldingi 548-529-yillar) asarining, qadimda o'rta asr Sharqining buyuk allomalari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom va boshqalarning, ayniqsa, ularning milliy ta'lif-tarbiya asoslarini yaratishdagi xizmatlari tan olinib, keng yoritilmoxda. O'zbekistonda XX asr boshlarida milliy ta'lif tizimini yaratilishi M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Siddiqiy, I. Ibrat va A. Fitrat va ularning zamondoshlari nomlari bilan bevosita bog'liqidir.

Forobiy (879-950-yillar) qobiliyatlarni rivojlanishga oid bir qator tavsiyalar ishlab chiqqan. "Yahshi nazariyachi bo'lish uchun, – deydi u, – qanday fan bo'lishidan qat'iy nazar quyidagi uch shartni bajarish zarur:  
– bu fan asosini tashkil etuvchi barcha prinsiplarni bilishi;  
– bu prinsip va ma'lumotlari muayyan fanga qo'llab xulosa yasash,  
ya'ni mulohaza yasash (fikrlash) qobiliyatiga ega bo'lishi;  
– xato nazariyalarni inkor qilish va boshqa mualliflar fikrlarini tahlil  
qilib, haqiqatni o'rnatib, xatolikni tuzatish.

Farobiyning pedagogik fikrlari uning «Fozil odamlar shahri» (Toshket, 1993-yil) asarida bayon etilgan.

Beruniy (973-1051-yillar) o'zidan oldingi allomalar tomonidan yaratilgan bilishning ilmiy metodini rivojlanirdi va yanada chuqurlashtirdi. U didaktik tavsifga ega bo'lgan quyidagi xulosalarni shakillantirdi:

«Koinot tuzilishini o'rganish, shuningdek, osmon va yer shakllaring qandayligi va hatto ularning o'rtasida nima borligi o'qish yordamida, takrorlash yordamida idrok qilinishi astronomiya san'ati uchun juda foydalidir yohud o'quvchi shu yo'l bilan bu san'at kishilari qo'llaydigan so'zlarga odatlanadilar va ko'nikmalar hosil qiladilar, ularni osonlik bilan tushunadi va ahamiyatini yasash tasavvur eta oladi».

Beruniyning bilim nazariyasi uning zamondoshi Ibn Sino (980-


1037-yillar) tomonidan yanada rivojlantirildi. U «har qanday bilinayotgan (o'rganilayotgan) narsa uchun, uni bilish yo'llari mavjud bo'ladi», – deb ta'kidlaydi. Demak, u har bir fan uchun o'ziga xos bo'lgan ilmiy tadqiqod metodlarining mavjudliligiga ishora qiladi. Ibn Sinoning bilish nazariyasida sabablar to'g'risidagi ta'limot muhim o'rinni tutadi. U bevosita sezishlar orqali aniqlanadigan va yashirin, fakt bilan seziladigan sabablarni ajratib ko'rsatadi hamda u narsa haqidagi to'la tasavvur, uni vujudga kelish sabablarni o'rganganidan so'nggina paydo bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Ibn Sino o'zining bu bilish qoidasiga tibbiyotda kasallikni davolashdan oldin uni simptomlarini (paydo bo'lish sabablarni) aniqlash zarurligiga amal qiladi, O'zbekistonda XX asr boshlarida o'zining umumdidaktik qarashlari bilan mashhur bo'lgan mutafakkir jadidlardan biri Abdulla Avloniyidir. O'zbek pedagogikasida Abdulla Avloniy (1878-1943-yillar) pedagogika tushunchasiga birinchi marta to'g'ri ta'rif berdi. Hozirgi kunda «Pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni tayyorlash to'g'risidagi fandir», deb ta'rif berilsa, Abdulla Avloniy 1913-yilda yozgan «Turkiy guliston yoxud axloq» (Toshkent, 1992-yil) asarida «Pedagogik», ya'ni «Bola tarbiyasining fani» deb ta'riflaydi. Tabiiyki, bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxlit bilganidan belgi. Bu sohada kuchli va keng ma'lumotga ega bo'lganligidan dalolat beradi. U o'zbek milliy pedagogikasining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Avloniyning o'qitish nazariyasida matonat – fikr tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. U bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni oilaga emas, balki maktabi, muallimlar zimmasiga yuklaydi. «Fikr tarbiyasi eng kerakli ko'p zamonlardan beri taqdir (orzu) qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir».

Umumiy didaktikani rivojlaiishiga nazar tashlar ekanmiz, u Y.A.Komenskiy tomonidan «O'qitish nazariyasi» sifatida yaratilgan bo'lsa, Y.A.Komenskiydan keyin didaktikaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan nemis filosofi, pedagog va psixolog I. F Gerbard (1776-1841-yillar) bu tushunchaga tarbiya nazariyasini ham kiritish zarurligini e'tirof etadi. Uning bu fikrini polyak didaktlar B. Navrochinskiy, K. Sosnitskiy va boshqalar qo'llab quvvatlaydilar. B. Nirovchinskiyning fikriga, «Ta'lim va tarbiya nazariyasi, ya'ni didaktika yaxlit bir butunlikni tashkil qiladi va uni biz pedagogika deb ataymiz»

– Didaktika pedagogik fanlar majmuasi bo‘limlaridan biri bo‘lib, – deydi K. Sosnitskiy, – u insonning intellektual qobiliyalarini qayta shakllantirish nazariyasi bo‘lib hisoblanadi.

Rossiya didaktalaridan B.P.Yesipov ham ishiga o‘xhash fikrni aytadi va u: “Didaktika alohida fan bo‘lib hisoblanmaydi, balki u pedagogikaning tarbiya nazariyasi qismini tashkil qiladi”, – deb yozadi. M. A Danilov esa bunga qo‘srimcha qilib didaktikani mustaqil fan sifatida shakllanayotganligini ta’kidlaydi va uni o‘qitish hamda ta’lim berish nazariyasi deb ataydi. L.Klinberg – didaktika o‘qitish nazariyasi sifatida «pedagogikaning ilmiy fani» deb hisoblaydi,

Shuni ta’kidlash lozimki, didaktika Evropaning ko‘pchilik mamlakatlarida, jumladan, Rossiyada ham mustaqil fan sifatida tan olingan va o‘hshatish va o‘qitish nazariyasi sifatida keng rivojlangan. Buning natijasida umumiy didaktikadan uning shaxobchalari – xususiy aniq didaktikalar, ya’ni muayyan fan (mutaxassislik) didaktikasi fanlari ajralib chiqib, ular ham mustaqil ravishda rivojlanmoqda.



## 2-rasm. Didaktikaning vazifalari

Zamonaviy ma’noda didaktika – ta’lim va tarbiya muammolarini o‘rganuvchi va tadqiq qiluvchi ilmiy bilimlarning eng muhim tarmog‘i. Bu so‘z birinchi marta nemis o‘qituvchisi Wolfgang Rathke asarlarida o‘qituvchilik san’atini ifodalash uchun paydo bo‘lgan. Chez

o‘qituvchisi Yan Amos Komenskiy bu tushunchani xuddi shu ma’noda ishlatgan. Didaktikaning asosiy vazifalari Ratixiya davridan beri o‘zgarishsiz qolmoqda:

- muammolarni ishlab chiqish: nimani o‘rgatish va qanday o‘qitish;
- zamonaviy ilm-fan ham muammolarni intensiv ravishda o‘rganadi: qachon, qayerda, kim va nima uchun o‘qitish.

Didaktika nazariy va ayni paytda normativ va amaliy fandir. Uning asosini ta’limning umumiy nazariyasi tashkil etadi, bu nazariyaning asoslari barcha ta’lim va ta’lim fanlari uchun fundamentaldir.

Didaktikani o‘rganish obyekti – haqiqiy o‘quv jarayonlari.

Didaktik tadqiqot real o‘quv jarayonlarini o‘zining obyektiga aylantiradi, uning turli tomonlari o‘rtasidagi muntazam bog‘lanishlar haqida bilim beradi, o‘quv jarayonining tarkibiy va mazmuniy elementlarining muhim xususiyatlarini ochib beradi. Bu didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasidir. Olingan nazariy bilimlar ta’lim bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal qilishga imkon beradi, ya’ni: ta’lim mazmunini o‘zgaruvchan maqsadlarga moslashtirish, o‘qitish tamoyillarini o‘rnatish, o‘qitishning optimal imkoniyatlarini aniqlash, metod va vositalari, yangi ta’lim texnologiyalarini loyihalash va hokazo. Bularning barchasi didaktikaning me’yoriy-amaliy (konstruktiv) funksiyasi haqida gapiradi. Didaktika barcha fanlar bo‘yicha va ta’lim faoliyatining barcha darajalarida o‘qitish tizimini qamrab oladi. O‘rganilayotgan voqelikni qamrab olish kengligi bo‘yicha umumiy va xususiy didaktika ajratiladi.

Umumiy didaktika o‘qitish va o‘qitish jarayonini uni yuzaga keltiruvchi omillar, uning sodir bo‘ladigan sharoitlari va u olib keladigan natijalari bilan birgalikda tekshiradi.

Xususiy (o‘ziga xos) didaktika o‘qitish usullari deb ataladi. Ular turli o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonining borishi, mazmuni, shakllari va usullarini o‘rganadilar. Har bir fanning o‘ziga xos metodologiyasi mavjud.

Didaktika ilmiy bilimlar tarmog‘i sifatida bir qator nazariy muammolarni hal qiladi:

- nazariyaning maqsad va vazifalarini belgilash;
- o‘quv jarayonini tahlil qilish, uning qonuniyatlarini o‘rnatish;

- o‘qitish tamoyillari va qoidalarini asoslash;
- o‘qitish mazmuni va tashkil etish shakllarini belgilash;
- o‘qitish usullari va vositalarini tushuntirish;
- o‘quv qo‘llanmalarining moddiy xususiyatlari.

Didaktikaning boshqa fanlar, masalan, falsafa, sotsiologiya, mantiq, psixologiya, kibernetika, matematika va boshqalar bilan o‘zaro ta’siri va aloqasi kuzatiladi. Didaktikaning metodologik asosini bilishning falsafiy nazariyasi tashkil etadi. Jamiatning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi qonuniyatlarini, ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish didaktikani sotsiologiyaga yaqinlashtiradi.

Zamonaviy didaktik tizimning rivojlanishi demokratlashtirish va insonparvarlashtirish jarayoni deb ataladi.

Zamonaviy didaktikadan farqi shundaki, o‘qitishning maqsadi shaxsni har tomonlama rivojlantirish bo‘lib, o‘quv jarayoni o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan ikki tomonlama jarayon sifatida qaraladi. Binobarin, didaktika ta’lim va tarbiya, ularning maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, tashkil etilishi, erishilgan natijalar haqidagi fandir.

### **Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.**

Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

- 1) falsafiy tushunchalar.
- 2) xususiy ilmiy, ya’ni, muayyan fangagina xos bo‘lgan tushunchalar.

Didaktika uchun “umumiylar” va “alohiposha”, “mohiyati va hodisa”, “qarama-qarshilik”, “bog‘liklik” kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo‘llaniladigan umumiylar orasida “tizim”, “tuzilma”, “vazifa”, “element” kabilar alohida o‘rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) **ta’lim** – o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish

qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

2) **dars** – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

3) **bilim olish** – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

4) **ta'lim jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

5) **o'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan soxasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

6) **ta'lim mazmuni** – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada "idrok etish", "o'zlashtirishi", "mahorat", "rivojlanish" va boshqalar (psixologiya) hamda "boshqarish", "qayta aloqa" (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriylar sirasiga quyidagidek ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda:

1) **bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;

2) **bilim olish** – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining

mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) *ko'nikma* – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati;

4) *malaka* – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli;

5) *ta'lism* – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarни shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

6) *ta'lism metodlari* – ta'lism jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

7) *ta'lism mazmuni* – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) *ta'lism vositalari* – ta'lism samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalar, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproyektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) *ta'lism jarayoni* – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) *ta'lism mazmuni* – davlat ta'lism standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) *ta'lism maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi)* – ta'lismning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

12) *ta'lism natijasi (ta'lism maxsuli)* – ta'lism yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) *ta'lismni boshqarish* – ta'lism muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;

14) *ta'lim tizimi* – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo‘lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagি o‘quv-tarbiya muassasalari majmui.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda didaktika sohasi avvalgi avvalgi erishilgan yutuqlarni saqlab qolgani holda yangiliklar bilan boyitilib, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

### **Bilimni mustahkamlash uchun savollar**

- 1. Didaktika nima?*
- 2. Didaktikaning ta’limda tutgan o‘rni*
- 3. Didaktikaning fan sifatida nechinchi asrlarda shakllana boshlandi?*
- 4. Umumiy didaktikaning rivojlanishi?..*
- 5. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini aytинг?*

## **2-MAVZU.TA'LIM JARAYONINNING METODOLOGIK ASOSLARI**

**Metodika va metodologiya.** Dars berish metodikasi (uslubiyati)ning predmeti, bu dars berish (o'qitish) jarayonining o'zidir. Odatda **metodika (uslubiyat)** deganda ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi. Bu nazariy jihatdan qo'yilgan maqsadga yetish, haqiqatni, reallikni, faoliyatni nazariy yoki amaliy bilish, o'rganishning usullari yoki operatsiyalari majmuidir.

O'qitish metodikasi tushunchasi:

1). pedagogning o'qitish usullari va o'quvchining o'qish usullari hamda o'quvchining o'qituvchi bilan o'zaro bog'langanligi;

2). o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishish bo'yicha hamkorlikda ishlashning o'ziga xosligi, yani o'qitish metodlari belgilangan maqsadga erishish uchun ta'lif vazifalarini hal etishda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatidir.

Metodologiya yunoncha "metod" va "logiya" so'zlaridan iborat bo'lib, faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilish, metod va vositalari haqidagi ta'limotdir.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida metodologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deyiladi"!<sup>1</sup>

"Metodologiya – tadqiqotning nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot".<sup>2</sup>

"Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi umumiy bilish metodi" deb ham ta'riflanadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondoshish yo'lini o'rgatadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka, fan predmetini o'rganishda qanday ilmiy tamoyillar asosida yondashish yo'lini o'rgatadi.

Didaktik tadqiqotlar mashg'ulot o'tkazishni dialektik jarayon sifatida o'rganadi. Unga ko'ra:

1. O'qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta'lif tizimida

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. O'ME Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2003, 613-b.

<sup>2</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. O'ME Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2003, 614-b.

yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘zgaradi, rivojlanadi, deb qaraladi.

2. Barcha metodlar bir-biri bilan aloqador. Biri ikkinchisini to‘ldiradi, biri ikkinchisiga bog‘liq.

3. Metodlarni qo‘llashning turli-tuman modifikatsiyalari mavjud bo‘lib, ular dars o‘tish shakllari va vositalari bilan qo‘shilib ketadi.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni yechish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalar ishonchliligini ta’minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlar pedagogik (yoki ixtiyoriy boshqa) tadqiqotlari samarli tashkil etish va yetkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Ijodiy jarayon bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondoshuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

### **Metodologiya funksiyasi asosida aniqlash.**

Metodologiya alohida fan sifatida ikki funksiyani bajaradi:

– **deskriptiv** (ifodalovchi) va **perskriptiv** (me’yorlovchi).

Birinchisi – obyektni nazariy jihatdan ifodalashni ko‘zlasa, keyingisi – tadqiqotchining ishlashi uchun mo‘ljal olishga shart-sharoit tug‘diradi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me’yoriy.

**Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin:**

– metodologiya ta’rifi;

– fan metodologiyasining umumiyligi tavsifi, uning darajalari;

– metodologiya bilimlar tizimi va faoliyatlar tizimi sifatida;

– pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta’minalash manbalari;

– pedagogik tadqiqot obyekti va predmetining metodologik tahlili.

**Me’yoriy asosi quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:**

– pedagogikani obyektiv borliqni ma’naviy o‘zgartirishning boshqa shaklidan farqli ilmiy asoslash;

- pedagogika sohasidagi ishlarni fanga taalluqliliginini aniqlash: – maqsadning o‘ziga xosligi; maxsus tadqiqot obyektini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo‘llash; atamalarning bir xilligi;
- pedagogik tadqiqotlarni guruhlarga ajratish;
- tadqiqot tavsifnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazlari, himoya qilinadigan holatlar, yangiliklar, fan uchun muhimligi, amaliyot uchun muhimligi;
- pedagogik tadqiqot mantiqi;
- pedagogika fanlari tizimi, ularning o‘zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo‘yicha qabul qilingan direktiv va me’yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me’yoriy asosini tashkil etadi.

### **Falsafiy asos mavqeidan aniqlash.**

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va kurish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta’limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog‘i, metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Bu yerda qaysi faoliyat haqida fikr yuritilyapti?

Ilmiy faoliyat nazarda tutilyaptimi yoki pedagogik faoliyat?

Bu savolga javobni quyidagi tahlil natija asosida topish mumkin:

Agar o‘qituvchi kundagi odatiy nomahsul (**reproduktiv**) faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lib, har doim o‘zi o‘zlashtirgan bir xildagi texnologiya bilan ish ko‘rsa “dars beruvchi” sifatida faoliyat ko‘rsatsa, bu yerda metodologiya haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Aksincha, mahsuldor (**produktiv**) faoliyat namoyish etib, misol uchun, ilmiytadqiqiy pedagogik faoliyat ko‘rsatsa yoki o‘zining xususiy mualliflik o‘qitish tizimini yaratса, shubhasiz, metodologik faoliyat vujudga keladi. Keyingi holatda ikki qarama-qarshi tushuncha – loyiha va refleksiya – asosiy o‘ringa ko‘tarilyapti. Ma’lumki, har qanday mahsuldor faoliyat loyihalash ko‘nikmalarini talab etadi. Ilmiytadqiqiy ishlarning quyidagi bosqichlari – ziddiyatlarni aniqlash, muammoni ifodalash, farazlarni qurish va hokazo – mantiqan tadqiqot loyihalash usulidir.

Amaliy pedagogik faoliyatda ham ta’lim (tarbiya) tizimlarini loyhalash ishlari amalga oshiriladi. Bunga “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida yaratilgan zamonaviy ta’lim tizimi, uni rivojlantirish konsepsiysi (“portlash effekti”) misolida iqror bo‘lishimiz mumkin.

Ijodiy faoliyatni tashkil etishda har doim refleksiya – loyihaning, jarayon va natijalarning doimiy tahlili muhim o‘rin tutadi.

Xulosa sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasi ham, amaliy pedagogik faoliyat metodologiyasi ham quyidagi uchlik yaxlitligida qurilishi mumkinligini ta’kidlash lozim:

**“loyiha texnologiya (ilmiy-tadqiqiy yoki→ pedagogic) refleksiya” (A.M. Novikov),**

Bu yondashuvlarga fayanib hamda mavjud adabiyotlar tahlili asosida pedagogika metodologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

**Pedagogika metodologiyasi o‘zida pedagogik nazariya asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishning yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, bu bilimlar tizimini qo‘lga kiritish bo‘yicha faoliyat tizimini mujassamlashtiradi.**

Ko‘rinib turibdiki, bu ta’rifda ilmiy bilishning ikki jihat – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan yoki ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ma’milot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatları va yo‘nalishlarini, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplarini, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi. Shu bilan bиргаликда pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki birinchisi “Qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo‘llash mumkin?” degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi – umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta’lim va tarbiya mohiyati kabi umumiyl savollar yechimiga qaratiladi.

Zamonaviy fan rivojiga bog‘liq holda fan tilining metodologik masalalari ham kun tarbida turadi. Fanda tildan foydalanish muammosi ilmiy fan sifatida pedagogikani ham chetlab o‘ta olmaydi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida amaliy faoliyatda va bilish jarayonida ikki asosiy vazifani bajaradi:

- 1) Insonlar o'rtasida aloqa vositasini o'taydi.
- 2) Tafakkur shakli sifatida to'plangan bilimlarni qayd etish va saqlash, tizimlashtirish uchun zarur hisoblanadi.

Ma'lumki, til bilan qator fanlar – lingvistika, psixologiya, semiotika (belgilar haqidagi fan), falsafa shug'ullanadi. Metodologiya tilni ilmiy bilimlarni ifodalash, ularni qayta ishlash, ilmiy axborotlarni to'plash va saqlash vositasi sifatida o'rghanadi.

Pedagogika boshqa fanlar qatori milliy tildan ilmiy axborotlarni shakllantirish, ishlov berish, saqlash va uzatishning universal vositasi sifatida foydalilanadi.

Biz tilda turli darajadagi tushunchalarga tayanamiz.

**Tushuncha** – bu predmetlarnig umumiyligi va o'ziga xos sifatlari haqidagi fikrdir. Tushuncha asosida predmetlar o'xshashligi va farqlari aniqlanadi. Albatta, tushunchalar mohiyatini anglashda odamlar ham bir-biridan farqlanadi. Shu boisdan milliy til so'zlari ham bir xil emas, ular amaliy faoliyatda turlicha muhimlik kasb etadi va muloqot jarayonida tekislanib, aniqlanib boraveradi.

Har qanday fan, jumladan, pedagogika ham aniq tushunchalar tizimini talab etadi. U milliy til asosida yaratiladi va ilm tili, ya'ni pedagogikning tushuncha-toifalar tizimi shakllanib oradi. Toifa tushunchadan bir bosqich yuqori turadi va ayni vaqtida o'zida ularning belgi va xususiyatlarini saqlab qoladi. Shu bois toifa tushunchadir, biroq barcha tushunchalar toifa bo'la olmaydi.

Pedagogika bo'yicha ilm tilini shakllantirish murakkab jarayon, u hanuzgacha qoniqarli darajada tadqiq qilingan emas. Bu fan ham boshqalari qatori hayotiy tildan ko'plab atamalarini qabul qiladi. ("shakl", "metod", "tarbiya" va b.). Uning vazifasi atamalardan bir xildagi tushunchalarni shakllantirishdir. Shu bois mumkin qadar tushunchalarni faol ilmiy muloqot tarkibiga kiritish uchun aniqlashtirish, chegaralashga harakat qiladi.

Pedagogikada ilmiy nutqning lug'at zahirasi yangi, maxsus terminlar va ta'riflar bilan boyib boradi. ("pedagogik texnologiya", "innovatsiya faoliyat" va b.), ba'zan bunday boyish boshqa fanlar evaziga ham bo'lishi mumkin. ("boshqarish", "axborot

*texnologiyasi*") yoki eski ta'riflar yangicha talqinda ifodalanadi. Misol uchun, "o'qitish metodi"ning an'anaviy ta'rifi (belgilangan maqsadga erishish yo'lidagi o'qituvchi va o'quvchi-talabaning o'zaro harakat usullari) go'yo o'zgarmaydigandek edi. Biroq Gegel ta'limotiga ko'ra, metod harakatdagi obyektni o'rganish usulidir. Shunga asosan, o'qitish metodiga berilgan eng so'nggi va yangi ta'rif quyidagicha: o'qitish metodi – bu harakatdagi o'quv materialini o'rganish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchi-talabaning hamkorlikdagi faoliyat usullaridir.

Foydalilanilayotgan atamalarning aniq ta'rifi va maxsus pedagogik lug'atini shakllanishi pedagogika fani tiliga mos holda amalga oshirilishi zarur. Bu fanning o'ziga xos tomoni shundaki, uning tili odatiy (kundalik) tilga juda yaqin bo'lgani uchun tushunish birmuncha yengil kechadi. Shu sabali maxsus pedagogik tillar nafaqat o'qituvchi va tarbiyachiga tushunarli, balki ularni ota-onalar, o'quvchi-talabalar va keng jamoatchilik ham tez hazm qilishadi. Boshqa tomonidan odatdagи til bilan ilmiy tilning yaqinligi fan sifatida pedagogika uchun xususiy bo'lgan metodik xarakterdagi jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Maxsus pedagogik atamalar sifatida qo'llanilayotgan tushunchalar induktiv tarzda hammaga tushunarli (ta'lim, tarbiya, o'qitish va b.), ular o'ta aniqlikni talab qiladigan vaziyatlarni vujudga keltirmaydi. Shu boisdan bu tushunchalar milliy tilda tavsiflangan holda turlicha ta'riflanadi va o'z navbatida aniqligini bir qadar yo'qotadi. Fikrimizning isboti uchun "tarbiya" tushunchasining mohiyatini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarni keltirish mumkin. Biroq tushunchalarni aniq ta'riflash ilmiy pedagogik g'oyalarni muvaffaqqiyatli rivojlanirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Belgilar yordamida aniq ilmiy tilni yaratish pedagogikada ham kuzatiladi. Pedagogika o'z tadqiqotlari natijalarini nafaqat yozma ravishda, balki chizma, jadval, shkalalar orqali ham ifodalaydi. Keyingi vaqtarda pedagogik hodisalar tahlil uchun kibernetika, informatika, matematika, mantiq fanlarining tushuncha va ramzlaridan keng foydalanimoqda.

Erihilgan yutuq bilan fan tilining rivojlanishi to'xtamaydi, u vaqt o'tgan sayin rivojlanib boraveradi. Shubha yo'qki, pedagogika fanlarining ilmiy tiliga oid metodologik savollar e'tiboridan tushmaydi,

olevarsa, har bir ilmiy termin jiddiy tadqiqotlar natijalari asosida vujudga keladi. Qo'llanilayotgan atamalarning bir xilligi ma'lum ilmiy sohada hadasalarni bir xilda tushunishga imkon beradi, bilishning bugungi taraqqiyoti kecha erishilgan yutuqlarga tayanadi, ya'ni hammasini yangidan boshlashga hojat qolmaydi.

**Ta'lif jarayoni tadqiqotlarning metodologik tavsifi.** Metodologiyaning pedagogika uchun muhimligi, bir tomondan, fan rivojining umumiyligini xususiyatlari bilan, boshqa tomondan, pedagogik bilimlar rivojining o'xiga xosligi bilan, uchunchi tomondan, bilish bosqichlarining murakkabligi bilan belgilanadi. U o'zining rivojlanishi davomida boyib boradi, tajriba orttiradi, obyektiv voqelik hodisasi sifatida tarbiyaning muhim qonuniyatlarini va tamoyillarini ochib beradi.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ikki yo'nalishdagi tadqiqotlar alohida ko'zga tashalanadi:

1. Umumiy xarakterdagи yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o'rganish.

2. Murakkab pedagogik jarayonlarning ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detallli o'rganish.

Birinchi yo'nalish tarafdirleri pedagogik jarayonning barcha unsurlari o'zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o'rganshi zarurligiga urg'u berishadi. Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o'zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani obyekti hisoblanadi. Ikkinci yo'nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (*metod, shakl va b.*) o'rganshga urungan holda bir narsani unutishadiki, o'quv-tarbiyaviy ishlар tizimida yilib olingen hech bir vosita to'liq hisoblanmaydi.

Bugungi kunning jiddiy metodologik muammoasi – bu zamonaviy ta'lifni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirishdir.

*Bajarilayotgan tadqiqotlarda uchraydigan ummiy kamchiliklar:*

- mavzularning dolzarb pedagogik muammolar yechimiga qaratilmaganligi, ular yangi, konseptual g‘oyalarning yo‘qligi;
- farazlarning isbot talab qilmaydigan holatda noaniq ifodalanishi;
- jiddiy xulosalarning yo‘qligi, ularning nazariy va amaliy jihatdan noaniqligi;
- shablonlik (bir qolipdalilik).

*Tavsiyalarni amaliyatda qo‘llash imkoniyatlari yo‘qlig va boshqa cheklaydigan asosiy omillar:*

- malakaning yetarli emasligi;
- umrini yashab bo‘lgan sobiq sovet pedagogikasi g‘oyalaridan xalos bo‘la olmaslik;
- tadqiqot metodlaridan to‘g‘ri foydalana bilmaslik va b.

Zamonaviy pedagogik bilimlar sezilarli darajada shu kunga qadar takrib topgan tushunchalarining an‘anaviy tizimi girdobidan chiqib ketadi. Bunday sharoitda pedagogika fanining o‘z predmeti, chegarasi va xarakteri, ilmiy bilimlarni egallash, ularni amaliyatda qo‘llash kabi masalalarni yangicha talqinda qo‘ymoqda. Boshqacha qilib aytganda, metodologik muammolarni nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Ular qatorida:

- pedagogikada ilmiy fakt muammosi;
- tadqiqot natijalarini amaliyatga tatbiq etish texnologiyasi;
- o‘qitish tarkibi, tuzilmasi va funksiyalarini ilmiy asoslash;
- nazariya va amaliyat kabi fundamental tadqiqotlar ham o‘z yechimini kutyapti.

Tadqiqot taqdiri metodlariga bog‘liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodi agar pedagogic hadosalarning obyektiv mohiyatini to‘g‘ri ifodalasa, pedagogika predmetining o‘ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e’tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to‘g‘ri proporsionaldir. Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko‘rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o‘zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko‘nikmasini, ma’lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo‘llash qobiliyatini egallahni talab etadi.

Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga ko‘ra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; iste’molchilar bilan hamkorlik o‘rnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy manfaatdorlik va hokazo.

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo‘llarda – metodologiyani chuqur o‘rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalgaloshirilishi mumkin.

Olimning qiyofasi, ruhiyati va tiynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi; haqiqatga, noma'lumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analitik – sintetik jamlanmasi va boshqalar. Tadqiqotchi tafakkurining xarakteri haqidagi savol birmuncha mulohazalidir. Bu murakkab jarayonni to‘liq tasvirlashga da’vogarlik qilmagan holda jihatlariga e’tiborni qaratamiz:

**Obyektivlik** qaralayotgan hodisa va jarayonlarning qandaydir begona, ýot tadqiqot uchun muhim bo‘limgan taassurot va ta’sirlardan holi bo‘lishni, narsa va hodisalarning o‘zaro aloqasini, undagi o‘zgarishlarni xolisona ifodalashni ta’minlaydi.

**Aniqlik** tadqiqotning barcha muolajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumilashmasi; turli manbalaridan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va boshqalar.

**Tanqidiylik** boshlang‘ich ma’lumotlarni sog‘lom baholashni tajriba natijalarining haqqoniyligini ta’minalash bilan farazlar va nazariyalarni qurishdagi shubhasiz uzluksiz va qonuniy darajasi bilan, agar ular yangi faktlarga zid kelib, dalilarni to‘g‘ri va chuqur tushuntira oladigan konsepsiya topilsa, ulardan voz kechish qobiliyati qobiliyati bilantavsiflanadi.

**Muayyanlik** va izchillik qabul qilingan atamalarning bir xilligida, tadqiqot mantig‘iga amal qilishda, shart-sharoitlarni hisobga olishda, ilmiy apparat tushunchalarining bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

**Tizimlilik** o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflashga intilishda, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy

aloqalarni o'rnatish, konsepsiyalarni, naziryalarini shakllantirishda yuzaga chiqadi.

Xullas, ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi belgilashda obyektivlikni, muayyanlikni, aniqlikni nozik, ehtiyyotkorona chog'ishtirishni, haqiqatni bilish yo'lining to'g'rilingini, tajriba natijalarini, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib ko'rishni va, albatta tizimlikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madaniyatini shakllantirishda refleksiya – xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasi asosiy o'rinni tutar ekan.

Yuqorida ta'kidlanganlar turli soha vakillarining ilmiy tafakkuriga tegishlidir. Shu bilan birga pedagog – tadqiqotchi o'ziga xos ba'zi bir xususiyatlarni bilan farqlanib turadi.

**Birinchidan**, u yetarlicha pedagogik tajribaga ega bo'lishi, kamida besh-o'n yillik pedagogik jarayonning "ichida qaynashi" kerak. Shundagina, bu jarayonning siru sinoatlaridan voqif bo'ladi, uning nozik, ko'z ilg'ammas joylarini topadi, muammoni anglay oladi, mavjud ziddiyatlarni shakllantiradi va yangi yechimini qidira oladi.

**Ikkinchidan**, pedagogik muammoning dolzarbligi respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi.

Ma'lumki shogirdni tayyorlashda kuchli shaxslar ko'magiga tayanish bizda qadimdan sinalgan usul. Ustoz o'zining zaif tomonlarini shogirdiga oshkor qilmagan holda o'zidan-da kuchliroq ustoz huzuriga yuborishni lozim topgan. Misol uchun Mashrab hurfikrlilikka tashna edi. Birinchi ustozni Mulla Bozor Oxund (XVII asr) Mashrabni o'zidan kuchliroq bo'lgan Hidoyatulloq Ofoq Xojaga jo'natadi. Sababi Bozor Oxund shogirdining fikrlashini bo'lib qo'yishi, o'zi bilmagan holda unga zarar yetkazishi mumkin edi. Natijada Mashrab Ofoq Xoja huzurida valiy bo'lib yetishadi.

Pedagogik tadqiqotchi obyektlar (o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi talabalar va boshqalar) bilan ish ko'radi va pedagogik tajriba-sinov o'tkazishda undan ehtiyyotkorlik talab etiladi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar qalbida, dunyoqarashiga, erkin fikrlashiga sinov davomida putur yetmasligi lozim.

Xullas, pedagogik voqelikni to'g'ri aks ettirishda tadqiqotchi sog'lom fikr sohibi bo'lish uchun metodologik madaniyatni egallashi shart ekan.<sup>1</sup>

Ta'kidlash joizki, ayrim tadqiqotchilar pedagogik tadqiqotlarning asoslarini belgilashda pedagogikaning metodologik muammolarini umumnazariy muammolar bilan almashtirib, "statistik metodologiya", "pedagogik metodologiya" kabi ifodalarda noto'g'ri talqin qilayotgan hollarga duch kelinmoqda. Sababi, falsafa fanigina metodologik baza hisoblanabi, uning barcha bo'limlari, tushunchalar, qonuniyatlar, toifalari metodologik ahamiyat kasb etishi e'tirof qilingan. Shu bilan birgalikda filosofiyani metodologiya bilan to'liq almashtirish ham yaramaydi: metodologiya – bu boshdan – oxir filosofiya emas, balki uning asosiy funksiyalarini, ayrim jihatlarini o'zida aks ettiradi, xolos.

Shunday qilib, hozirgi kunda pedagogika fanining metodologik asosi filosofiyadir. Filosofyaning bosh masalasi esa obyektiv borliq va inson o'rtasidagi o'zaro aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Olam bilan odam mayjudligini tadqiq qilish insonning cheksiz faoliyatini va xarakterini o'rganishdir. Individning shaxs darajasida namoyon bo'lishida tarbiyaning yetakchi mavqeini qadimdan faylasuflar tan olishgan va inson tarbiyasi muammozi falsafaning asosiy masalalari qatoriga kiritilgan. Shu tariqa falsafiy ta'limotlar tarkibida pedagogik fikr va g'oyalar vujudga kela boshlagan va yillar davomida rivojlanib borgan, natijada pedagogika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Demak, hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, pedagogika faning metodologiyasini jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ifoda etuvchi zamonaviy filosofiya, uning bilish nazariyasi tashkil etadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Metodologiya nima?
2. Ta'lim jarayonining metodologiyasi nima?
3. Ta'lim jarayoni tadqiqotlarning metodologik tavsifi?..
4. Pedagog-tadqiqotchi o'ziga xos qanday xususiyatlar bilan farqlanib turishi kerak?

### **3-MAVZU. ASOSIY DIDAKTIK KONSEPSIYALAR**

Ta’lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi. Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko’rsatish demakdir. U ta’limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Didaktik tizimlar O’qitishning maqsadlari, tashkiliy tamoyillari, mazmuni, shakllari va usullarining birligi bilan shakllangan tuzilmalarning ichki yaxlitligi bilan tavsiflanadi.

*Bir-biridan farq qiluvchi uchta didaktik tushunchani ajratib ko’rsatish mumkin:*

- an’anaviy (J.A.Komenskiy, I.Pestolozzi, I.Gerbart);
- pedosentrik (D.Dyui, G.Kershenshteyn, V.Lay);
- zamonaviy didaktik tizim (P. Halperin, L. Zankov, V. Davydov, K. Rogers, Bruner).

Tushunchalarning uch guruhgaga bo‘linishi o‘quv jarayoni qanday tushunilishiga asoslanadi. An’anaviy o‘qitish tizimida o‘qitish va o‘qituvchining faoliyati ustun rol o‘ynaydi.

Gerbart didaktikasi boshqaruvi, o‘qituvchiga yo‘l-yo‘riq, qoidalar, retseptlar kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi. Gerbartning didaktikaga qo’shgan asosiy hissasi o‘qitish bosqichlarini (bosqichlarini) ajratib olishdan iborat. Uning sxemasi quyidagicha: **aniqlik – assotsiatsiya – tizim – usul**. O‘quv jarayoni g‘oyalardan tushunchalarga va tushunchalardan nazariy ko’nikmalarga o‘tadi. Ushbu sxemada amaliyot yo‘q. Bu rasmiy darajalar ta’lim mazmuniga bog‘liq emas, ular barcha darslar va barcha fanlar bo‘yicha ta’lim jarayonining borishini belgilaydi.

XX asr boshlariga kelib yangi yondoshuvlar tug‘iladi. An’anaviy tizim avtoritarizm, kitobxonlik, bolaning ehtiyojlari va manfaatlaridan ajralib turishi uchun tanqid qilindi. Bu tizimni o‘rganish bolaga faqat tayyor bilimlarni beradi, lekin fikrlash, faoliyik, ijodkorlikni rivojlanтирishga hissa qo’shmaydi, o‘quvchining mustaqilligini bostiradi.

Pedosentrik kontseptsiya bolaning faoliyatiga asoslanadi, asosiy rol o‘rganishga beriladi.

Dyui o‘quv jarayonini bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib, bolalarning aqliy qobiliyatları va turli ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilish, ularni “mehnat, hayot maktabi”da o‘qitishni mustaqil, tabiiy ravishda o‘qitishni taklif qildi. O‘z-o‘zidan, o‘quvchilar o‘zlarining stixiyali faoliyati jarayonida bilim oladilar, ya’ni “amalda o‘rganish”. Bunday didaktikani mutlaqlashtirish bolalarning o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan faolligini ortiqcha baholashga, tizimli o‘qitishni yo‘qotishga, materialni tasodifiy tanlashga va ta’lim darajasining pasayishiga olib keladi.

Zamonaviy didaktik kontseptsiyani dasturlashtirilgan, muammoli ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim (P.Galperin, L.Zankov, V.Davydov), gumanistik psixologiya (K.Rodjers), kognitiv psixologiya (Bruner), pedagogik texnologiya va boshqa yo‘nalishlar yaratadi. hamkorlik pedagogikasi.

Ushbu zamonaviy yondashuvlarda o‘qitishning vazifalari nafaqat bilimlarni shakllantirish, balki o‘quvchilarning umumiyligi rivojlanishi, ularning intellektual, mehnat, badiiy mahoratini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishni ham ta’minkaydi. Pedagogik hamkorlik – bu o‘zaro tushunish, bir-birining ma’naviy dunyosiga kirish, ushbu faoliyatning borishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilish asosida bolalar va o‘qituvchilarning birgalikdagi rivojlanish faoliyatining gumanistik g‘oyasi.

Ta’lim nazariyasida Y.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega. An’anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841-yillar) nomi bilan bog‘liq. U Y.A.Komenskiyning sinf-dars an’anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta’lim tizimini yaratdi. I.F.Gerbart ta’lim tiziminining asosiy belgisi quyidagilardan iborat. O‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlash matabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedotsentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o‘ynashini e’tirof etadi. Mazkur tizim asosini

D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bulingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Mazkur g'oya keyinchalik dasturiy ta'lif deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi.

D.Dyuining nazariy g'oyalari muammoli ta'larning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta'lif deb nomlanuvchi ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta'larning vazifasi faol o'rganish jarayonini rag'batlantirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901-1977-yillar) rivojlaniruvchi ta'lif konsepsiysi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g'oyalari amalga oshirish ta'lif jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vugotskiy (1896-1934-yillar) tomonidan XX asrning 30-yillarida ilgari surilgan "Yaqin rivojlanish zonasasi" g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

7. Yoshlardagi mavjud bilimlar bilan yangi berilayotgan bilim orasidagi mantiqiy bog'lanish yo'q joyda onglilik bo'lmasligini esda tutgan holda, yoshlarning akli yetmay turgan joylarni, ulardagagi bor bilim bilan mantiqiy bog'lab berish qoidasi.

8. Hech qachon o'quv fanini dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi-talabalar turishini, ularning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda o'quvchi-talabalarga ta'limiylar ta'sir o'tkazish qoidasi.

9. O'quvchi-talabalar fikrini, hayot bilan nazariy bilimlar orasidagi farqlar orlig'iiga qaratish yo'li bilan, ularning tafakkurini faollashtirish qoidasi.

10. O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash koidasi.

11. O'qitilayotgan narsada asosiy va ikkinchi darajali joylarini ajratish yo'li bilan, o'quvchi-talabalarda berilgan bilim ichidagi asosiy o'rinalarini ajrata olishga o'rgatish qoidasi.

12. Hech qachon quruq obro'ga tayanib o'qitmay, faqat aql va hissiyoridan kelib chiquvchi dalillarga tayanib o'kitish tamoyili

13. O'quvchi-talabalarini kitob o'qishga o'rgatish qoidasi.

14. Ta'lif-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazuvchi ichki va tashqi omillarni doimo bartaraf etib borish qoidasi.

15. O'quvchi-talabalarga nega?, degan savolni tinmay berish yo'li bilan, ularda sabab va oqibat orasidagi bog'lanishni bildirib borish

qoidasi.

16. Berilayotgan bilimning to‘g‘riligiga, o‘quvchi-talabalarda hech qanday shubha va gumon qolmasligi va uni esdan chikmasligi uchun, bilimni asos va dalillar bilan berish qoidasi.

17. Haqiqiy bilimga ega bo‘lgan deb, uni qaytarib aytib berganga emas, balki bu bilimni amaliyotda qo‘llay olganga aytildi, degan qoida.

18. Doimo o‘quvchi-talabalar qiziqish va ehtiyojlarini o‘rganib borib, ularni jamiyat ehtiyojiga moslashtirib borish tamoyili.

19. O‘quvchi-talabalardagi kuzatuvchanlikni rivojdantirib, hayotdagi voqeliklarni ilmiy asoslاب berish yo‘li bilan yoshlarda onglilikni kamol toptirish qoidasi.

20. O‘quvchi-talabalarga shunday bilim beringki, bu bilimlar ularda qat’iy ishonch hosil qilib, harakat uchun dastur vazifasini o‘tash qoidasi.

21. Hech kachon o‘qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko‘chirish va aytib turish hollarga yo‘l qo‘ymaslik bilan, o‘quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o‘rgatish koidasi.

22. Berilayotgan bilimni har tomonlama taxlil kilib berish yo‘li bilan o‘quvchi-talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish koidasi.

23. O‘quvchi-talabalarni faollashtirish va rag‘batlantirish uchun doimo savollar berib, ularning javobini chidam bilan tinglash koidasi.

**Ko‘rgazmalilik tamoyili.** Bu eng hammaga ma’lum va tushunsa bo‘ladigan tamoyillardan biri bo‘lib, u qadimiylar zamonlardan qo‘llanilib kelingan. Buning asosida kuyidagi qonuniyatlar yotadi: birinchidan, ko‘rish va eshitish orqali olingan axborotlar miyaga turlicha ta‘sir etib, turlicha holda saqlanadi. Qisqacha qilib aytganda, ko‘z bilan ko‘rganda qulqoq bilan eshitgandagiga nisbatan besh barobar ko‘p axborot olinib, uni miyada saqlanishi ham yuqori. Ikkinchidan, ko‘zdan borgan axborot qayta ishlashga muhtoj emas.

Ta’lim amaliyoti, ko‘rgazmalilik tamoyili amalga oshirishning bir qator qoidalari ishlab chiqqan:

1. O‘qitish jarayonida, ko‘rgan narsa eshitganga nisbatan bir necha barobar tez o‘zlashtirilib, uzoq muddatga esda saqlanib kolishligini doimo xotirada tutish qoidasi.

2. Bolalar shabl, rang, his qilish va tovush orqali fikr yuritishlarini

bilish qoidasi.

3. O'quvchi-talabalarning, kishi nimaiki narsani tasavvuriga keltirish mumkin bo'lsa, ko'ra olsa, sinab ko'rilsa, eshita olsa tafakkur qilinadi degan oltin qoidasini bilish.

4. Hech qachon ko'rgazmani asosiy maqsad qilib olmaslik, ko'rgazma maqsad emas, maqsadga yetish vositasi sifatida bilish qoidasi.

5. Bilim berish va bu bilimlarni o'quvchi-talabalar ko'nikmasiga aylantirish jarayonida, barcha tushuncha va mavhumliklar, ular tafakkuriga faqat asos, dalil, misol, timsol va qiyofalar orqali tez yetib borishini anglash qoidasi.

6. Ko'rgazmalardan, faqat narsalarni ko'rsatish uchun foydalanmay, ulardan muammoli vaziyatlarni shakllantirishda ham foydalanish qoidasi.

7. Ko'rgazma faqat axborot beribgina qolmay, o'rganilayotgan narsa va hodisa to'g'risida to'g'ri tasavvur xosil qilishligini bilish qoidasi.

8. Ko'rgazmani namoyish etilayotganda ma'lum bir tartib bilan ko'rsatish yaxshi natija berishini tushunib yetish qoidasi.

9. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda avval butunlay, so'ng ularni qismrlarga bo'lib ko'rsatib, undan keyin yana butunlay ko'rsatishga e'tibor berish qoidasi.

10. Turli ko'rgazmali kurollardan foydalanish yaxshi, ammo ularning miqdori haddan ziyod bo'lib ketsa, o'quvchi-talabalar xayolini yoyib yuborishligini bilish qoidasi.

11. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda o'quvchi-talabalar avvaldan egallangan hissiy bilimlaridan unumli foydalanish qoidasi.

12. Eng yaxshi ko'rgazmalar o'quvchi-talabalar o'zi tayyorlagan ko'rgazmlar vositalar ekanligini bilgan holda ko'rgazmani iloji boricha o'quvchi-talabalar bilan birga tayyorlash qoidasi.

13. O'zingiz yaxshi bilmagan narsani hech qachon o'quvchi-talabalarga ko'rsatmaslik qoidasi.

14. Yangi texnik vositalar - o'quv televideniesi, video, kompyuter va boshqalardan foydalilanayotganda, avval o'qituvchining o'z uni yaxshi o'zlashtirib olishlik qoidasi.

15. Ko'rgazmali kurollardan foydalananayotganda o'quvchi-

talabalar diqqatini, fikrlash madaniyatini, konstruktiv fikrini va o‘qishga qiziqishini tarbiyalash qoidasi.

16. Ko‘rgazmani, nazariy bilimni xayot bilan bog‘lashda foydalanish qoidasi.

17. Dars jarayonida ko‘rgazma usulidan foydalanish imkonni, kengayishi uchun ko‘rgazmali vositalarni ko‘rsatish tartibini albatta rejalashtirish qoidasi.

18. Ko‘rgazmali kurollardan foydalaniyatganda, o‘quvchi-talabalar yosh xususiyatlaridan kelib chiqish qoidasi.

19. Ko‘rgazmali qurollar juda ham kuchli ta’sir etuvchi vosita bo‘lib, u o‘quvchi-talabalar hayolini o‘ziga qattiq jalb qilib, dars mavzusining asosiy maqsadidan chalg‘itishi mumkinligini anglash qoidasi.

20. Ko‘rgazmali qurollardan haddan ziyod foydalanish o‘quvchi-talabalarda abstrakt tafakkur rivojiga to‘siq ham bo‘lishi mumkinligini bilish qoidasi.

**Tizimlilik va muntazamlik tamoyili.** Bu tamoyil quyidagi obyektiv qonuniyatlariga suyanadi: inson faqat tashqi dunyoni o‘z tafakkurida aniq aks ettirgandagina haqiqiy va faol bilimlarga ega bo‘la oladi; o‘quvchi-talabalar tafakkurida ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishning asosiy usuli, maqsadga yo‘naltirilgan maxsus ta’limni tashkil qilinishi; maxsus ta’limning tashkil qilinish tartibi o‘quvchi-talabalar imkoniyati va beriladigan bilimning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqqanligi; bilim bernsh jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli bilim berish samarasи, bu boskichlarning orasidagi vaqtini qanchalik qisqa bo‘lishligiga bog‘liq, bosqichlar orasidagi masofa vaqt jihatdan haddan oshib ketsa bilim berish samara bermaydi; agar bilim va unnnng negizida shakllangan ko‘nikmalar mashq orqali takrorlanib turilmasa, bilim va ko‘nikma yo‘qolib ketadi; o‘quvchi-talabalarни mantiqiy fikrlashga o‘rgatilgan bo‘lmasa, ular doimo fikr yuritishda qiyinchiliklarga duch keladilar; o‘qitishda tizimlik va muntazamlikka amal qilinmasa, ta’lim-tarbiya jarayoni susayadi.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyilni ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshnriladi:

1. O‘quvchi-talabalar tomonidan bilimlar tizimi to‘liq o‘zlashtirib

olinishi uchun beriladigan bilimlarni mantiqiy tugallangan bilim bo'laklariga ajratib o'qiting.

2. Mazmunini to'liq ochib bsrishga ko'zingiz yetmagan biron-bir savol va muammonni dars rejasiga kiritmang.

3. Mantikiylikni hech qachon buzmang, buzilib qoladigan bo'lsa, o'zlashtirilmaslikning oldini olish uchun, uni darrov bartaraf eting.

4. O'quv fani – katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog'liqlikni ko'rsatib bering.

5. Nazariy bilimlarni o'zlashtirilishi to'g'ri ketayotginini doimo tekshirib boring: o'rganilayotganning obyekti, predmeti, nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uni qoidalarini, chegaralarini doimo eslatib ularni bajarilishini tekshirish.

6. Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go'yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi- talabalardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish.

7. Boshlang'ich va umumta'lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi vorislikni doimo saqlash zarur.

8. O'kitishning ilg'or usullaridan doimo foydalaning.

9. O'qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o'tilgan bilimlarni doimo takrorlab turing.

10. O'tilgan mavzularni takrorlash usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bilimni tushuntirayotganda ham undan foydalaning.

11. O'tilgan mavzular bilan tez kirishib ketuvchi boshqa yangi fikrlarni bildirmang.

12. O'quvchi-talabalar til savodxonligini faqat til o'qituvchilar kuzatib boribgina qolmay, balki barcha fan o'qituvchilar ham yoshlarning til savodxonligi va nutq madaniyatiga e'tibor berishi lozim.

13. Sabr va chidam bilan hamda uzlusiz ravishda o'quvchi-talabalarni

mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o'rgating. O'quvchi-talabalarning o'rniga o'zingiz javob bera qolmang.

14. Doimo o'quvchi-talabalarga o'qishining istiqbolini eslatib turing.

15. Har bir bilim oxirida albatta umumlashtiruvchi mashg'ulotlarni

amalga oshiring.

16.O‘quvchi-talabalar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib boring.

17.Charchab qolgan o‘quvchi-talabalar faoliyatini hech qachon sun‘iy ravishda faollashtirishga harakat qilmang, faollashtirishni ularning jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqing.

18.O‘quvchi-talabalardan egallagan bilimiga ko‘nikma va malaka xosil qilishni talab qiling.

19.Esda saqlash lozimki, bir tizimda egallagan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, tizim orqali uni darrov esga tushirish oson.

20.Hamma narsa uzlusiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlarining kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganiningizga yo‘l ochib berishi kerak.

**Mustahkamlik tamoyili.** Bu tamoyilda barcha ilg‘or o‘qituvchilar va pedagog olimlarning ko‘p yillik izlanishlari o‘z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan emperik bilimlar birlashib mustahkamlangan.

Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo‘lib keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o‘zgartirishlar kiritildi. Bilimni mustahkam yegallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etadi.

1. Bugungi kungi talimda fikr yuritish eslab qolishdan ustunlik qilishi isbotlangan.

Shuning uchun o‘quvchi-talabalar aqliy quvvatini tejash maqsadida, ulardan keraksiz va kam e’tiborli narsalarni eslab qolishiga kamroq e’tibor berib, uning hisobiga fikr yuritishiga ko‘proq kuch sarflashiga yordam berish.

2. O‘quvchi-talabalar tushunib yetmagan yoki noto‘g‘ri tushunib, qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e’tibor berish lozim. O‘quvchi-talaba, faqat yaxshi tushunib yetib, uni to‘g‘riligiga imon hosil qilgan narsasini xotirasida saqlashi kerak.

3. O‘quvchi-talabalar xotirasini kam e’tiborli axborotlarni eslab qolishdan holi qilish maqsadida, ularni turli lug‘at va ensiklopediyalardan foydalanishga o‘rgating.

4. Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga

oson bo‘lishi uchun, ravon, iloji bo‘lsa she’r vazniga solib turib esda saqlashga o‘quvchi-talabalarni o‘rgatish.

5. Esdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga o‘quvchi-talabalarni o‘rgatish.

6. Yod olishni o‘quvchi-talabalarga uyg‘a vazifa yoki mustaqil ish qilib bermang yaxshisi uni shu narsaga qiziqtirib qo‘ying va vaqt-i-vaqt bilan bu qiziqishni yangilab turing.

7. Takrorlash mashqlarini o‘quvchi-talabalar yangi bilimni egallagan zahotidan boshlash kerak. Chunki, bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq..

8. O‘quvchi-talabalar diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillarni faoliyatiga yo‘l ko‘ymang.

Dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib boring, bilim olish sur’atini susaytirmang.

9. Beriladigan bilimga qizikish va ijobjiy munosabatni shakllantirmsandan turib, yangi bilim berishni boshlamang.

Majburlab berilgan bilim o‘quvchi-talabalar xotirasida uzoq saqlanmasligini unutmang.

10. Bilimni egallash sur’ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlang va bartaraf eting.

11. O‘quvchi-talabalar tomonidan mustaqil ravishda darsni takrorlash eslab qolishning muhim omili ekanini unutmang va o‘zini-o‘zi tarbiyalashga katta e’tibor qarating.

12. Takrorlash darslarini shunday tashkil qilingki, u faqat bilimni fikr yuritishga ham foydasi bo‘lsin. Shuning uchun darslarini asosiy dars tizimida uning hajmini yo ko‘paytiring, yoki kamaytiring.

13. Berilgan bilim xotirada mustahkam saqlanishi uchun, uni qiziqarli qilib, ko‘rgazmali qurollardan foydalanib tushuntirib bering.

14. Yangi beriladigan bilim mustahkam xotirada qolishi uchun, uni avvalgi bilim bilan bog‘lab tushuntirib bering.

15. Bilimni mantiqan bir butun qilib berishga o‘rganing.

16. Oson va bir turdag‘i topshiriq berishdan tiyiling, ular o‘quvchi-talabalarga qiziq bo‘lmay, toliqtiradi.

17. Mashqlar o‘tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

18. Mashq davrida o‘quvchi-talabalarni charchab qolishidan saqlang.

19. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to‘g‘ri foydalaning.

20. O‘quvchi-talabalarni o‘z mehnatini nazorat qilish va baholashga o‘rgating.

**Tushunarlilik tamoyili.** Bu tamoyil bir tomondan, didaktikaning boshqa tamoyillarining talablaridan, ikkinchi tomondan, o‘quvchi-talabalar yosh xususiyatidan, uchinchini tomondan, ko‘p yillik pedagogik tajriba asosida yaratilgan.

Bu tamoyil zaminida **tezaurus qonuni** yotadi. Bu qonun bo‘yicha kishiga bilim faqat uning tezaurusiga mos kelganda tushunarli bo‘ladi. “Tezaurus” lotinchada «xazina»ni bildiradi. Ma’nosi, kishining to‘plagan bilimi, ko‘nikma va fikrlash uslubi uning “tezaurusi”ni tashkil qiladi.

Boshqa qonuniyatlarni ham ko‘rsatishimiz mumkin: a) beriladigan bilimning tushunarligi, uni yegallayotgan o‘quvchi-talabaning yoshi individual-xususiyatlariga bog‘likdir; b) tushunarlilik bilim berishni tashkil qilishga unda qo‘llaniladigan bilim berish usul va uslublariga bog‘liq; v) bilimni tushunarligi uni olayotganning bilim xajmiga va sifatiga bog‘likligi; g) bilimni tushunarligi uni berilish sur’atiga bog‘liqligi va hokazo.

Ya.A.Komenskiy shakllantirgan kuyidagi qoidalari mavjud: osondan qiyingga, ma’lumdan noma’lumga va oddiyidan murakkabga. Hozirgi zamon pedagogik nazariyasi va amaliyoti tushunarlik tamoyilini qo‘llanish qoidalarini kengaytirdi va boyitdi:

1. Bilimni ta’lim oluvchining yoshiga karab berish.

2. O‘quvchi-talabalar tafakkuri berilayotgan bilimga tayyorlangan bo‘lishi shart.

3. O‘qitayotganda o‘quvchi-talabalarning tayyorgarlik va rivojlanganlik darajasiga qarab bilim berish.

5. O‘quvchi-talabalarni individual qobiliyatidan kelib chiqib bilim berish.

6. Bilim berish sur’ati o‘rtacha olib borilishi shart.

Bilim berishda, muayyan kuchlanishni hosil bo‘lishini esda saqlash, bu kuchlanish oshib ketsa o‘quvchi-talabalar toliqib, kuchlanish pasayib ketsa ta’lim oluvchilar zerikib qolishini bilish.

7. Psixologiya va pedagogikaning yangi kashfiyotlaridan unumli foydalaning, asta-sekin ta'lim jarayonini takomillashtiring.

8. Yangi dars o'tishda kuchli o'quvchi-talabalardan va darsni mustahkamlayottanda o'rta va kuchsiz o'quvchi-talabalardan foydalaning.

9 Berilayotgan bilimlarni qarama-qarshi tomonlarini ham tushuntirib o'quvchi-talabalarni bilim olishini osonlashtiring.

10.O'quvchi-talabalarga eng qiyin singadigan bilimlar tabiat va jamiyat taraqkiyotining umumiyligini qonunlaridir. Shuning uchun o'z faningizni o'tayotganda ustalik bilan ularni ko'shib tushuntirib keting.

11.Ta'lim-tarbiya jarayonini asossiz tezlashtirmang va susaytirib yubormang.

12.O'quvchi-talabalarning oraliq yakuniy fikrlarini bildiga yo'ymasdan, ulardan fikrni davom ettirish uchun foydalaning.

13.Tushunarlilik o'qituvchining so'zlarini yuqori hissiyot va har bir so'zni asoslab berilganligi bilan ham belgilanadi.

14.Uzoq monolog so'zlardan qoching.

15 O'qitishning bosh qismida barcha bilim hajmini to'kib solmang, faqat asosiyalarini aytib o'tish bilan kifoyalaning.

16. Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib ko'ya koladi, yaxshi o'qituvchi bu haqiqatni topishni o'quvchi-talabalarga o'rgatadi, degan iborani unutmang.

17 Tushunarli qilib dars o'tish deganda, butun bilimni o'quvchi-talabalarga tushunarli tilda tushuntirib berish yoki bu bilimlarni topishni tushunarli qilib aytib berishda emas, tushunarli dars o'tish deganda kalavani ta'lim oluvchilar qo'liga ushlatib qo'yib, bilimni sekin-asta chiqib kelishini ko'rsatish, o'quvchi-talabalarni rag'batlantirib turish va hokazo tadbirdirlarga aytildi.

**Ilmiylik tamoyili.** Bu tamoyil asosida bir qator qonuniyatlar yotadi. Jumladan; dunyonи o'rganib bo'ladi va insoniyat aniqlagan va amaliyotda sinab ko'rilgan qonuniyatlarini o'rgansa bo'ladi; ta'lim-tarbiya jarayoni, ilmiy faoliyat orqali to'plangan, obyektiv olam to'g'risidagi ma'lumot tizimini o'sib kelayotgan avlodga bildiradi; ilmiylik, beriladigan bilimlar ma'lum bir ketma-ketlikda berilishini taqozo yetadi; ilmiylik, o'kituvchilarining bilimini malum bir ketma-ketlikda berishga amal kilishni ham taqazo etadi; ilmiylik yana

berilayotgan bilim hozirgi zamon ijtimoiy va ilmiy-taraqkiyot darajasiga mosligi bilan hamda tuzilgan dastur va ishchi rejaga mos bo‘lishligi bilan xam belgilanadi.

Didaktika bu tamoyilni amaliyatga ko‘llashning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan.

Pedagogik amaliyot bilan shug‘ullanganda pedagogika, psixologiya va dars berishning үсул va uslublarining eng ilg‘orlaridan foydalanish.

1. Hozirgi zamon didaktika va psixologiya fanlarining ko‘rsatmalari bo‘yicha dars berganda mantiqning faqat induktiv usulidan foydalanibgina qolmay, deduktiv usulidan ham bemalol foydalanaverish.

2. Boshdanoq o‘quv fanining ichki mantig‘ini ochib berishga intilish.

3. O‘quvchi-talabalarda narsa va hodisalarga dialektik yondoshuvni shakllantirish maksadida, xar bir bilimni berishda uning ichki dialektikasiga ahamiyat berish.

4. Takrorlanmasa esdan chikadi degan qoidadan kelib chiqib, har bir darsda yangi bilimni takrorlab turish.

5. Qonuniyatlarni tushuntirayotganda, ularni tashqi muhit, vaqt, eskilik va yangilik orasidagi tafovut hamda ichki sharoitlarga bog‘liqlikda tushuntirish.

6. O‘qitganda, o‘quvchi-talabalarda izlanuvchanlik hissiyotini rivojlantirish.

7. Muayyan qonuniyatni tushuntirishda, uni kashf etgan olimning qisqacha tarjimai holini aytish.

8. Bilim berishda, uni tadqiq qilingan usullarini ham aytib, o‘quvchi-talabalarda tadqiqot usullaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

9. Dars o‘tganda atama, ta’rif va tushunchalarning eskilariga tanqidiy yondoshib, eng yangilaridan foydalanish.

10. Bilim berishda tarixiylik qoidasidan kelib chiqib, berayotgan bilimingizni kashf qilinish tarixini aytish.

11. Fan bilan bog‘liq to‘g‘ri bilimlarini berishda, ular ichidan asosiyalarini ajratib, fandagi ustuvor yo‘nalishlarini ham ko‘rsatib o‘tish.

12. Maktabning yuqori sinflari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji

va ayniksa, oliy o‘quv yurtlarida fandagi bahsli o‘rinlarini aylanib o‘tmaslik.

13. O‘quvchi-talabalarning tadqiqotchilik faoliyatini rag‘batlantirib borish.

14. Yangilik topishni o‘quvchi-talabalarda tarkib toptirish.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Bu tamoyil falsafaning bilish nazariyasining markaziy qoidasiga asoslanadi. Unda, bilishning birinchi va asosiy nuqtai nazari – bu hayotning va amaliyotning nuqtai nazaridir, deyiladi.

U quyidagi qonuniyatlardan kelib chiqadi: har qanday bilimning to‘g‘riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi; amaliyot haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadkiqot natijalarini qo‘llanish hududi; to‘g‘ri tashkil kilingan ta’lim-tarbiya xayotdan kelib. chiqadi; ta’lim-tarbiyaning samaradorligi, uni qanchalik amaliyot bilan bog‘liqligi bilan belgilanadi; bilim berishni samaradorligi, uni politexnik ta’lim bilan bog‘liqligi bilan begilanadi; berilayotgan bilim qanchalik hayot bilan bog‘lansa, o‘quvchi- talabalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

Bu tamoyilni amaliyotda qo‘llanishi quyidagi qoidalari orqali kechadi:

1. Bilim va tarbiya berishda, o‘qituvchi-talabalar bu berilayotganlarni, o‘z hayotiga naqadar zarur ekanini bilib borishi.

2. Bilim berishda xayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab borish.

3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur bo‘lgani uchun kashf qilinganligini ta’kidlash.

4. O‘quvchi-talabalarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib borish.

5. O‘quvchi-talabalarni olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab ko‘rishlarini talab qilish.

6. Ta’lim natijasini ishlab chiqarish bilan bog‘likligini amalda ko‘rsatish.

7. Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish yo‘li bilan bilimni amaliyot bilan bog‘lash.

8. Dars berishda, o‘quvchi-talabalarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish.

9. Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayonidagi olingan bilimlar asosida amalga oshirilishi.

10. Aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borish.

Shunday qilib, **didaktika** ya'ni ta'lim tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta ta'lim tamoyillari har bir davning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarib boradi. Chunki ta'lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun-qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablarga va ta'lim tamoyillariga qay darajada amal qilishlariga bog'liqdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki, buyuk chex didaktik olimi Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida didaktikaning prinsiplarini, ya'ni tamoyillarini ishlab chiqqanidan boshlab, ularni M.I.Skatkin, G.M.Kodjapirova, S.Rajabov, N.G'aybullaev, I.F.Xarlamov, S.P. Ilina, Yu.K.Babanskiy, L.S.Vigoskiy, V.A.Kan-Kalin, R.Yodgorov, R.Mamatqulova, R.Mavlonova, J.Hasanboev, X.To'raqulov, I.Alqarov, N.Usmonov, B.Ziyomuhamedov, N.Vohidova, N.Rahmonqulova va boshqa pedagog olimlar ko'rib chiqdilar, lekin ta'lim (o'qitish) tamoyil (prinsip)larining soni va mazmunini belgilash xususida hozirgi kungacha bir fikrga kelingani yo'q. Ta'lim tamoyil (prinsip)lari soni 6 tadan 11 tagachadir. Tadqiqotlardan ayrimlarining asarlarida turli prinsiplar tavsiya etilgan. Masalan, M.I. Skatkin uzlucksiz ta'lim tamoyilini hisobga olib, o'kitishning mustaqil bilim olishga o'tish prinsipi joriy etilishini taklif qiladi, shuningdek, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga katta e'tibor berib, ta'lim ijobiy asosda olib borilishi prinsipini maqsadga muvofiq deb biladi. Yu.K.Babanskiy didaktikaning yangi yo'nalishlaridan biri – optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqqib, mana shu nazariyaning amaliy yo'nalishini aks ettiradigan uchta yangi prinsipni tavsiya qiladi. Bular esa: 1) ta'limning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy, reproduktiv va izlanishli, shuningdek, boshka metodlar hamda usullarini to'g'ri birlashtirish; 2) ta'limning dars, darsdan tashkari, shuningdek, umumsinf, guruhiy va yakka tartibdaga shakllarini to'g'ri birlashtirish; 3) o'quvchi-talabalarning o'qishga ijobiy munosabatnni kuchaytirish, ularda bilishga qiziqishni,


bilimlarga ehtiyojni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu prinsiplar hali barqaror prinsiplar tizimiga kirgani yo‘q, lekin tajribali pedagoglar pedagogikaning tegishli mavzulari va bo‘limlarini o‘tishda ulardan foydalanmoqdalar.

Barcha predmet o‘qituvchilarini ana ana shu ta’lim prinsiplariga rioxalishlari kerak. Aniq predmetlarning mazmuniga, o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatlari, ko‘rsatmali qo‘llanmalar mavjudligiga bog‘liq xolda prinsiplarning nisbati hamda mazmuni o‘zgartirilishi lozim. Masalan; ko‘rsatmalilik prinsipini tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo‘lsa, tilni o‘qitishda grammatika jadvallarini ko‘rsatish, doskaga yozish, sxemalarni chizish va hokazolardan iborat bo‘ladi.

Lekin har qanday predmetni o‘qitishda jonli mushohada, ya’ni narsa va hodisalarini muayyan idrok etish, fikrlash prinsiplariga amal qilish boshqacha aytganda nazariy xulosalarini tushunish va bilish, ularni hayotda qo‘llay olish zarur.

Umuman, ta’lim (o‘qitish)ning har hil tamoyil (prinsip)lari tavsiya etilayotgan bo‘lsa ham, lekin barcha tadqiqotchi-didaktlar uchun bir qator umumiy ta’lim tamoyil (prinsip)lari mavjud. Ular 3-rasmda keltirilgan.

T  
A'  
L  
I  
M  
  
T  
A  
M  
O  
y  
I  
L  
L  
A  
R  
I



3-rasm. Ta'lim tamoyillari

### Mustahkamlash uchun savollar

1. Qonun, qonuniyat, tamoyil tushunchalarini izohlang?
2. Ta'lim tamoyillarini tushuntiring?
3. Ta'limning fanlararo bog'liqlik tamoyilini tushuntiring?
4. Ta'limning ilmiylik tamoyilini tushuntiring?
5. Ta'limning nazariya bilan amaliyot birligi tamoyilini tushuntiring?

## **7-MAVZU. TA'LIM MAZMUNI**

Ta'limga asosida jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari turadi. Ta'limga insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'liga o'tgan O'zbekiston Respublikasida hozirgi bosqichda ta'limga tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va faoliytkni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

XX asr pedagoglari va psixologlariniig diqqat markazida o'quvchitabalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitish, tarbiyalash kamol toptirish jarayonlarini uyg'unlashtirish. Faoliyat va ongning o'zaro bog'liqligi nazariyasini ishlab chiqish, mustaqil o'quvbilish ishlari, o'qishni faollashtirish, ta'limga jarayonlarini optimallashtirish, faol ta'limga shakl va metodlaridan foydalanish kabi muammolar asosiy o'rinni oladi. Ularni ishlab chiqish mamlakat pedagogika va psixologiya fanlarida jahonda haqli ravishda, e'tirof etilgan turli yo'nalish va maktablar vujudga kelishini oldindan bilish imkonini yaratdi.

Ta'limga jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'limga jarayon sifatida bilimlar, ko'nikma va malakalarining ma'lum yig'indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'limga natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlarning tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta'limga tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida komil insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa, ta'limga doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, tarbiyalash ya'ni o'qitish jarayonini ham ifodalaydi.

Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning barkamol avlod kamol topishi, o'z mavqeini anglash va o'zini ko'rsatish masalalari birinchi o'rinda turadi. Bu masalalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o'zi tomonidan tasodifiy ravishda ham, maqsadga muvofiq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'limga tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maksadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat etilgan.

Ta’lim deganda: shaxsning jismoniy va ma’naviy kamol topish jarayonini, uning ongli ravishda ayrim ibratli qiyofalarga yo‘nalishi va tarix maydoniga kelib, ijtimoiy ongda ma’lum darajada yorqin iz qoldirgan ijtimoiy namuna (masalan, Sparta jangchisi, xushaxlok ruhoni yoki serg‘ayrat ishbilarmondek) bo‘lishi, har tomonlama barkamollikka intilish jarayonini tushunish mumkin. Ana shu tushunchaga ko‘ra, ta’lim butun jamiyat va shaxslar xayotining ajralmas jihatni sifatida namoyon bo‘ladi va bu keng, ma’nodagi «tarbiya» tushunchasiga o‘xshaydi. Lekin ko‘p ma’noliligi ko‘rsatilmasa «ta’lim» so‘zini to‘liq anglab bo‘lmaydi. Masalan, ta’lim deganda ma’lum hajmdagi bilimlar, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tushuniladi. Ta’limga shaxsni o‘kitish va kamol toptirish jarayonini tegishli yo‘sinda tashkil etish sifatida qarash xam mutlaqo to‘g‘ridir. Bulardan tashkari, shubxasiz, ta’lim bilimlar, ko‘nikma hamda malakalarni berish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq faoliyat tizimi, shuningdek, ma’lum ijtimoiy institut (o‘ziga xos vazifalarni bajarish uchun tuzilgan muassasalar tizimi)dir.

Ko‘ramizki, ta’lim turli shakkarda namoyon bo‘ladigan ko‘p kirrali hodisa (daraja, jarayon, faoliyat)dir. O‘quv-tarbiya jarayoni tizimining tuzilishi, ana shu jarayonning mazmuni, pedagoglar va o‘quvchitalabalarining faoliyati, shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning natijasi mazkur tizim jamiyatning kanday tarixiy tipiga mansubligiga bog‘liqdir. Mana shularning hammasini hisobga olib, kuyidagilarni aytish o‘rnlidir: ta’lim — nisbatan mustaqil tizim bo‘lib, uning vazifalari jamiyat a‘zolarini muntazam ravishda o‘kitish va tarbiyalash orqali ularni ma’lum boyliklar, ko‘nikma va malakalar hamda axloq normalari bilan qurollantirishdir. Ana shunday o‘qitish va tarbiyalashning mazmunini pirovard natijada mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi hamda moddiy-texnik taraqqiyotining darajasi belgilaydi.

Endilikda har bir xalqning faqat o‘z milliy madaniyati asosida o‘qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jaxon madaniyati boyliklarini ham anglashi zarurligi to‘g‘risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an‘anaviy vazifa o‘rniga atroficha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg‘a surilmoqda. Ilgari ma’lumotlilik darajasi o‘rganilgan qoidalar, taxlil kilingan asarlar, yodlangan she’rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko‘nikmasi bilan belgilangan bo‘lsa, xozirgi kunda bu daraja

mikyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni ko‘ya bilish xar qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma’lumotlilik darajasini ko‘rsatadi.

Avvalgi vaqtarda o‘quvchi-talabalarni axboratlardan xabardor qilingan bo‘lsa, endi ularda hayotni o‘zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko‘nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimmi, butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta’lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak. Boshqacha aytganda, jamiyatda ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va ta’limni insonparvarlashtirish muammosi ta’limning og‘zaki axborot usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo‘lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo‘nalishi ta’lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tadbiq, birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda fanlarning rolini oshirishda, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan, ikkinchidan, tabiiy-ilmiy va texnika fanlarini ekologik hamda ijtimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Ta’limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlardan biri – o‘quvchi-talabalarga faqat ma’lum xajmdagi bilim-ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyati, uning boyliklari va xilma-xilligiga jalb etishi kerak. Hozir bu muammo g‘oyat jiddiyidir.

**Ta’limning mazmuni** uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta’limning mazmuni deganda o‘quvchi-talabalarning o‘qish jarayonida egallab olishi lozim bo‘lgan doirasi tushuniladi.

Ta’limning mazmunini tanlash bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzumning xususiyatlari.

2. Davlatning xalq ta’limi va muayyan turdagи o‘quv yurti oldiga qo‘yadigan maqsad va vazifalari.

3. O‘qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o‘quvchi-talabalarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e’tiborga oluvchi didaktik talablar va hakozolar.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta’kidlanishicha, ta’limning

mazmuni va ehtiyojlari har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy hayotga va demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni istiqbollariga zo'r ishonch bilan qaraydigan erkin fikrlovchi barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlashtiriladi.

Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Demokratik huquqiy davlat- va fuqarolik jamiyatni qurishda ta'limning mazmuni va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib quyidagilarga amal qilgan holda belgilanadi:

- ilmiy bilimlarni yetakchi roli to'g'risidagi qoidaga;
- insoniyatning madaniy-ma'rifiy merosini va umuminsoniy qadriyatlarni egallab olish haqidagi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ko'rsatmalariga;
- tarbiyanuvchi shaxsni barkamol qilib rivojlantirish, iymone'tiqodini, ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirish;
- ilmiy faoliyat natijalari bilan demokratik va fuqarolik jamiyatni qurilishi tajribasi bog'liqligi haqidagi qoidaga;
- ta'limning bir maqsadga qaratilganligi;
- ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga va didaktika prinsiplariga muvofiqligiga amal qilinadi.

Demokratik huquqiy davlat zaminida fuqarolik jamiyatni barpo etayotgan bizning mamlakatimizda ta'lim mazmuni quyidagi yo'llar bilan ta'komillashtirishni nazarda tutadi:

- fan va tajribadagi yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish;
- ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan o'quv materiallaridan qutilish;
- o'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va o'quv materiallari hajmini aniqlash hamda o'quvchi-talabalar, albatta, o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarining optimal xajmini belgilash;
- o'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni va yetakchi g'oyalarni juda ham aniq bayon qilish;
- o'quvchi-talabalarni pedagogik texnologiyalar: kompyuter, kserks, elektron pochta va shu kabilar to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda shu texnologiyalardan foydalananish ko'nikmalarini hosil qilish.

**Umumiy ta’lim** – bu o‘quvchilarning har tomonlama umumiyligi tayyorgarligini va rivojlanishini ta’minlovchisi fan asoslarini egallab olishdir,

**Kasbiy ta’lim** – shaxsnинг o‘zi tanlagan, nisbatan tor yo‘nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

**Politexnika ta’limi** – o‘quvchilarning hozirgi zamон ishlab chiqarish asoslari, uning energetikasi haqidagi bilimlar sistemasi bilan ta’minlaydi hamda inson faoliyatining turli sohalaridagi ish operatsiyalarini o‘zlashtirib olish uchun zamin, ya’ni bazaviy ahamiyatiga ega bo‘lgan bir kator mehnat ko‘nikma va malakalarini egallash nazarda tutiladi.

**Ma’lumot mazmuni** – yoshlarning ma’lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasinimo‘ljallab, hozirgi zamон fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashining umumiyligi asoslarini didaktik ishlov berish yo‘li bilan tanlangan bilimlar, ko‘nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlardir.

**Ta’lim mazmuni** – yoshlarni ma’lumotli kilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maksadida ma’lumot mazmunidan tanlanib, ta’lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko‘nikma-malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emotsiyonal baholashga doir munosabatlardir. Ta’lim mazmuni, ma’lumot mazmuni asosida tanlanadi. Ta’lim mazmunini o‘rgatish va o‘zlashtirish yo‘li bilan ma’lumot mazmunish amalga oshirishga, binobarin, o‘quvchitabalarni ma’lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalashga erishiladi. Ma’lumot mazmunini tanlashga oid nazariyalarning ayrimlari uzoq o‘tmishga borib taqalsa, ayrimlari XX asrda paydo bo‘lgan. Masalan, **Moddiy ta’lim nazariyasi** XIX asrning keyingi choragida pedagogika nazariyasiga (1879 yil, F.Doerfeld. «**Didaktik materializm**» kitobi orqali) kirib keldi. Moddiy ta’lim nazariyasi asoschilarini maktabining vazifasi bolalarga imkoniyati yetguncha ko‘proq bilim o‘rgatishdan iborat deb hisoblardilar. **Formal ta’lim** tushunchasi 1791 yili (Ye.Smidtning “Empirik psixologiya” kitobida paydo bo‘ldi. Formal ta’lim nazariyasi tarafdarlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko‘rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o‘zi istagancha, o‘z qobiliyatiga yarasha o‘rganadi.

Ta’lim mazmuni quyidagi davlat hujjatlari va rasmiy hujjatlarda

o‘z aksini topadi:

1. O‘quv rejası;
2. O‘quv dasturi;
3. Darslik.

**O‘quv rejası** – davlat hujjatidir. Unga barcha ta’lim muassasalari so‘zsiz amal qiladi. Unda umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb- hunar kollejlari va oliv o‘quv yurtlari bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bu davlat hujjati bo‘lib, xalq ta’limi vazirligi, oliv va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda Respublikada barcha ta’lim muassasalari uchun ajratilgan soatlari va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir. O‘quv rejasini tuzishda quyidagi didaktik omillarga asoslanadi: – o‘quv-tarbiya ishining maqsadi, o‘quvchi- talabalarga aniq ilmiy bilim berish, olgan bilimlarini ko‘nikma va malakaga aylantirib, uni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgatish va h.k.

Shunday qilib, o‘quv rejasni ta’limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo‘lib, unda o‘quv yurtida o‘rganiladigan predmetlarning tarkibi, ularning o‘quv soatlari va haftalari bo‘yicha taqsimlanishi hamda har bir o‘quv predmeti uchun ajratilgan vaktlar mikdori ana shularga muvofiq ifodalanadi. O‘quv rejasni aslida ta’lim mazmunining qabul qilingan u yoki bu nazariy konsepsiyasini normativ yo‘sinda va yaxlit holda aks ettiradigan asosiy hujjatdir.

Ta’limning mazmunini ifodalovchi hujjat sifatidagi o‘quv rejasini ijtimoiy buyurtmaning pedagogik talqini natijasida tarkib topgan ta’lim mazmunining ifodasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Jahon pedagogikasida o‘quv rejasini ayrim o‘quv predmetlaridan tuzish kerakmi yoki turli fanlarga doir bilimlar qandaydir amaliy ish yoki tadqiqot doirasi guruhlanadigan komplekslar va loyihalardan tuzish kerakmi, degan masala xususidagi munozara bormoqda. «Amerika Qo‘shma Shtatlarida kompleks o‘kitish uzoq muddatli elementar muktabdagina emas, balki o‘rta muktabda ham, oliv ta’limda ham davom etadi. Komplekslik g‘oyasining o‘zi nihoyatda keng tus olgan. Amerika pedagogikasida o‘quv dasturlarini predmetlar bo‘yicha tuzishga qarshi kurash boshlanganiga yarim asrdan oshdi».<sup>1</sup>

Pedagogik adabiyotlar, ish tajribalari va pedagogik tadqiqotlar

tahlilicha, o'quv-yurtlarida o'rgatish uchun tanlangan o'quv predmetlarini bir yo'la o'rganish mumkin emas. Chunki birinchidan, bunga jiddiy chegaralangan o'quv vaqtini imkon bermaydi; ikkinchidan, ayrim o'quv predmetlarini o'zlashtirish uchun oldin boshqa o'quv predmetini o'rganish shart. O'tmishtda ana shunda fikr yuritish ma'lum predmetlarni o'rganishda jiddiy izchillik prinsipini mustahkamlashga urinish imkonini berdi.

O'quv rejasiga ta'lim oluvchilarining yosh xususiyatlari muvofiq tuziladi. O'quv rejasiga mazkur yoshdagi o'quvchi-talabalarga mos predmetlar tegishli hajmda kiritiladi va ular o'quvchi-talabalarning har tomonlama muvaffaqiyatli kamol topishiga yordam berishi ko'zlanadi. Har bir predmet uchun o'quv soatlarining miqdorini belgilashda, birinchidan, predmetning ta'lim tizimidagi roli va ahamiyati, ikkinchidan, mazkur predmet bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialining hajmi, uchinchidan, u yoki bu predmetni o'rganishning didaktik xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Bulardan tashqari o'quv rejasida o'quvchi-talabalarning ayrim fanlarga qiziqishi xohishlarini qoniqtirish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga soatlar miqdori ajratiladi.

O'quv rejasiga tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

1. Ta'limning uzluksizligi va izchilligiga.

2. O'quv fanlarining hajmi o'quvchi-talabalarning yoshi, bilim saviyasiga qarab belgilanadi.

O'quv rejasiga kiritilgan fanlar dunyoviy va ilmiy xarakterga ega bo'lib, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratiladi.

O'quv rejasida tabiiy fanlar – matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, informatika, ona tili, chet tili, tarix, falsafa va boshqa ijtimoiy iqtisodiy fanlar asosiy o'rinni egallab, o'quvchi-talabalarda ilmiy dunyoqarash asoslarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy iqtisodiy fanlar bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarning ma'naviy dunyosini boyitadigan va ijtimoiy hayotga tayyorlashda ahamiyatga ega bo'lgan tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi va iqtisod asoslari singari fanlarni o'qitish uchun soatlar ajratiladi.

O‘quv rejasining tushuntirish xatida ikkita qoida yoritiladi: o‘quv rejasining tuzilishi prinsiplari ta’lim mazmunining tarkibi va strategiyasiga ta’sir etadigan, uni to‘g‘rilaydigan omillarlan biri sifatida ifodalanadi; ta’lim mazmunining, ta’lim konsepsiyasini aks ettiradigan hujjat sifatidagi o‘quv rejasining vazifalarini kengaytirmay turib, o‘quv rejasida va o‘quv dasturlarida ta’lim mazmunini tarkibi va o‘quv dasturlarida ta’lim mazmuniňing tarkibi va tuzilishini to‘liq yoritib bo‘lmaydi.

O‘quv rejasida o‘quv predmetining yaxlit kontegratsiyalangan tizimi ikki marta ta’lim muassasasidagi ta’limning dastlabki va oxirgi pog‘onalarida o‘qitishning boshlang‘ich va yakunlovchi bosqichlarida ifodalanadi. O‘quv yurtining o‘rta zvenosida predmetlarni tabaqali o‘rganish asosiy o‘rin oladi.

Ta’limning boshlang‘ich bosqichida integratsiyalangan kurslar kiritilishining sababi o‘quvchi-talabalarda yaqqol tabaqlangan kurslarga qiziqish bo‘masligi, ya’ni ana shu davrda ular dunyoni yaxlit bo‘lishi va idrok etishidir. Kichik yoshdagи maktab o‘quvchisini va birinchi kursdagи talabani bilimlarini o‘zlashtirish jarayonining o‘zi qiziqtiradi. Predmetni bilishga qiziqish aqliy faoliyatning murakkab shakllarda rivojlanshiga va keyinchalik predmetlarning tavsiflanishiga bog‘liq holda vujudga keladi.

Amaliyotdan ko‘rinadiki, yangi tipdagи maktablar, akademik litsey, kasb- hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarini tashkil etilishi, ta’lim mazmunidan ortiqcha mafkuraviylashtirish va cheklashlarni chiqarib tashlash orqali ta’limdagи bir xillikning o‘zini qayta qurish, o‘qituvchi bilan o‘quvchi- talabalar munosabatining uslublarini o‘zgartirish natijalari yaxshi sezilmayotir.

*Ta’lim muassasalarida ta’limning mazmunini yangilash borasidagi tadbirlar va yechimlar orasidagi o‘rta maktab o‘quv materiallarini quyi sinflarga, oddiygina ko‘chirish bilan yoki akademik litsey materialini kasb- hunar kollejlarda yoxud oliy o‘quv yurtlarida qayta takrorlash bilan o‘quvchi- talabalarning qobiliyatini tezkor rivojlantirishga, ta’limning sifatini oshirishga intilishlar ham uchramoqda. Bunday materiallar esa o‘quvchi- talabalar o‘zlashtirishining psixologik xususiyatlariiga ham, o‘qitish metodlariga ham to‘g‘ri kelmaydi. Shunga ko‘ra, mazkur tadbir ortiqcha so‘zlarni kiritish, axborotlarni*

*ko'paytirish bilan ta'limgning mazmunini murakkablashtiradi va hajmini oshiradi, o'quvchi-talabalarning xotirasi cheksiz bo'lsa-da, ular uchun o'quv mashg'ulotini qiyinlashtiradi xolos.*

Insonparvarlik munosabatini boyitish milliy qadriyatlarning o'zgarishini talab qiladi. Endilikda ta'lim jarayonida bilimlarning tayyor shakllarini o'zgartirish, asosan, faoliyatning qayta tiklash turlaridan foydalanish emas, balki o'quvchi-talabalar faoliyatining bilim olish jarayoniga bog'liq izlanish turlarini faollashtirish kerak.

Psiyologlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ta'lim va shu yo'sinda qayta qurilsa, o'quvchi-talabalar to'liq kamol topish subyektiga aylanadi. Shunda u faqat qayta tiklash va to'ldirish lozim bo'lgan bilimlar bilan ta'minlanadigan pedagogik ta'sir ko'rsatish obyekti hisoblanmaydi.

O'quvchi-talabalar faoliyatining jamoaga taqsimlangan shakllarida yoki o'qituvchi bilan birga ishlashda mustaqil bilim olish jarayoniga faol kirishadi va o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, mustaqil bilim olish jarayonidagi faol izlanish ishlarida, hatto qynchiliklarga duch kelinsa ham o'quvchi-talabalarning sog'ligiga ijobji ta'sir etadi. Shifokorlar va psixologlarni tasdiqlashicha, o'quvchi-talabalar faoliyatining ro'yobga chiqmasligi, ularga yomon ta'sir ko'rsatishi, intizomsizlikni huquq buzish hollarini vujudga keltirishi, o'quvchi-talabarni "yuqoriga" emas, balki "pastga" yetaklashi mumkin.

Ta'lim mazmunini qayta qurishning butun murakkabligi shundaki, o'quvchi-talabalarni kamol toptirish talaba, ularning ijodiy ishlashini kuchaytiradigan metodlarni faol qo'llashga olib boradi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarurligi esa tafakkurning reproduktiv komponentlaridan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. Bunda ularni oqilona birlashtirish, tafakkurning samarali va reproduktiv komponentlari shakllanishining didaktik birligiga erishish, ayrim tadqiqotchilar taklif qilayotganidek reproduktiv komponentlarni inkor qilmaslik kerak.

Shunday qilib, jamiyat uchun nihoyatda zarur alternativ ta'lim muassasalariga o'quvchi-talabalarning ya'ni o'sgan va tayyorlangan sara qismi yig'ilayotgan yoshlarni o'qitish odatdag'i ta'lim muassasalariga yuklanayotgani sababli insonparvar pedagogika g'oyalarini amalga oshirish yo'liga kirgan ommaviy ta'limning vazifasi juda

murakkablashmoqda. Tabiiyki bunday ta’lim muassasalarida ham o‘quvchi-talabalarga ma’lum bilimlar doirasida axborotlar berish va juziy ko‘nikmalarini singdirish bilan cheklanish mumkin emas: ularni imkonli boricha yuqori darajada kamol toptirish kerak.

**O‘quv dasturi** – DTS va o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O‘quv dasturi har bir o‘quv fanining o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi tizimi va g‘oyaviy siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. Unda ma’lum bir o‘quv fani bo‘yicha o‘qitiladigan bilim hajmi va ta’lim mazmuni ifodalanadi.

O‘quv dasturida o‘quv yili davomida har qaysi ta’lim muassasasida (maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o‘quv yurti) alohida fanlar bo‘yicha o‘quvchi-talabalarga beriladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarning xajmi belgilab beriladi. O‘quv dasturda har qaysi o‘quv fanlarining majmui izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko‘rsatiladi. Ma’lum mavzu yuzasidan o‘quvchi-talabalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

O‘quv dasturini tuzishda quyidagi didaktik qoidalarga va prinsiplarga qat’iy amal qilinadi:

### **1. Dasturning aniq bir g‘oyaga asoslanganligi (prinsipi).**

Dastur demokratik huquqiy davlatning va hozirgi kunda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan ta’lim tizimi, fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlardagi erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy-nazariy asosda aks ettirishi lozim.

### **2. Dasturning ilmiylik prinsipi.**

Har bir ta’lim va tarbiya g‘oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, aniq, to‘g‘ri, haqqoniy, ishnochli dalillar, kuzatishlar, manbalar, materiallar asosida kiritiladi.

Ma’lumki, hozirgi kunda fan va texnika tobora rivojlanib, yangi-yangi kashfiyotlar paydo bo‘lmoqda. Fan-texnikaga oid yangi ma’lumotlar va masalalar kiritilishi munosabati bilan o‘quv dasturidagi vaqt o‘tishi bilan ayrim eskirgan tushunchalar va masalalar o‘quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

**3. Dasturning qat’iylik prinsipi.** O‘quv dasturi jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan-texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar sohasida erishilgan yutuqlar

darajasini aks ettirishi lozim. Hamma o‘quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat’iy bo‘lishiga erishish shu fan bo‘yicha mukammal darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega.

#### **4. Dasturning nazariya bilan amaliyot birligi prinsipi.**

Ilmiy bilimlarni puxta egallash va o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish uchun o‘quvchi-talabalarga beriladigan nazariy tushunchalar ijtimoiy qurilish amaliyotiga bog‘lab, aniq hayotiy misollar bilan mashqlar, tajribalarda ko‘rsatib, xulosalar chiqarish kabilalar bilan bog‘lanishi lozim. Bu o‘quvchi-talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Dasturning asosiy vazifasi – o‘quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda o‘quv predmetining sinflarga, (kurslarga), bo‘limlarga, bosqichlarga, qismrlarga, mavzularga bo‘linishi, ularning o‘rganish tartibi, soatlar turi ko‘rsatiladi. Hatto, dasturdagi masalalar ro‘yxati ham undagi boshqa bilimlarning mazmunidan tashqari protsessual yo‘nalishi ham mavjudligidan dalolat beradi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta‘limning mazmunini o‘quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari u darslikka o‘tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo‘llanma hisoblanadi.

Masalalar ro‘yxati – dasturning markaziy bo‘limidir., ammo unda boshqa bo‘limlar ham bo‘lib, ular darslikning tuzuvchilar fikrini va o‘qituvchilarning faoliyatini ma’lum yo‘nalishga solishi kerak. *Har bir o‘quv predmeti bo‘yicha DTS asosida o‘quv dasturi to‘rt qismdan: tushuntirish yoki o‘qtirish xati (har xil dasturda mazmuni turlich); ro‘yxat ko‘rinishidagi mazmunning o‘zi (mavzular, masalalar, laboratoriylar va amaliy ishlar, namoyishlar, ekskursiyalar); predmetlararo aloqalar ko‘rsatilgan bo‘lim hamda o‘quvchi-talabalarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar ifodalangan bo‘limlardan iborat bo‘ladi.*

Har bir o‘quv fanining maqsadlari va vazifalarini ifodalash – dasturning eng muhim elementidir. Xususan ana shu maqsad va vazifalar darslik muallifining dasturni amalga oshirishdagi ma’lum nuqtai nazarini va o‘qituvchining darslikni to‘g‘irlashi hamda o‘qitish jarayonini tashkil etish uchun tegishli yo‘nalishni belgilaydi. O‘qituvchi ayniqsa, yosh o‘qituvchilar o‘z izlanishlarini yo‘nalishini belgilab olish uchun kursning

maqsadini chuqur anglashlari kerak. Dasturlarda shunday vazifalar beriladiki, o'qituvchi ularni hal qilish uchun oliy o'quv yurtida tayyorlanmagan bo'ladi. Buning maqsadi sifatida ta'lim mazmuniga metodologik bilimlarning kiritilishini aytish mumkin. Har bir o'quv faniga mana shunday talablar qo'yilishining o'zi o'qituvchilarни chuqur o'ylashga majbur etadi. Tajribali pedagog o'tgan yillardagi dasturlarda bunday vazifalar bo'lmasligini sezadi. Bu hol uning mustaqil bilim olishi, ijodiy izlanishi, shuningdek, metodik birlashmada ishlashi uchun turki bo'ladi.

Demak, o'quv dasturlari DTSga asoslanib davlat tomonidan tasdiqlangan hujjatdir. Shu bois ham barcha turdagи ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni zamon talablariga javob beradigan o'quv rejasи va o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi.

**Darslik.** Dasturda ta'limning mazmuni *mazmlar ro'yxati* orqali ifodalanadi. O'quv materiali o'quvchi-talabalarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalarda, kitoblar va didaktik materiallarda, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi.

**Darslik ma'lum bir fanning mazmunini dastur asosida didaktik talablarga rioya qilgan holda bayon etuvchi o'quv kitobidir.**

Darslik bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni o'quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari ilmiy bilim-ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan quyidagi kitob va qo'llanmalardan ham foydalanadilar:

1. Badiiy adabiyot;
2. Ilmiy adabiyot;
3. Ilmiy-ommabop adabiyot;
4. Masala va mashqlar to'plami.

Darslik o'quvchi-talabalarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda tahlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchi-talabalarga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg'otishi, shu soha bo'yicha bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirishi kerak.

Darslik o'quvchi-talabalar uchun ham metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kirtish tartibini, ularni yoritish chuqurligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini

belgilaydi.

Obrazli qilib aytganda, darslik o‘qitish jarayonining “ssenariysi”dir. Unda o‘qituvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash yo‘llari belgilanadi, yemotsional – qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko‘rsatiladi. Darslikda ta’limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o‘quvchi-talabalarning ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlaydigan bosqichlar bo‘yicha joylashtiriladi. Lekin mакtabdagи boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan darsliklar bag‘oyat o‘ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo‘lib u sinflar sayin asta-sekin vujudga keladi. O‘rta maktabda ba’zan o‘quvchi darslikdan tamomila mustaqil holda foydalana olish- olmasligi muhokama qilinsa, boshlang‘ich sinfda bu ishga o‘qituvchining rahbarligi majburiyidir. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchi-talabalarning o‘zlarini mustaqil mutolaa va muhokama qilishni bilishadi.

Ijodiy ishlaydigan o‘qituvchilarning tajribasini tahlil qilib juda muhim kuzatishni amalga oshirish mumkin. Ular darslik va o‘zlarining metodik qo‘llanmalaridan prinsip sifatida emas, balki normativ model sifatida foydalananadilar. Aslida o‘qituvchilar o‘quvchi-talabalarning ehtiyojini, shaxsiy imkoniyatlarini nazarda tutib, o‘z darsliklarini yozadilar. Ular darslikni to‘ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib, uning mualliflari bilan hamkorlikda ish olib boradilar. Binobarin, muallif o‘quvchi-talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ularga tabaqali yondashish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

O‘qituvchi doimo o‘quv yili boshlanishidan oldin va keyinchalik har kuni darslikka murojaat qiladi. Uning bundan maqsadi har gal har xil bo‘ladi. Darslik o‘qituvchining qo‘lida juda ko‘p vazifalarni bajaradi. U, avvalo, predmetni o‘qitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir o‘qituvchi ana shu vazifani biladi va uni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

Darslik bilan o‘quv jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma’lumotlar va hokazolardan o‘z o‘rinda foydalanish lozim.

Darsliklarda savollar va topshiriqlar ta’lim konsepsiyasи asosida tuzilgan va metodik nuqtai-nazardan to‘g‘ri joylashtirilgan (kamol toptirish maqsadida yoki rasmlar orqali ifodalangan bo‘lishi lozim.

Ular, asosan, quyidagi uch guruhga bo‘linadi:

**Birinchi guruh** bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

**Ikkinchchi guruh** tafakkurni o‘stiradigan (mustaqil ishlashni taqsimlash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

**Uchinchi guruh** o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallahsga) doir savol va topshiriqlarni o‘z ichiga oladi.

Darslikda o‘quv dasturining barcha talablari aks etishi va asosiy g‘oyalar, xulosalar yaqqol ifodalanishi lozim.

Darsliklarni yaratishda va mazmunini o‘quvchi-talabalarga moslashtirishda quyidagi didaktik talablarni alohida e’tiborga olish kerak:

–materiallarni darsliklarga to‘g‘ri taqsimlash;

–darslikda aks etgan ilmiy bilimlar o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatiga mos kelishi kerak;

–darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g‘oyalari tizimli, mantiqiy jihatdan aniq va qisqa, izchil bo‘lishi kutiladi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo‘lishi talabchanlikka asoslanishi lozim;

–darslikdagi nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak;

–darslik tilining soddaligi, ravnligi, ta’lim oluvchilar nutqini o‘stirish uchun tegishli qoida va ta’riflar berilishi kerak;

–darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o‘quvchi-talabalarning yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo‘lishi kerak;

–o‘quvchi-talabalarga beriladigan vazifalarni asta-sekin qiyinlashtirib borish (tizimga solish);

–o‘quvchi-talabalarga tabaqali yondashishni nazarda tutish (topshiriqlarni qiyin yoki osonligiga qarab tanlash);

–darsda, uy vazifalarini va mustaqil ta’lim bilan bog‘liq savol topshiriqlarni bajarishda, takrorlashda asosiy va qo‘srimcha materiallarni ajratish;

–darslikdagi savol-topshiriqlarning mo‘ljallangan vaqtga mosligi va

o‘quvchi-talabalarni qiy nab qo‘ymasligi;

—darslikning mazmuni (o‘quvchi-talabalarni qiziqtirish, mavzumatnlarining g‘oyaviy-estetik jihatlari) uni o‘rgatishning metodik tizimiga muvofiq bo‘lishi va hokazolar.

Darslikning asosiy komponenti uning matnidir. Matnlar asosida va qo‘s himcha materiallardan (murojaat, hujjat, xrestomatiya va hakozolardan) hamda tushuntirishlardan iborat bo‘ladi. Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o‘rni, illustrasiyalarga boyligi va eng muhim o‘quvchi- talabalarga ta’siri hisobga olinishi kerak. Mana shu didaktika talablari amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o‘ziga xos muammolarini to‘g‘ri hal qilish, darslik o‘quvmetodik ishlarining asosi bo‘lishi kerakligini nazarda tutish shart.

Shunday qilib, darslikda har bir fanning mazmuni va shu fanga oid ilmiy bilim asoslari o‘quv dasturiga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qilinadi. Darsliklar bilan bir qatorda ayrim fanlardan o‘quv qo‘llanmalar ham yaratiladi. Masalalar, mashqlar va testlar to‘plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug‘at kitoblar kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Umuman, darslik va o‘quv qo‘llanmalaridagi materiallar katta ta’limiy- tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, u bilan ishlash o‘quvchi-talabalarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, ahloqodob, tafakkur, nutq va ijodiy mustaqillikning rivojlanishiga yordam beradi.



**5-rasm. Ta'lismazmunini tanlash ehtiyojlari**

#### **Mustahkamlash uchun savollar**


- 1) Ta'lismazmunini tushuntiring?
- 2) DTS nima?
- 3) Darslik va o'quv qo'llanma farqini tushuntiring?
- 4) O'quv reja qanday hujjat?

## **8-MAVZU. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI**

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida ta'lif berish va o'qitish paydo bo'lgan va mustaqil jarayon sifatida ajralib chiqqan vaqtidan boshlab tashkiliy shakllarida turlicha amalga oshirilgan.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlarida ta'lif berish ishlarni kishilarning mehnat faoliyati, tur mush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, katta yoshdagilar hayotiy tajribasini yoshlarga o'rgatish ishlari **yakka tartibda** (individual) olib borilgan. Bu o'qitishning eng qadimgi shakli – **ta'lifning individual shakli** hisoblanadi. Ta'lifni tashkil etishning individual shakli (kichik guruuhlar shaklida) antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan Yevropadagi ba'zi mamlakatlarda keng foydalanimilib keltingan.

**Individual ta'lif** (kichik guruuhlar shaklida) bir qatorafzalliklarga ega, shuning uchun ta'lifning bu shakli bizning davrimizgacha **repetitorlik ta'lifi shaklida** saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni va metodini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va faoliyati jarayonlarini kuzatib borishdan iborat. Individual ta'lif o'qituvchining yuqori pedagogik malaka va mahoratga ega bo'lishni talab etadi.



Individual ta'lif (o'qitish)ning afzallik(ustunlik)lari bilan bir

qatorda uning bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

1)vaqtning tejamlı emasligi;

2)o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchi- talabalarga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

3)boshqa o'quvchi-talabalar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);

4)jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi va h.k.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini **ta'limning individual – guruhli shakli** egallashiga imkon beradi.

Ta'limning individual – guruhli shaklidan Yevropada XVI asrda keng foydalana boshladilar. Vaholanki, Markaziy Osiyo davlatlarida ta'limning **individual – guruhli shaklidan** qadimgi (antik) davrlarda keng foydalaanganlar. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" (miloddan avvalgi VII-VI asrlar)da talqin etilishicha, ibodatxonalar qoshidagi maktablarda individual – guruhli o'qitish jamoali o'qitish bilan birga qo'shib olib borilar edi. Birinchi navbatda, bolalarga zardushtiylik dini asoslari, Oliy Tangri Axura Mazdaga iltijo va murojaatlari-yu farzları, Zardusht o'gitlari puxta o'qitilib, kalome – bad'e asoslariga suyangan holda "Gohlar" maxsus yodlatilgan. Ikkinchidan jamiyat taraqqiyoti ehtiyoji va talablaridan kelib chiqqan holda, bolalarga riyoziyot (matematika), xandasa (geometriya), falakiyot (astronomiya), tarix, falsafa, huquqshunoslik, tabobat va boshqa dunyoviy fanlar o'qitilgan. Kichik yoshdagি bolalarni o'qitishda ustoz- kohin (o'qituvchi) 21 kitob (nask)dan iborat "Avesto"ning "Goh" "Yasht" yoki boshqa kitob (nask)laridan birini ochadi, bolalar navbatma-navbat ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda (individual-guruhli) takrorlaydilar, mashqlarni esa maxsus taxtachalarga yozganlar. O'qitish jarayonida ko'rsatmali quollardan, hikoya qilish va suhbat – muloqot uslublaridan keng foydalanilgan. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash, hamisha esda tutish talab qilingan, egallangan bilimni sinash maqsadida ta'lim oluvchilarning bilim darajasi muntazam tekshirilib va baholanib

borilgan. Tashkil etish quyosh chiqqandan to botguncha davom etgan, uy vazifalari (topshiriqlari) mavjud bo‘lmagan.

O‘rta asr Uyg‘onish davrida (IX-XII asrlar davomida) al-Xorazmiy, al-Forobi, al-Beruniy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning asarlaridagi g‘oyalarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, bevosita o‘rganilayotgan fan mantig‘idan ajratilmagan. Shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari, ta’lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga xos g‘oyalar alohida kitoblarda berilmay, balki bevosita amalda (tajribada), biron ta fanni o‘rganish asosi aniq bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida yoritiladi.

**Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783-850) “Al-kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala” (“Aljabr va al muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” asari bilan algebra fanining asoschisi sifatida matematika fanida abstraksiya (mavhumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo‘li bilan masalalarni umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo‘li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi.

Al-Xorazmiy o‘qitish jarayonini tashkil etishda bilim berishning ko‘rgazmali tajriba usullari, savol-javob, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, talabalarning bilimlarini sinash usullaridan keng foydalangan.

**Abu Nasr Forobi** (873-950) o‘z asarlarida o‘qitish jarayonini tashkil etishda ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish xususida fikr bildirsa ham, ammo har birining inson shaxsini kamol toptirishda o‘z o‘rnii va xususiyati bor ekanligini alohida qayd qiladi:

**“Ta’lim – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb – hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.**

**Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir”.**

Forobiy o‘qitish jarayonini tashkil etishda ta’lim-tarbiya berishning ishontirish va majbur etish metodlari uštida to‘xtab, shunday yozadi: “**Amaliy fazilatlar va amaliy san’atlar (kasb-hunar) va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo‘l bilan hosil qilinadi: birinchi yo‘l qanotbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi. Odamdagи g‘ayrat, kasb-intilish harakatga aylantiriladi.**

Ikkinchи yo‘l (usul) – majbur etish yo‘lidir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni o‘rganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo‘lib, kasb-hunarlarni va juz‘iy san’atlarni egallashlarga intilishi bo‘lsa, bunday yoshlarni majbur etmaslik kerak, maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb – hunar ahillariga aylantirishdir”. Ta’limning differensiyasi (darajalanishi) haqidagi al- Forobiyning didaktik xulosalari hozirgi davrning ta’lim nazariyasi uchun ahamiyati yo‘qotmaganligini alohida ta’kidlash lozim:

“Ishontirish metodlari va xayolda paydo bo‘lgan fikriy tasavvurlar oddiy xalqni, xalqlardagi va shaharlardagi oddiy kishilarga ta’lim berish davomida qo‘llaniladi. Qaysiki, ishonchli dalillash metodi, ya’ni narsalarning mohiyatiga o‘zining aql bilan yetishish metodi tanlaganlar qatoriga chiqishi mumkin bo‘lmagan kishilarnigina o‘qitish davomida qo‘llanadi”. Al-Farobi ta’lim jarayonida bilimlarning boshlanishi va dalillarning asosi hisoblanadigan kuzatish va tajriba kabi ko‘rgazmali metodlarni keng qo‘llashni taklif etadi. Tajriba natijasida olingan va kuzatishlar yoki tajriba yo‘li bilan tekshirilgan bilimlar natijasida ta’lim oluvchining fikr-o‘yi aqqliroq bo‘lib boradi, uning o‘zi esa – ko‘p darajada mukamallahashi.

**Abu Rayhon Beruniy** (973-1048) ta’lim jarayonini tashkil etishda, birinchidan, ta’lim oluvchiga bilim berishda turli mavzular yuzasidan mulohazalar yuritishni, ikkinchidan, tolibi ilmlarni zeriktirmasdan ko‘rgazmali bayon etishni, xotirasiga malol keltirmaslikni ta’kidlaydi: “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir, hadeb bir narsani o‘qiyverish zerikarli bo‘ladi va toqatini toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli-tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi, bir bog‘dan o‘tar-o‘tmas, boshqa bog‘ boshlanadi. Kishi ularning

hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi”.

**Abu Ali ibn Sino** (980-1037) “Tadbiri manzil” asarining “Omuzish va parvarishi modarabo farzand” (Bolalarni maktabda o‘qitish va tarbiyalash”) bo‘limida o‘quvchilarini, ya’ni tolibi ilmlarni *jamoali ya’ni sinf-dars shaklida o‘qitishni* tashkil etishda quydag‘i tomonlarga qat’iy rioya etish zarurligini takidlaydi:

-agarda o‘quvchilar(tolibi ilmlar) birlgilikda o‘qisalar,ular zerikmaydilar, fanni o‘rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o‘zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o‘qishi yaxshilanishiga yordam beradi;

-o‘zaro suhbatlarda o‘quvchi(tolibi ilm)lar kitobdan o‘qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma’lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

- bola (tolibi ilm)lar birlgilikda yig‘ilganlarida bir-birlari bilan do‘stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar, ular faqat musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o‘quv materialllarini o‘zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bola (tolibi ilm)lar mag‘rurlanadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni o‘rganadilar.

**Burxoniddin Zarnuji** (XII asr) “Bilim olish yo‘lida o‘quvchiga maslahatlar” nomli asarida ta’lim (dars)ni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Uning ta’kidlashicha, maktab va madrasalarda dars jarayoni taxminan bir soat davom etishi kerak. O‘qituvchi darsga tolibi ilmlar tushunishi va o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan o‘quv materialllarini tanlab olishi, darsda o‘rganiladigan materiallarni sodda qilib tushuntirib berishi lozim. O‘quv materiallari shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o‘zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo‘lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.

**Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek** (1394-1449) davrida o‘qitishning sinf- dars tizimlari, bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqaqlashtirib o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishning aniq bir muddatini belgilab qo‘yish, xotin- qizlarga ta’lim-tarbiya berishni aniq bir tizimga solish va boshqa ko‘pgina o‘xhash islohotlar amalgaloshirildi. Jumladan, Ulug‘bek madrasalarda o‘qish muddatini qat’iy 8 yil qilib belgilab qo‘ydi.

Shuningdek, maktab va madrasalarda dars berishning individual mashg‘ulotlar tizimini bekor qiladi va “**jamo**a” sinf-dars tizimiga yaqin bo‘lgan shaklini joriy qildi. Umumiy ma’ruzani 50-70 nafar tolibi ilmlardan iborat guruhga odatda, ilm-fan bo‘yicha o‘z sohasida mashhur Shamsiddin Muhammad Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi kabi olim mudarrislar o‘qiydi, amaliy mashg‘ulotlarni esa 10-15 talabadan iborat guruhda kichik mudarrislar olib boradi. O‘qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan.

Ulug‘bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida mudarrislar o‘qituvchilardan tolibi ilmlar (o‘quvchi-talabalar) bilan rasadxonada amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni talab etdi, bunga bevosita o‘zi rahbarlik qildi.

Ulug‘bekning fikricha, tolibi imlar hayotida darslik muhim o‘rinda turadi. Shunga ko‘ra, uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix va boshqa fanlardan sodda, tili ravon, tushunarli, mantiqiy izchillikda o‘qimishli darsliklar yozilgan. Lekin shu o‘rinda o‘qitishning “**jamo**a” shaklining salbiy tomonlari ham bo‘lganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Jamoali o‘qitish shakli XX asr ta’lim tizimida mashhur bo‘lgan guruhli laboratoriya metodida bo‘lgani kabi o‘zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o‘zlashtirmagan ba’zi shogirdlar ham ilg‘or (o‘zlashtirgan)lar qatorida bir qo‘llanmani o‘rganishga o‘z-o‘zidan o‘tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar.

Ta’limni individual – guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir o‘quvchi-talaba bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi o‘quvchi-talabalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir o‘quvchi-talabadan o‘tilgan mavzuni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan o‘quvchi-talabalar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda bolalar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan ham.

XV-XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi o‘quvchi-talabalarga ta’lim berishning ommaviy shakli

yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri o‘quvchi-talabalarni **guruhli** (jamoali) ta’limi sanaladi. U Rossiya (hozirgi Belorusiya va Ukrainianing g‘arbiy hududlari) **birodarlik** maktablarida ilk bor qo‘llanilgan va o‘qish sindarsli shaklining asosi bo‘lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Kamenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogika nazariyasiga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarini kiritdi.

Ya.A.Kamenskiy “Buyuk didaktika” (1632) asarida o‘quv mashg‘ulotlarini guruh shaklida uyuştirib, ularda har yili va har bir o‘quv kunini bir vaqtida boshlashni; har qaysi mashg‘ulot uchun muayyan muddat belgilashni; mashg‘ulotlar o‘rtasida tanaffuslar berilishini; guruhlarda o‘quvchi-talabalar yoshi va soni bir xil bo‘lishini, materialni bir xil sur’atda o‘rganishni; o‘quv mashg‘ulotini muayyan tashkiliy shaklda; o‘quvchi-talabalar e’tiborini bir nuqtaga to‘plash, o‘qituvchining tushuntirishi, tushuntirishlar davomida va undan keyin o‘quvchi-talabalarga savol berish, o‘quv materiali mazmuni qanday o‘zlashtirilganini nazorat qilish shaklida o‘tkazishni ta’minalash maqsadga muvofiq va zarur ekanligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Guruhli (jamoja) mashg‘ulotlarning bunday shakli **sinf-dars** tizimi nomini olib, juda ko‘p mamlakatlarga tarqaldi, mustahkamlandi. U bugungi kunda ham takomillashgan ko‘rinishda keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

**Sinf-dars** tizimining bugungi mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etish o‘ziga xos shakl sifatida quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sinfi yoki talabalar guruhini tashkil etadi. Ta’lim muassasasida sinf o‘quvchilari yoki talabalar guruhi o‘qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibni saqlab qoladi;

- sinf yoki guruh o‘qish faoliyati yagona yillik, o‘quv rejasi va dasturi asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida o‘quvchi-talabalar ta’lim muassasasiga yilning bir vaqtি va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi;

- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi, shu bois

o‘quvchi- talabalar sinfda yoki auditoriyada bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda o‘quvchi-talabalarning o‘qish faoliyatiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir o‘quvchi-talabani alohida bilimini baholaydi.

K.D.Ushinskiy tomonidan sinf-dars tizimi, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasi yanada rivojlantirildi. U har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog‘langan quyidaǵi uchta qismini ajratib ko‘rsatadi:

1) ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va o‘quvchi-talabalarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi;

2) asosiy masalani hal etishga yo‘naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi;


3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash, bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

A.Disterverg esa darsni tashkil etish, o‘qituvchi va o‘quvchi-talabalarning faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o‘quvchi-talabalarning yoshi va imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab berdi.Ta’limning sinf-dars tizimi alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

**Afzalliklari:** yaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo‘lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini bирgalikda izlash jarayonida bolalar o‘zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o‘qituvchining o‘quvchi-talabalar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsiyonal ta’sir ko‘rsatishi; ta’limning emotsiyonalligi (zero, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida o‘quvchi-talabalarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o‘quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini o‘zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

**Kamchiliklari:** tizimning asosan bilimlarni o‘rtacha darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchi-talabalar uchun mo‘ljallanganligi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi-talabalar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o‘zlashtiruvchi o‘quvchi-talabalar qobiliyatlarining rivojlanish sur’atining ortga surilishi; o‘qituvchi uchun o‘qitish

mazmuni va o‘qitish sur’atlari hamda metodlari bo‘yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o‘quvchi-talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli o‘quvchi-talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.



**6-rasm. Ta’lim jarayoni shakllari**

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Ta’limning individual shaklini tushuntiring?
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy asarlardagi g‘oyalarning o‘ziga xosligini ayting?
3. O‘quv jarayonini tashkillashtirishda boshqa mutafakkirlarning asarlardagi g‘oyalarning o‘ziga xosligi ayting?

## **9-MAVZU. O'QITISH METODLARI VA VOSITALARI**

“Pedagogik adabiyotlarda, lug‘atlarda va ta’lim jarayonida “metod”, “me- todika”, “usul”, “uslub” atamalari tartibga keltirilmasdan ba’zi o‘rinlarda “Ta’lim metodlari”, “o‘qitish metodlari”, “o‘qitish usullari”, “o‘qitish uslublari” tarzida turlicha talqin qilinmoqda. Shu bois ta’lim metodlari mazmun-mohiyatini batafsilroq ta’riflashga va izohlashga qaror qildik.

“Metod” – yunoncha so‘z bo‘lib, “aynan nimagadir yo‘l” degan ma’noni anglatadi, ya’ni “maqsadga erishish usuli yoki yo‘li” demakdir, muayyan ma’noda esa “tartibga solingan faoliyatdir”.

“Metod” tushunchasi bilan bir qatorda “metodik usul” degan tushuncha ham qo‘llaniladi. “Metod” ancha keng tushuncha, “Metodik usul” metodning bir qismi, uning mexanizmi sifatida tushuniladi. Agar o‘qituvchining mavzuni tushuntirishdagi hikoyasi *metod* bo‘lsa, hikoya qilish vaqtida o‘quvchi-talabalarga qaratilgan savollar ularni faollashtirishga yordam beruvchi *metodik usul* bo‘ladi. Shuningdek, mavzuni ko‘rgazmali qurollar va o‘qitish texnikasi vositalari yordamida ko‘rsatish ham *metod*, mavzuga bog‘liq o‘quv materiallarining bir qismini sekinlashtirilgan holda ta’minlovchi *metodik usuldir*. Shuningdek, o‘quv-bilish faoliyatining maqsadga yetishishda qo‘llaniladigan metodik usullar tizimini *uslub* (yo‘l) desa mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya uslub (metodika)larini tavsif qiladigan bo‘lsak, u o‘qituvchi bilan o‘quvchi-talabalar, muloqotini hamda o‘quv dasturi va darslik, shuningdek, o‘qitish texnikasi vositalari yordamida bilim berish va uni olishni amalga oshiradigan o‘zaro munosabatlarni tizimga soluvchi pedagogik faoliyatidir. Bu o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi-talabalarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish; o‘qituvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish faoliyatda qo‘llanadigan uslub, ya’ni yo‘llarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim berish o‘qituvchidan izlanishni, yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lishni, mavzuning maqsadiga qarab, ta’lim metodlarini tanlay bilishni, kerakli ta’lim vositalaridan o‘z o‘rnida foydalana bilishni talab etadi.

Binobarin, ta’lim (o‘qitish)ning metod, usul va uslublari tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning har biri bilimlarning ongli

va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchi-talabalarda mustaqillik va ijodiy faoliyning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quv jarayonidagi asosiy muammolardan biri talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunishlarini, xotiralarida saqlash va qo'llash yo'llarini yegallashni yaxshilashdan iborat bo'lmoqda. Ma'lumki, inson ma'lumotlarning 80 foizini ko'rish, 15 foiziga yaqinini yeshitish va qolgan 5 foizini maza-tam bilish sezgi organlari orqali oladi. Biroq hayotda ma'lumotlarni faqat qabul qilibgina qolmay, uni yodda saqlash ham kerak.

Ta'lim sohasidagi qo'llanilayotgan ilg'or axborot texnologiyalarining asosiylaridan biri — interfaol yelektron doskalarini hisoblanadi. Bu mo'jiza doskalar zamonaviy texnologiyalar rivojlanishining yeng yuqori cho'qqilaridan hisoblanadi. Ular oddiy markerli doskalar kabi ko'rinishga yega bo'lib, ularda yozilayotgan har bir matn, grafik ko'rinish, chizma, jadval kabilar daqiqalarda tez kompyuter yekranida paydo bo'ladi. yelektron doskalarining asosiy afzallikkari quyidagilar:

- ma'lumotni tahrirlash ko'laming kengligi;
- natijalardan nusxa olish, yelektron pochta orqali jo'natish, saqlash imkoniyatlarining mavjudligi;
- matn, tovush, animatsiya, grafikalardan birgalikda foydalanish imkoniyatining kengligi;
- virtual auditoriya yaratish imkonida namoyon bo'ladi.

Pedagogika amaliyotda o'qitish metodlarining juda katta tajribasi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hakozolar hisobga olinadi.

Shunday qilib, ta'lim, ya'nì o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchi-talabalar hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan didaktik talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'l mantiqiy fikrlashning falsafiy-pedagogik-psixologik usuli mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va shaxsnинг shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu nuqtai nazardan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim;

2. Ta'lim metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur.

Shundagina o‘qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo‘yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo‘lmasligini ko‘ra oladi;

3. Ta’lim o‘qitish metodining tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi;

4. Ta’lim (o‘qitish) metodining tushunarligi: o‘qitishning yo‘li o‘quvchi-talabalar uchun qabul qilinishi va qo‘llanishi, o‘quv materialini o‘rganishning usuli esa bilimlarni o‘zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi lozim;

5. Ta’lim (o‘qitish) metodining onglilik va faollik zaruriyatni nihoyatda jiddiy talabdir;

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi;

7. Ta’lim (o‘qitish) metodikasida nazariy va amaliy hodisalarining muvofiqligi har qanday ta’lim metodidan biror maqsadga erishish ko‘zda tutiladi va shuning uchun qandaydir maqsad qo‘yishni, unga erishish bo‘yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bo‘lishini taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat ta’lim metodi maqsadga olib borishi kerak, aks holda u qo‘yilgan maqsad uchun yaroqsizligini, yo bo‘lmasa, bu holatda uning umuman noto‘g‘ri qo‘llanganini e’tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday ta’lim metodini qo‘llashdan ko‘zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to‘g‘risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo‘yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday ta’lim metodiga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o‘qitish metodi uchun yetarli emas. Metod tizimiga o‘qitish usullari ham kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuidan iborat emas. Usul o‘qituvchi yoki o‘quvchi-talabalar aqliy va amaliyot ishining alohida jarayonlari bo‘lib, ular mazkur metoddan tavsiya ‘tilgan materialni o‘zlashtirish shaklini to‘ldiradi. Masalan, o‘qituvchi o‘quv materialining mazmunini ‘slab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o‘zining bilimlarini o‘zlashtirishdagi va ko‘nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo‘qotadi.

Umuman, o‘qitish metodlarining majmuasi – atrofdagi voqeikni bilishning yo‘li, deya xulosa chiqarish mumkin. O‘quvchi-talabalar aqliy

kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsnинг xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi o'quvchi-talabalarga insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir. Ta'lim nazariyasi metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun ta'lim, ya'ni o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.<sup>1</sup>

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi.

Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. O'qitish jarayonining ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimini vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodify o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmatqiladi.

O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchi-talabalarga o'quv materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Pedagogika nazariyasida ta'lim ya'ni o'qitish metodlarini tasniflashda yagona yondashish mavjud emas. Hozirgi didaktikada ta'lim (o'qitish) metodlarini bilimlar manbai bo'yicha (S.O.Lordkipanidze, Ye.Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B.P.Yesip), bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha (I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, M.I. Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar sxemalar, ularni uch o'Ichovli va hatto, keng qamrovli farqlash xam uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilingan.

Ta'lim (o'qitish) metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular məktəb amaliyotida keng tarkalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Og‘zaki metodlar (bilimlarni so‘z bilan bayon qilish suhbat darslik ma’lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash)

2. Ko‘rgazmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriya dagi amaliy ishlar).

Bular ma’lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib ularni doim ham aniq chegaralab bo‘lmaydi.

Har bir ta’lim (o‘qitish) metodining o‘z vazifasi bor. Adabiyotlarda o‘qitish metodlarining rag‘batlanuvchi (motivlashgan), ta’limiy-tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan

O‘qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarini tanlashda ana shu metadlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasini hisobga olib, shu asosda rag‘batlanuvchi, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiyidir.

### «Blum kubigi» metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun —Ochiq savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- Ushbu metodni qo‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi.

Kubning har bir tomonida qo‘yidagi so‘zlar yoziladi:

Sanab bering, ta’rif bering (oddiy savol)

Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)

Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)

Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)

Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)

Fikr bering (tahlil qilish va baholash savol)

- O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.

- O‘qituvchi kubikni stolga tashlaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

### “KWHL” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida

qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

**Izoh. KWHL:**

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo‘ladi?*

*Learn - nimani o‘rganib oldim?*

**“KWHL” metodi**

<b>1. Nimalarni bilaman:</b>	<b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b>
<b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b>	<b>4. Nimalarni bilib oldim:</b>

**“W1H” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

<b>What?</b>	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
<b>Where?</b>	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mukin)?	
<b>What kind?</b>	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
<b>When?</b>	Qachon? (ishlatiladi)	
<b>Why?</b>	Nima uchun? (ishlatiladi)	
<b>How?</b>	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

## “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi

**S – (strength)**

- kuchli tomonlari

**W – (weakness)**

- zaif, kuchsiz tomonlari

**O – (opportunity)**

- imkoniyatlari

**T – (threat)**

- xavflar

## “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiylari va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. — Veer metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish

shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish (taribi):

 trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat  
kichik guruhlariga ajratadi

 Xening maqsadi: shartlari va taribi bilan ishtirokchilarni  
tanistirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlili  
qilinishi zarur bo'lgan qismi tushrifilgan tarqatma

 har bir guruh o'ziga bezigan muammoni afrodicha tahlili  
qilib, o'z mulohazalannu faysiya chilayotzan xema bo'yicha  
tarqa maga vozma bayon qiladi

 navbatda bosqichda barcha guruhlar o'sezardimotlarni  
o'rnikazadilar. Shundan so'nez, trener kontraidam tabirlari  
umum ashtiради, zarur yaxborotin bilan to'xtinadagi va  
meyzuya qumandadi

### Muammoli savol

1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

### "Assesment" metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy

ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### “Insert” metodi

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilarni ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilari	Matn
V	tanish ma’lumot.
?	mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.
+	bu ma’lumot men uchun yangilik.
-	bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

Assesmentlardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini

baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Test


Muammoli vaziyat

<u>Tushunchcha tahsil</u> <u>(simptom)</u>	Amally vazifa

**O‘qitish vositalari.** Hozirgi paytda ta’lim-tarbiya tizimida o‘qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga yega bo‘lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo‘la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham ta’limtarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omili sifatida turli hil ta’lim vositalaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o‘qitishning texnikaviy vositalaridir.

O‘qitishning texnik vositalari deganda ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta’minlab, uning samaradorligini oshirish, ta’minalash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o‘qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin.



### **8-rasm.O'qitishning texnik vositalari**

O'qitishning texnik vositalaridan ta'lifm-tarbiya jarayonining tashkil yetuvchi komponentalari bilan uzviy bog'liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg'ulot samarasini umuman yo'qqa chiqarish ham mumkin. Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalidan foydalanish yordamchi xarakterga yega bo'lib, ularni tanlash, ishlatish vaqt va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

Ta'lifm-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish avvalo didaktik prinsiplarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik prinsipini real obyekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi. Real obyekt yoki uning tasvirini ko'rish (idrok yetish) inson uchun uni bilishning dastlabki va yeng oddiy shakli hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ta'lifm-tarbiya ishida ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning fikrlash hususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash hususiyati ma'lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, hayotiy tajribasi kabilarga bog'liq bo'lib, ta'lifm-tarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlardan ajralib qolmasligini talab yetadi.

### **Ko'rsatmali qo'llanmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:**

- barcha talabalarga yaxshi ko'rindigan darajada katta bo'lishi;
- o'quv xonasining istalgan joyidan bemalol o'qilishi;
- muhim detallar va yozuvlarning boshqa diqqatni o'ziga tortuvchi rang bilan alohida bo'yalishi;
- tasvirlar imkon qadar obyektning asl rangiga mos bo'lishi;
- tasvirlarning yestetik did bilan rasmiy lashtirilishi;
- -matnning haddan tashqari ko'p bo'lmasligi;
- tasvirlangan obyektlarning tabiiy vaziyatda ko'rsatilishi;
- masshtabga rioya qilishi;
- arzon, qulay, uzoq vaqt o'z holatida saqlanishi va shu kabilar.

Shu o'rinda ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanish maqsad bo'lmay, balki natijaga yerishish vositasi yekanligini unutmaslik zarur. Ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg'ulotda ko'rsatmali qo'llanmalardan haddanntashqari ko'p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok yetish jarayonida tahsil oluvchilar sezgi organlarining (ko'rish, yeshitish, hidlash, ta'm bilish) ko'proq jalb yetish zarur.

O'qituvchining so'zi bilan ko'rsatmalilikning uyg'unligi katta ahamiyatga yega. Ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanishganda beriladigan izoh tahsil oluvchilar diqqat-ye'tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko'zda tutadi. Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Yeng muhimi shundaki, amaliyot o'qituvchisi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak.

Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir bo'ladigan nuqsonlarni bartaraf yeta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olish kerak, ya'ni o'z kasbiy sohasining mohir ustasi bo'lishi kerak. Amaliyot o'qituvchisi o'z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o'zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga yega bo'lishi lozim. Ko'pincha o'qituvchilar doska

tasvirlari, flipchart tasvirlari va proektor slaydlari kabi vizual vositalarni o‘zлari ishlab chiqadilar.

### **Mustahkamlash uchun savollari**

1. Metod tushunchasiga tarif bering.
2. Muammoli - izlanish metodi va o‘quv materialini tushuntirish metodini bir biridan farqini ko‘rsating?
3. O‘qitish metodlar haqida ma’lumot bering?
4. Reproduktiv va evristik qanday metodlar?
5. O‘qitish metodlari qanday turlarga bo‘lish mumkin?
6. O‘qitish metodlarinig qanday talablar mavjud?
7. O‘qitishning texnik vositalari deganda nima tushunasiz?

## **10-MAVZU. O'QITISHNING RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARI**

Yangi yondoshuvlar orasida pedotsentrik konsepsiya alohida belgilanadi. Unda asosiy e'tibor o'qish, o'rganish – bolaning faoliyatiga beriladi. Bu yondashuvning asosida J.Dyui tizimi, G.Kershenshteyner, V.Layning mehnat maktabi – XX asr boshlarida pedagogikada islohotlar davrining nazariyalari yotadi. Shuningdek, u progressiv, ya'ni faoliyat orqalio'qitishdeb ham ataladi va amerikalik pedagog J.Dyui nomi bilan bog'lanadi. Uning ishlari g'arb ta'limiga, ayniqsa amerika ta'limiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. J.Dyui o'qitishjarayonini ta'lim oluvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilishni taklif etadi. O'qitishning maqsadi ta'lim oluvchilarning umumiyligi va aqliy qobiliyatlarini, turli xil malakalarini rivojlantirish, ularni "mehnat, hayot maktabi"da o'qitishdan iborat bo'lishi lozim. Buning uchun ta'limni tayyor bilimlarni berish, yodlash va qayta takrorlash asosida emas, balki, o'quvchilarning spontan, mustaqil faoliyatida bilimlarni egallash, kashfiyotsifatida tashkil qilish lozim. Bunday yondashuv bilish faoliyatini faollashtiradi va tafakkurning, muammolarni yechish malakasining, qobiliyatlarning rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin bunday texnologiyaning barcha predmetlarga tarqalishi, absolyutlashtirilishi norozilikni keltirib chiqaradi: ta'lim oluvchidagi spontan faoliyatning yuqori baholanishi vabilim berishda ularning qiziqishlariga tayanish tizimlilikning yo'qolishiga, o'quvmaterialini tasodifiy tanlanishiga, vaqtning ko'p sarflanishiga, o'qitishdarajasining pasayishiga olib keladi, o'quv materiali bilan chuqr ishlanilmaydi.

**Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining didaktik tizimi** shundan kelib chiqadiki, ikki tomon – o'qitishva o'qish – ta'lim jarayonida yaxlitlikni tashkil qiladi va didaktikaning predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini dasturlashtirilgan, muammoli, rivojlantiruvchi o'qitish (P.Galperin, L.Zankov, V.Davidov), gumanistik(insonparvarlik) psixologiya (K.Rodgers), kognitiv psixologiya (J. Bruner), Rossiyada 80-yillarda o'qituvchi-novatorlarning pedagogik texnologiyasi, hamkorlik pedagogikasi, masofaviy ta'lim, modulli ta'lim singari yo'nalishlar tashkil qiladi.

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalariga ta’lim oluvchi shaxsining qiziqish va ehtiyojlarini, individual sifatlarini, ayrim sohalarda kuchli namoyon bo‘ladigan bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi. Bunda har bir ta’lim oluvchining imkoniyatlarini hisobga oлган holda o‘qitish jarayoni, o‘zgacha yondoshuvli ta’lim orqalibir sifat bosqichidan ikkinchisiga o‘tishini ta’minlovchi jarayon tushuniladi.

Ushbu zamonaviy yondashuvlarda o‘qitish maqsadi nafaqat bilimlarni shakllantirishdan iborat, balki ta’lim oluvchilarini umumiy rivojlantirish, ularning intellektual, mehnat, badiiy malakalarini rivojlantirish, bilish va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. O‘qituvchi ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini boshqarar ekan, bir vaqtning o‘zida ularning mustaqil ishi, faolligi va ijodiy izlanishini ham rag‘batlantiradi.

Pedagogik hamkorlik – bu o‘qituvchiva ta’lim oluvchining o‘zaro tushunishi, bir-birining ma’naviy dunyosiga kirishi, bu faoliyatning kechishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilishi asosida o‘qituvchiva ta’lim oluvchining birgalikdagi rivojlantiruvchi faoliyatini tashkil qilish g‘oyasidir.

Hamkorlik darslari – bu ta’lim oluvchilar tafakkurini “eshitish – eslab qolish – aytib berish” sxemasidan “bilish (o‘qituvchiva guruhdoshlari bilan birgalikda izlanish orqali) – tushunish – aytib berish – eslab qolish” sxemasigacha uzoq davom etadigan qayta qurish jarayonidir.

XX asrda turli xil mamlakat olimlari yaxlit zamonaviy didaktik tizimni yaratishga harakat qildilar. Fanda hozirgi kunga qadar yagona didaktik tizim yo‘q, faqat ayrim umumiylilikka ega bo‘lgan bir qator nazariya va texnologiyalar mavjud.

Ta’limda IT-texnologiyalari. Ilgari ta’lim oluvchilar biror savolga javob topmoqchi bo‘lsa, qo‘sishmcha ma’lumotga ehtiyoj sezsa, faqatgina o‘qituvchiva bosma kitoblar yordamga kelishgan. Bugungi kunda internet orqali bir zumda turli xil ko‘rinishdagi ta’limiy yordamga murojaatqilish imkonи mavjud. O‘qitishning innovatsion **shakillari** sifatida trening, davra suhbatи, interaktiv ma’ruza, interaktiv ekskursiya, videokonferensiya, VR-darslar, virtual ma’ruza, virtual ekskursiya, veb-mashg‘ulotlar, chat-botlar, vebinlar, blended learning

(aralash o‘qitish), sun’iy intellektli –raqamli o‘qituvchilar, ommaviy ochiq onlayn kurslar va boshqalarni misol qilish mumkin. O‘quv jarayonidagi innovatsion o‘qitish metodlari sifatida interaktiv usullar, grafik organayzerlar, muammoli usullar, debatlar, o‘yinli texnologiyalar kabilarni qo‘llashni aytish mumkin. Ta’limning innovatsion vositalariga esa interfaol doska, Smart- partalar, prezентatsiya, multimedya, elektron darslik, virtual atlaslar, virtual trenajyorlar, virtual universitet, virtual kampus, texnologik platformalar, ta’lim portali, simulyatorlar, virtual kutubxonalar, 3D-, 4D-, 5D texnologiyali dasturlar kabilarni kiritish mumkin.

VR – (ingl. “virtual reality” - virtual yoki sun’iy reallik), virtual reallik bugungi kunda ma’lum bir kasblarga o‘rgatishda, ya’ni real sharoitda ishlash yuqori xavf tug‘diradigan yoki katta mablag‘ bilan bog‘liq bo‘lgan kasblarga (masalan xirurg, samolyot uchuvchisi, poyezd mashinisti, haydovchi, qutqaruvchi, harbiy va b.) o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. Jahonga mashhur IT kompaniyalari tomonidan talabalarni o‘qitishda faol qo‘llash mumkin bo‘lgan juda ko‘plab innovatsion texnologiyalar taklif etilmoqda.

Aldebaran Robotics tomonidan ishlab chiqilgan Nao roboti 2010 yildan beri test rejimida ta’lim oluvchilar bilan mashg‘ulot olib boradi. Ushbu androidning gaplashish va harakatlanishdan tashqari asosiy xususiyati emotsiyalarni tanish va ko‘rsatishdir. Bu unga insonlar bilan muloqotda katta yordam beradi hamda robotning odamlar tomonidan jiddiy qabul qilinishini yengillashtiradi.

MIT Media Lab tomonidan yaratilgan Tega roboti ta’lim oluvchilar bilan umumiyl til topisha oladi. Ko‘rinishidan dasturlashtirilgan planshetli yoqimtoy momiq o‘yinchoq bo‘lib, u nafaqat o‘qituvchi, balki robot- do‘sdir. Tega o‘quvchilarga o‘qish bo‘yicha yordam beradi, kun tartibiga rioya qilishini nazorat qiladi va darslar o‘rtasidagi tanaffuslarda ularning vaqtini chog‘ o‘tkazib ko‘nglini ko‘tara oladi. O‘quvchi agar uyga vazifalarni juda uzoq vaqt bajarsa, robot hattoki u bilan birga zerikishini ham namoyon qilishga qodir. O‘quvchilar uchun odatiy o‘qituvchidan tashqari robot-o‘qituvchilarni kuzatish va ulardan o‘rganish ham qiziqarli tuyuladi.

2018 yili rossiyalik va amerikalik ishlab chiqaruvchilarining hamkorlikdagi ishlari natijasida Android-telefonlarda Parla X dasturi

paydo bo‘ldi. Bu standart savol-javobli chat-bot emas, balki to‘laqonli sun’iy intellektli o‘qituvchidir. Hozircha Parla X texnologiyasi faqat ingliz tilini o‘rgatadi, ishlab chiquvchilar rejasida ta’lim safini yanada kengaytirish hamda ta’limni hammabop qilish xohishi borligi ta’kidlanmoqda. Ushbu dasturda foydalanuvchi tilni bilish darajasini tanlaydi va shundan so‘ng topshiriqlarni bajaradi. Sun’iy intellekt foydalanuvchining topshiriqlarni qanday bajarayotganini tahlil qilib uning uchun nima murakkab yoki nima oson ekanligini, qaysi bilimlarni muvaffaqiyatl o‘zlashtirdi, qaysi bilimlarni yana ko‘proq o‘zlashtirishi kerakligini bilib oladi. U har bir foydalanuvchi uchun individual yondoshuvni topa oladi hamda mos va kerakli topshiriqlarni tanlay oladi. Parla X smartfondagi haqiqiy cho‘ntak repetitori bo‘lib ommalashmoqda. Repetitor uchun katta mablag‘ sarflanadi, bunday ilovalar esa bepul ta’lim olish imkoniyatini beradi. Ta’lim darajasi juda past va qashshoq davlatlarda bu kabi texnologiyalar ko‘pgina ta’limiy muammolarni hal qilish uchun yechim bo‘lishi mumkin. Kelajakda bunday texnologiyalardan har kim istagancha foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2016 yilda Jorjiya universiteti professori Ashok Goel ma’ruzalardan so‘ng talabalarda yuzlab savollar tug‘ilishini, ularga individual yondoshish zarurligini inobatga olgan holda, mashg‘ulotlar uchun smartfon cho‘ntak yordamchisini yaratdi. U talabalar agar uy vazifalarini bajarishda individual yordam olishsa, ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va sifati yanada ortadi, deb hisoblaydi. Goel eng yaxshi talabalaridan 8 nafarini taklif etib, bиргаликда chat-bot yaratdi va unga Jill Uotson deb nom berdi, u talabalarga topshiriqlarni yechishda telefon orqali savol-javob tarzida yordam bera boshladi. Goelbot – elektron assistentga universitet forumlaridan olingan 40 mingdan ortiq xabarlarni yukladi, bu Jillning nutqi jonli bo‘lishi va javoblarning talabalar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minladi. Talabalarning eng axmoqona savollariga ham Jill nazariy javoblarga asoslangan holda javob berar, uy vazifalarini yechishda amaliy maslahatlar berardi. Besh oy davomida olib borilgan tadqiqot talabalarning auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ham muvaffaqiyatli qatnashishiga olib keldi. Talabalardan hyech kim Jill Uotsonning chat-bot ekanligini bilmagan, hattoki talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomada u eng yaxshi

o‘qituvchisifatida eng ko‘p ovoz to‘plagan. Hozirgi kunda ushbu raqamli o‘quv assistenti butun dunyo bo‘yicha turli kampuslarda talabalarga o‘quv jarayonida yordam bermoqda. Chat-botlar imkoniyatlari kompaniyalarining ishlab chiqaruvchilarini ilhomlantirdi. 2016 yil Duolingo servisi xorijiy tillarni o‘rganish uchun ilovani ishga tushirdi. Bunda foydalanuvchilarga messenger interfeysi taklif etiladi va ta‘lim savol-javob shaklida olib boriladi. Shu kabi AndyRobot chat-boti ham foydalanuvchilar bilan davomli suhbatlashishi, test va o‘yinlarni taklif etishi mumkin. Talabalarga o‘zining lug‘at boyligini oshirish, grammatik konstruksiyalarining to‘g‘riligini tekshirish imkoniyati taqdim etiladi. Edwin, Teflbot kabi chat-botlar ham shular qatorida keng qo‘llanilmoqda.

Authorbot servisi mualliflarga o‘z ijod mahsullari, ishlarini internet orqali ilgari surishga va kengaytirishga yordam beradi. Authorbot kitobxonlar uchun kitob haqida taassurotlarni, qahramonlar va syujetlar haqida qo‘srimcha ma’lumotlarni bo‘lishishga, suhbat olib borishga imkon beradi. Bot yaqin oradagi kutubxonalarni topishga, uning ish vaqtini, fondini, eng mashhur va ommabop top-kitoblarni yoki turli davriarda chop etilgan istalgan kitoblarni topishga yordam beradi. Bostonlik startaperlar abituriyentlar uchun yo‘nalish tanlash, universitetga kirish uchun imtihonlarga tayyorlanish, talabalik hayoti haqida ma’lumot beruvchi bot ishlab chiqilgan. Jorjiya universitetida AdmitHub servisi dastlab birinchi kurs talabalarini universitet hayoti bilan tanishtirish uchun mo‘ljallangan edi. Hozir ushbu botning yordamidan turli davlatlarning abituriyent va talabalari foydalanishi mumkin. Prepathon robotlari bir nechta: biri motivatsiya uchun javob beradi va talabalarga ruhlantiruvchi iboralar, eslatmalarini yuboradi, boshqasi o‘quv jarayoniga eng samarali yondoshuvlarni topishga yordam beradi, yana biri imtihonlarga tayyorlaydi.

2017 yili Microsoft kompaniyasi xitoy tilini o‘rganish uchun ilova chiqardi. Asosiy vazifa to‘laqonli raqamli o‘qituvchini yaratish edi. Ishlab chiqilgan sun’iy intellekt o‘quvchilarning javoblaridan kelib chiqqan holda topshiriqlarni tanlab beradi. Microsoft ilovasi foydalanuvchining o‘zlashtirishiga moslashib, individual o‘qitish dasturini yaratadi.

Kelajakda raqamli yoki virtual o‘qituvchilar individual ta’limiy yondoshuvni yaratgan holda keng ommalashib boradi, ular hattoki ta’lim oluvchini topshiriqni to‘g‘ri bajargani uchun maqtab rag‘batlantirishi yoki dangasaligi uchun tanbeh berishi ham mumkin. TMT Investments asoschisi German Kaplun fikricha, 10-15 yillar ichida rivojlangan davlatlarda o‘quvchilar o‘qituvchi-robotlar tufayli maktabga muntazam bormasdan, uydagi smartfon yoki planshet orqali ta’lim olishlari mumkinligiga kattalar ko‘nikib borishi lozim. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ham ta’limni texnologiyalar bilan bog‘lab o‘quvchilarni qiziqtirish mumkin. Ilg‘or o‘qituvchilar Telegram, Instagram, WhatsApp va b. orqali ta’lim oluvchilarga topshiriqlar berib, ularni yo‘naltirib, rag‘batlantirib, rivojlanrib borishmoqda.

AQShda talabalar va o‘quvchilarga endilikda savollarga tezda javob topishda Vikipediya emas, balki Google Home, Amazon Echo (Alexa), Siri kabi texnologiyalar eng yaxshi yordamchi bo‘lmoqda.

Wikipedia voicebot – Vikipediya bo‘yicha ovozli qidiruv funksiyasiga ega bot, istalgan kerakli ma’lumotni kundalik ishlardan chalg‘imagan holda so‘rab topish imkoniyatini beradi.

Woebot – Stenford universiteti mutaxassislari tomonidan (Coursera asoschisi Endryu N. ham qo‘schildi) ishlab chiqilayotgan bot bo‘lib, dastur Facebookda ishlaydi, chat orqali har qanday his- tuyg‘u va emotisional holatlar bilan o‘rtoqlashish mumkin.

### **Mustahkamlash uchun savollari**

1. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalariga ta’rif bering
2. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalariga misollar keltiring
3. VR-darslar, virtual ma’ruza, virtual ekskursiya, veb-mashg‘ulotlar haqida so‘zlab bering.
4. Pedagogik hamkorlik deganda nimani tushunasiz?
5. Hamkorlik darslari an’anaviy darslardan farqi qanday?

## **11-MAVZU: O'QITISH JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUV**

Mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida ijtimoiy-foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash-ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi iborasini esga olish o'rinnlidir: «-Kadrlar tayyorlash uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u har birimizdan astoydil, betnim va izchil mehnatni talab etadi.» Darhaqiqat, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlar, va ayniqsa, ta'lim tizimi mutasaddilarining zimmasiga bu masala yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunda ta'lim tizimini takomillashtirish va uning mazmunini chuqurlashtirish hamda ko'pgina tashkiliy-tarbiyaviy ishlar nazarda tutiladi. Ikkinchisi tomondan esa, bevosita ushbu masalani amalga oshirishga burchli bo'lgan pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni zamon talablari bilan hamnafas tarzda kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash davlat va jamiyat zimmasidagi ulkan ijtimoiy vazifadir. Kadrlar tayyorlash bilan bog'liq joriy va istiqboldagi vazifalar quyidagilardan iborat:

**Birinchidan**, erkin tafakkur qila oladigan shaxsni, mustaqillik va demokratiya g'oyalariga sodiq bo'lgan ongli fuqaroni, o'z Vatanining jonkuyari sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli ishtirok etishga, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatishga, mamlakat taqdiri uchun zimmasiga mas'uliyat ola bilishga qodir shaxsni kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

**Ikkinchidan**, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, tub ma'nodagi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish ishiga demokratiya asoslarini joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, tafakkur va bahslashish madaniyatini rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini boyitish, binobarin, yangicha ijtimoiy qadriyatlar va munosabatlarni shakllantirishdir. Boshqacha aytganda, yosh avlodda yangicha ong shakllanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilmog'i kerak;

**Uchinchidan**, yosh avlod milliy istiqlol g'oyasini anglab olishi, bu g'oyaning har bir fuqaro uchun, Vatanning obod va farovon bo'lishi uchun hayotiy zarurat ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aniq

maqsadga yo'naltirilgan chora - tadbirlar tizimini ro'yobga chiqarish lozim.

Tabiiyki, bu uzoq davom etadigan, barcha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlarining, eng avvalo, uzuksiz ta'lim tizimi muassasalarining faoliyati va pedagogik sohadagi ishlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadigan murakkab jarayondir.

Yoshlarni barkamol qilib etishtirish jarayonida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga e'tiborni kuchaytirish va ta'lim sohasida shaxsning tarbiyasi va har tomonlama rivojlanishiga ustunlik berishni ta'minlashdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining uch tarkibiy birligi – tarbiya, ta'lim, shaxsni rivojlantirish to'liq darajada amalga oshirilishiga erishish lozim. Ta'lim - tarbiya ishida rasmiyatçilik va beparvolik kabi illatlardan voz kechish kerak. Bu maqsadda mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan yangi uslub va vositalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur.

Bugungi kunda pedagogikada o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rolli o'yinlar, mavzuiy o'qitish va h.k. Ammo ularni oliv ta'lim tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishda ijodiy yondashuv va ko'p vaqt ni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Chunki har bir o'tiladigan mashg'ulot ishlanmasi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir. Uning ustiga ayrim pedagoglar konservativ fikrlash doirasida turib o'qitishning noan'anaviy usul va metodlariga ko'pincha bepisand munosabatda bo'ladilar.

An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadirlar. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o'z echimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihatni, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchi-talabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini

ta'qiqlamasdan, balki ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va o'quv-biluv faoliyatiga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish o'miga pedagogik jarayonni samarali tashkil etish orqali o'quvchi-talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lган qiziqishni orttirish, shaxsning ehtiyoji, istagi, moyilligi va imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yo'llariga burish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul va metodlar majmuasi anglashiladi.

Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashning harakatlari, operasiyalari, usullari majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi(ilovaga qaralsin).

Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta'limning umumiyl maqsadlari(o'qituvchi va talabaning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarni nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi.

Loyihalashtirish faoliyati o'quvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishni tashkillashtirish bo'lib, o'quvchi-talabalar rejalashtirish jarayoni va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishda bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha (proekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarning hamkorlikda ta'lim olishlari,

ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni taqozo qiladi.

Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo‘llaniladi. Og‘zaki - ko‘rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funktsional, kompleks, texnologik, muammoli-unsurli, faoliyatli yondashuvlar.

**Og‘zaki-ko‘rgazmali yondashuv.** U an’anaviy bo‘lib, asosan o‘qituvchining axborot berishi, o‘quvchi-talabalarning bilimni qabul qilishi, to‘plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. «Bilim» tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma’nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo‘llay olish ko‘nikmalari (imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab) orqali tekshirib ko‘riladi. Bu tizimdagи bilimlar – asosan esda saqlab qolish natijasi, ko‘pincha rasmiy ma’lumotdir, u ko‘pincha yuzaki bo‘lishi ham mumkin. Ular xotira tubida saqlangan bo‘ladi yoki boshqa so‘z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savol qo‘yilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi. Talaba savol berilganda uni eslashi, ba’zan esa umuman eslay olmasligi ham mumkin.

Og‘zaki-ko‘rgazmali yondashuv respublikamiz o‘quv yurtlarida keng tarqalgan. Ma’lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o‘qituvchi-talabalarga», ularning ehtiyoji va faollik darajasi bog‘liq bo‘Imagan holda, bevosita berishi mumkin bo‘lgan imkoniyatdan kelib chiqadi. Demak, shunga ko‘ra o‘qituvchining asosiy vazifasi – zaruriy axborotni ma’lum qilishi va uni xotirada mustahkamlash ustida ishlashdir.

V.Guzeevning ta’kidlashicha, an’anaviy metodikaga xos bo‘lgan xususiyat dastur talablarida ifodalanuvchi ta’lim maqsadlarini «o‘zlashtirish» tushunchasi qobig‘iga o‘ralgan qandaydir noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Bunda ta’lim jarayonida ko‘proq muvaffaqiyatga erishgan o‘qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta’lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun ilg‘or o‘qituvchi (pedagog)larning pedagogik faoliyati

namunasi qidiriladi, ammo ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan bir qator olimlar va amaliyotchilar alohida metodikalarning davri o'tib ketganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini jiddiy ta'kidlashmoqda.

Respublikada amalg'a oshirilayotgan ta'lim sohasidagi bir qator ijobjiy ishlar, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish darajasini yuqori tarzda ta'minlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida boshqa yondashuvlarni ham qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqiy-ijodiy yondashuv.** Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni echish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o'zlashtirish, harakatning yangi zamonaviy usullarini topish va tashabbus ko'rsatishni nazarda tutadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuvda pedagog talabaning o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, shaxsiy tashabbusini qo'llab - quvvatlab, u bilan hamkorlik qiladi hamda uning fikr va qiziqishlarini doimo nazarda tutadi. Pedagogning talaba shaxsiga bo'lgan munosabati, ularga muhabbati va jon kuydirishi, yuksak ishonchi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, tahsil olish jarayonida talabalarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha, ijobjiy rag'batlantirishning ustunligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, talabalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning eng samarali yo'larini qo'llashda namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bo'yicha pedagogik texnologiya variantlari ishlab chiqilgan. Tadqiqiy - ijodiy yondashuvning ta'lim tizimida o'z o'rni bor va u o'z joyida qo'llanishi lozim.

**Izlanuvchan yondashuv.** Bu yondashuvdag'i maqsad talabalarda muammoni hal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish qibiliyatlarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir.

Izlanuvchan ta’lim andozasida ta’lim mazmuni tabiat va jamiyat bilan uzviy o‘zaro ta’sirdagi shaxsni tadqiqotchilik yo‘liga boshlash, uning jadal ijodiy faoliyatini ta’minalashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga pedagog ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatini boshqarishda demokratik, rag‘batlantiruvchi yo‘l tutadi, ularning shaxsiy tugallanmagan tajribani mustaqil o‘zlashtirish, xatti-harakati, harakatning yangi yo‘llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy ma’no kasb etishini rivojlantirish yo‘lini tutadi. Izlanuvchan ta’lim andozasining ta’lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan o‘zaro ta’siri shaxsni tadqiqotchilik yo‘liga boshlashi uning jadal ijodiy faoliyati xarakteri bilan bog‘liq.

Pedagog ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatini boshqarishda ijodiy yo‘l tutadi, talabalarning o‘quv faoliyatining operativ-texnik jihatlarini o‘zlashtirishga qadar uning ahamiyati va rag‘batlarini birinchi o‘ringa olib chiqadi. Bugungi kunga qadar o‘qitishda izlanuvchan yondashuvni o‘z ichiga oluvchi pedagogik texnologiya ko‘rinishlari ishlab chiqilgan.

**Tizimli yondashuv** – ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo‘nalishi sifatida universal tavsifga ega, u pedagogikada keng qo‘llanadi. «Tizimli yondashuv» tushunchasi ko‘pincha «tizimli metod», «tizimli tahlil usuli» tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda anglanadi. Chunki tizimli tahlil usullari ham obyektni yaxlit tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv tuzilish vazifasiga ko‘ra bajariladigan tahlilga juda yaqin. Tizimli tahlilning obyekti yaxlit narsa yoki hodisa hisoblanadi, u obyektning turli qismlarini, qismlarning o‘zaro uzviyligini, tizimning chegaralarini va tizimning atrof-muhit bilan bog‘liqligi, aloqadorligini nazarda tutadi. Bu tizimda bir qancha qoida va printsiplar majmuidan foydalaniлади, ular tadqiqotchilik va amaliy faoliyatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

**Texnologik yondashuv.** Texnologiya - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va metodlar majmui bo‘lib, shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta’riflanadi. Texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki

loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Ta'limga texnologik yondashuv o'quv jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar va amallarga ajratishni va bo'lishni; ta'limdan ko'zlangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirishni; loyihalashtirilgan ish va amallarning barchasini bir xil tarzda bajarishni nazarda tutadi.

Qayta takrorlanish xususiyati tufayli ushbu tizim modul shakliga ega bo'lib, mazmunlar bilan to'ldirilgan va umumiy tarkibga bog'langan birliklar, ya'ni ta'larning umumiy maqsadi va mazmuni, o'quv maqsadi, o'qitish va baholash jamlamalaridan tashkil topadi. Amalda bu pedagogning qayta-qayta takrorlanuvchan harakatining algoritmi hisoblanadi. Ushbu algoritmning yangi va yangi bo'limlarda qo'llanishi o'quv jarayoni ko'lamini qamrab oladi.

Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalahtirish bosqichida, etakchi pedagoglardan pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va tamoyillari asosida uslubiy ashyolarni ishlab chiqish paytlarida yuqoriqoq malaka talab etiladi. Loyiha tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkilotchi va maslahatchi vazifalarini bajaradi.

Bu yondashuv asosan, reproduktiv ta'limga xosdir. Reproduktiv ta'lim tipik vaziyatlarda biror ish-harakatni oldin bilib olingen qoidalar asosida bajarishdir. Reproduktiv daraja uchun pedagogik texnologiya usulida ta'lim – takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon sifatida tashkil etiladi, undan kutiladigan natija ham mufassal tasvirlanib, aniq qayd etiladi. O'quv materiali aniq ifodalangan o'quv maqsadiga mos qayta tuzilib, ishlab chiqiladi, ba'zi bo'laklari qismlarga ajratilib, har bir bo'lakni o'rGANISH mustaqil nazorat qilinib, xato va kamchiliklari to'g'rilanib boriladi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihat – o'quv jarayonining so'nggi natijalari bo'lgan o'quv maqsadiga erishishga yo'naltirilganligini ham kuzatish mumkin. Texnologik yondashuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ta’lim jarayonining ilg‘or texnologiyalarini o‘rganish va ularning o‘quv tarbiya jarayoniga joriy etilishini taqozo qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagoglardan ta’lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egalashni va hududimizning milliy, ma’naviy-madaniy xususiyatlarini va an’analarini hisobga olgan holda pedagogik amaliyotda qo‘llash va ularni rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo‘lgan munosabat o‘quv jarayonini samarali va ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi.

**Ta’limni boshqarishga tizimli yondashuv** - bu boshqaruvchi, ya’ni o‘qituvchining mavjud imkoniyatlari asosida tahsil oluvchilarga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘yilgan maqsadga mos holda shakllantrish jarayonidir. Ta’limda boshqarish jarayoni turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi paytda ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishga turli texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta’limning harakatchan modelini tuzish orqali boshqarish o‘zining samaradorligini ko‘rsatmoqda. Mo‘ljallangan texnologiya tizimli yondashuvga asoslangan bo‘lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: o‘rganilayotgan fan bo‘yicha ma’lumotlarni tayyorlash; tayyorlangan ma’lumotlarni o‘qitish uslubi va maqsadini e’tiborga olgan holda ma’lum ketma-ketlikka keltirish; o‘quv materiali mazmunni qo‘llamoqchi bo‘lgan pedagogik usullar nuqtai nazaridan tahlil qilish; pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishining tegishli bosqichiga oid maqsadni aniqlash; pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayoni ketma-ketligini ishlab chiqish; texnologiyalardan foydalanishga oid uslubiy tavsiyalar tayyorlash; texnologiyalarni qo‘llash va erishilgan natijalarni bilim, ko‘nikma va malaka tizimlariga ajratish; olingan natijalar bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash; ko‘zlangan maqsadga erishilganlik darajasini baholash; ta’limni boshqarish jarayoni to‘g‘risida tegishli xulosalar chiqarish va boshqalar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ijodiy pedagogikaga, ijodkor o‘qituvchiga

ehtiyoj nihoyatda ortib bormoqda. Bugun ta'lim muassasalarida ijodkor o'qituvchilarning mavjud bo'lishi-davr talabidir.

Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo'nsundirilgan cheksiz masalalarni echish jarayonidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik faoliyat turlari (ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, safarbarlik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik va boshqalar) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda, pedagogik faoliyat muntazam o'zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma uzluksiz ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi pedagogdan bevosita ijodiy faoliyatni hamda ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini talab etadi. Demak, texnologiya mavjud ekan, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga singdirish shart ekan, bu jarayon qayerda kechishi mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu esa, shaksiz, pedagogik korxonada, ya'ni pedagogik ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi.

**Tarbiyalash texnologiyasi** – nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi pedagogikada yangi yo'nalish hisoblangan «ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqarolik g'ururi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat hissi va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga jiddiy ta'sir qilmoqda. Ta'kidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljalangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi.

O'qituvchi(pedagog)larning o'zida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar, ayniqsa muhimdir. O'zaro hamkorlik pedagogikasi – o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba o'rtasida hamfikrlilik, bir-biriga ishonch, o'zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarning anglab olinishi va e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Milliy o‘zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g‘oya va madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, ko‘p millatli xalqimiz an‘analaridan ayrim holda tiklab bo‘lmaydi. Yoshlarning iqtidori va bilimga chanqoqligi aynan shulardan quvvat oladi, ma’naviyatga erishish va uning rivojlanishi shular bilan chambarchas bog‘liqdir.

Milliy mafkura, psixologik va pedagogik fanlardan foydalanib, maqsadlar ketma ketligini to‘g‘ri «texnologik» tanlay bilish o‘ta muhim. Nazariya nuqtai nazaridan tarbiya uslubiyotini ta’riflash etarli. Lekin texnologik jihatdan barcha tarbiya maqsadlarining qismlarini aniqlash va ularni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini belgilash zarur bo‘ladi.

«Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi mutaxassislarining umumiyligi va kasbiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha jamlama tarbiyaviy ishlarni rejasiga»-tarbiyaviy ishlarni dasturlashga misol bo‘la oladi. Ushbu dastur Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi oliy o‘quv yurtlari olimlari va pedagoglarining mehnati mahsulidir. Uning asosi etib, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekistonning daxlsizligini mustahkamlash, uning buyuk kelajagini barpo etish, har bir talabani ko‘p qirrali, barkamol va Vatanning yuksak g‘oyalariga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash haqidagi ko‘rsatmalari olingan.

Dasturda asosiy tarbiyaviy yo‘nalishlar va maqsadlar keltirilgan. Jumladan, fuqaro tarbiyasi, kasb egallash, shaxsiy mas’uliyat, yuqori malakali bo‘lish va kasbiy mahoratni egallashga intilishni tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, talabani shaxs sifatida rivojlantirish kabilarga alohida e’tibor berilgan.

O‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijodiy ishlashni talab etadi. Pedagog o‘zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya’ni, nazariy-amaliy materiallar, o‘quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Pedagog o‘zidagi mavjud ma’lumotlar va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha mavjud metodika va ilg‘or o‘qitish uslublarini ko‘zlagan maqsadga yo‘naltirish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogda shakllangan bilim, ko‘nikma, malaka, o‘qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo‘naltira olish qobiliyatları mavjud bo‘lsa, u davlat

ta’lim standartlari asosida ta’lim oluvchiga aniq maqsadni belgilab bera olishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash rejasini ishlab chiqishga, ya’ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarini e’tiborga olgan holda ta’limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta’lim modelini yaratish-zamonaviy ta’lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab berdi. Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat; ya’ni:

- pedagogning ta’lim berish mahorati;
- pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta’lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi shaxs fazilati;
- ta’lim oluvchilarining bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda O‘zbekistonda jahon ta’lim maydoniga kirishga yo‘naltirilgan yangi ta’lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o‘quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ta’limdagi yondashuvlar tarkibi o‘zgarmoqda va boshqacha munosabatlар o‘rnatilmoqda. Ta’lim tizimida yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan kuchlar shakllanmoqda, yangi ijodiy echimlar topilmoqda va ta’lim dasturini individuallashtirishga qaratilgan sa’y - harakatlar kuchaymoqda.

Ta’lim-pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo‘lib, o‘quvchi-talaba bilan o‘qituvchi(pedagog)ning shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo‘lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o'quvchi-talabaning yodlashdan eslab qolish funktsiyasiga o'tishi, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi;
- bilimning assosiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;
- o'rtacha o'quvchi-talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- o'quvchi-talabaning tashqi motivasiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tish va h.k.

Ta'linda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o'tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllarining aprobasiysi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o'rganiladigan ta'lim tizimi doirasida aynan ta'lim jarayonini etarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo'shliqni pedagogik texnologiya pedagogning loyihalashtirilgan o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o'rinn qoldirgan holda to'ldiradi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzaklikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshiruv, ta'limni alohida o'rgatuvchi epizodlarga bo'lish, o'quv jarayonining barcha bunday qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish tsikli g'oyasiga mujassamlashtirish imkonini tug'diradi.

U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'linda umumiyl maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiyl maqsaddan aniq maqsadga o'tish;

- o‘quvchi-talabalarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o‘quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog‘lanish asosida zudlik bilan ta’lim jarayoniga tuzatish kiritish imkoniyati bo‘lishi lozim);
- natijani baholash.

O‘quv maqsadlarining to‘liq standartlashtirilishining me’yori quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- a) yuqori, ammo mutlaq emas;
- b) mutlaq.

Birinchi holatda maqsadning murakkabligi tufayli uni to‘liq kuzatuvchan xatti-harakatlar tipiga aylantirish imkonini bermaydi, tsikl to‘laligicha qayta ishlab chiqilmaydi.

Ikkinci holatda konveyerli jarayon bo‘lgan ta’limning reproduktiv tipi bilan ish yuritiladi.

O‘quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalishtirish bosqichida, etakchi pedagog olimlar, metodist o‘qituvchilar pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va printsiplari asosida uslubiy materiallarni ishlab chiqish paytlarida ulardan yuksak malaka talab etiladi. Materiallar tayyor bo‘lgach, pedagog asosan, tashkiliy va konsultativ (ijodiy qo‘srimchalar kiritish imkonini saqlagan holda) vazifalarni bajaradi.

O‘quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihatni – o‘quv jarayonining so‘nggi natijalariga yo‘naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko‘rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- identifikasiyalangan o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o‘quv maqsadlari taksonomiyasi;
- o‘quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o‘quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo‘li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab oladi.

O'qituvchi(pedagog) o'z oldiga o'quvchi - talabalar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olsin, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotga qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi.

Biroq o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadi? O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi?

Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, o'qituvchi(pedagog) o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlarining maqsadga muvofiqligiga, yoki aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo'yicha, o'qituvchi(pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning tipik usullari quyidagicha:

1. O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
2. Maqsadni o'qituvchi(pedagog) faoliyati orqali aniqlash.

3. O'quvchi-talabaning intellektual, emosional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatları orqali o'quv maqsadini qo'yish.

O'qitishning maqsadi va ta'lim mazmunini o'qituvchi(pedagog) yoki o'quvchi - talabaning faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida o'quvchi - talabalar faoliyatining faqat tashqi tomonidan namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bu maqsadga erishishning juda sodda va samarasiz yo'lidir.

Rivojlangan davlatlarda o'quvchi-talaba va o'qituvchi(pedagog)lar uchun maqsadlarni alohida-alohida belgilash odat tusiga kirgan. Bu mantiqan to'g'ri, chunki o'qitish jarayoni pedagog va o'quvchi-talabaning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi.

Bunda maqsadlar o'qituvchi(pedagog)ning faoliyatidan kelib chiqqan holda qo'yiladi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, ayтиб berish va hokazo), o'quvchi - talabaning xarakterlarida ifodalanadigan natijalar esa ta'limning vazifalari deyiladi. Bunday ma'noda ta'lim vazifalari o'quvchi-talaba mashg'ulotning oxirida bilishi yoki bajara olishi mumkin bo'lgan narsani anglatadi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida vazifalarni o'chish, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir

maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya’ni ta’lim maqsadi shunday qo‘yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo‘lsin.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. O‘qitishda texnologik yondashuvning mohiyati va uning rivojlanishi.
2. O‘qitish texnologiyasi sohasining tayanch kategoriya va tushunchalari.
3. Pedagogik tizimda qitish texnologiyasining rni va ahamiyati.
4. M. V. Klarin o‘qituvchi(pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning tipik usullari qaysilar?
5. Pedagogik texnologiya tarkibiga nimalar kiradi?
6. Ta’limni boshqarishga tizimli qanday yondashuv?

## 12-MAVZU. MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

O'qitishga muammoli yondashuv Suqrot zamonidayoq boshlangan. Bu yondashuv amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog D.Dyui ishlarida o'zining nazariy asosini topdi. D.Dyui bolalarning extiyojlarini o'qitishning boshlangich asoslari sifatida qaragan. U extiyojlarni instinktlar (ijtimoiy, konstrukturlik, badiiy, tadqiqiy) kabi ta'riflagan. O'rganuvchi materialni elementar eshitish va xis qilish organlari asosida qabul qilish bilan emas, balki bilimlarga bo'lgan extiyojni ixtiyoriy tadqiqiy faoliyat asosida qondirish natijasida o'zlashtiradi. O'qituvchining vazifasi talabalarning mustaqil tadqiqiy ishlarini taxkil va tashkil qilishdan iborat bo'ladi. Bu ularning birdan paydo bo'lgan qiziqish va extiyojlarini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

D.Dyui o'qitish jarayonini o'rganuvchining quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan faoliyati sifatida ta'riflagan:

- o'rganuvchida qiyinchilik xolatining paydo bo'lishi;
- qiyinchilikning sababini aniqlash;
- «agar ... bo'lsa, u holda ...» kabi taklif va farazlarni ilgari surish;
- farazlarni mantiqiy tekshirish;
- farazlarni amalda (tajriba yo'li bilan) tekshirish.

O'qitishning asosiy sharti o'rganuvchilarini amaliy faoliyatga, o'yinga, mehnatga jalg qilishdan iborat bo'ladi. Buning natijasida biror nimani («o'rganishni istayman», «buni bajarishni xoxlayman» va h-k.) egallashga ehtiyoj tug'iladi. Shunday qilib o'rganuvchi obyekt emas, balki o'z o'quv faoliyatining subyektiga aylanadi.

Muammoli o'qitishning psixologik jihatlari 1920-1930 yillarda ochilgan edi. Unda muammoli o'qitish asosida yotgan fikrlashning psixologik qonuniylari ochib berilgan. Bu turdag'i o'qitishning an'anaviy (tushuntirish-ko'rgazmali) o'qitishdan farqi talabalarning nazariy va amaliy muammolarni yechish jarayonida yangi bilimlarni olishga yo'naltirilgan tadqiqiy faoliyatlaridan iborat.

Muammoli o'qitish- o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish bo'yicha o'rganuvchilarning faol mustaqil faoliyatini tashkil qilishdir. Natijada kasbiy bilim,

ko'nikma, o'quv va fikriy qobiliyatlarning rivojlanishi ro'y beradi.

Muammoli o'qitishning o'ziga xosligi va ko'pqirraliligi quyidagi masalalarini samarali xal qilishda namoyon bo'ladi:

- o'qitishning ichki motivatsiyasini rag'batlantirish;
- bilishga qiziqishning ortishi;
- mustaqillikning shakllanishi;
- ijodiy kobiliyatlar, tasavvurning rivojlanishi;
- kasbiy ta'limiy muhitda o'zini anglash sharoitlarining hosil qilinishi;
- kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishi;
- o'rganilganlarning mustahkamlanishi;
- e'tiqodlarning shakllanishi;
- tadqiqiy faoliyat odatiy ko'nikmalarining egallanishi.

Biroq ta'limiy muassasalarining amaliyotida muammoli o'qitishing o'ylangan va tizimli tadbig'i kam uchraydi. Ko'pincha o'qituvchilar uning asosiy g'oyalarini formal ravishda tushunadilar va muammoli o'qitishni savol-javob shaklida talqin qiladilar. Shu bilan muammoli savolning o'ziga xosligini buzishadi va uni informatsion, yetaklovchi, qo'llab-quvvatlovchi o'qitish shakli bilan almashtirishadi. Shuning uchun muammoli o'qitishning asosiy kategoriyalarini va uni samarali qurish texnologiyasini ochib berish masalasi turadi.

Ta'lim maqsad va vazifalariga ko'ra muammoli va an'anaviy bo'lishi mumkin.

Agar ta'lim muassasasi o'z oldiga o'quvchi-talabalarning fikrlash qobiliyatları, ijodkorlik qobiliyatlarını rivojlantirishni bosh maqsad qilib olsa, unda pedagogik jamoaning muammoli ta'lim asosida faoliyat yuritish malakalarini shakllantirishi zarur. Shuningdek, o'quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, ta'lim jarayoniga va o'quv-biluv jarayoniga «muammoli o'qitish» didaktikasini joriy etib borish asosiy ish jarayoniga aylanmog'i kerak.

Muammoli ta'lim ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchi- talabalarning o'quv-biluv jarayoniga ehtiyoji qiziqishi, xohishini orttirishga sabab bo'ladi.

Agar o'qituvchi muammoli ta'limning mazmun - mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olsa, o'quv jarayonining shakli va metodlarini, texnik jihatdan jihozlanishni amalda qo'llay olsa u o'z-o'zidan

**muvaffaqiyat keltiradi.**

O‘qituvchining didaktik jihatdan yaxshi tayyorgarligi juda muhimdir. Chunki muammoli ta’limning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha o‘rganish – o‘quv jarayonini san’at darajasiga olib chiqish demakdir, u o‘z navbatida o‘quvchi-talabalarning ta’lim mazmunini to‘la o‘zlashtirib olishiga kafolatdir.

Hozirgi kunda bu sohadagi izlanishlar dunyoning turli mamlakatlarida davom ettirilmoqda, turli soha fanlari bo‘yicha muammoli o‘qitish texnologiyalarining majmuaviy ishlanmalari yaratilmoqda.

Bugungi kunda, muammoli o‘qitish deganda mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan ta’lim oluvchilarining faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida ta’lim oluvchilar kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar hamda fikrlash qobiliyatları rivojlanadi.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga taalluqli, chunki bu yerda shaxsga subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi – pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.

**Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir,** chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o‘qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to‘liq va aniq ta’rif M.I.Maxmutov tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirdari, tahlil, umumlashtirish hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatları qonuniyatlarining tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy- tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma’lumki, o‘qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatları, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan

pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda obyektiv qonuniyatlarididaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

Fanda muammoli o'qitishbilan aloqador ikkita tushuncha ishlataladi: «**muammo**» va «**muammoli vaziyat**» tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan obyektlar o'z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Demak, muammoli masalani muammoning oddiy, xususiy bir masaladan iborat holati sifatida ko'rish mumkin.

Muammoli o'qitish ijodiy faoliyatni hamda unga ehtiyojni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda ta'lim oluvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an'anaviy o'qitishdagiga nisbatan jadaloq bo'ladi. Lekin muammoli o'qitishning bu funksiyasi oshishi uchun o'quv jarayoniga muammolarning tasodifiy majmuasini kiritish yetarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammolarning asosiy turlarini qamrab olishi kerak.

### **Muammoli ta'limni muvaffaqiyatlari kechish shartlari quyidagilardan iborat:**

1. O'quv materialini muammolashtirish.
2. O'quvchi-talabaning faolligini tashkil etish.
3. O'qitishning o'quvchi-talaba hayoti, turmush tarzi, mehnati o'yin bilan aloqasi.

### **Muammoli vaziyatlarni yaratish usullari:**

1. O'qituvchi o'quvchi-talabalarni ziddiyat holatiga keltiradi va o'zlaricha yechimini topishni taklif qiladi.
2. Amaliy faoliyatdagagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi.
3. Bir savolning o'ziga har xil fikrlarni bildiradi.
4. Hodisani har xil pozitsiyadan ko'rib chiqishni taklif qiladi.
5. Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.
6. Aniq savollar qo'yadi, yechimini so'raydi.
7. Muammoli topshirqlarni qo'yib, yechimini so'raydi.

Muammoli ta'limning nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, ta'lim

muassasalari oldida turgan bosh maqsad o'quvchi-tabalarni har tomonlama barkamol avlod bo'lib rivojlanishini ta'minlashdan iborat. O'quvchi-talaba shaxsini har tomonlama barkamol rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy omil uning yukori darajada mustaqil fikrlay olishida namoyon bo'ladi.

Agar o'quv jarayoni o'quvchi-tabalarni mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

O'quvchi-tabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish mumkin.

O'quvchi-tabalarni faollashtirishda samarali metod, usullarni an'anaviy ta'limni amalga oshirishda didaktik yondashuv asosida olib borilishi deb tushuntiradilar.

O'quvchi-tabalarning aqliy fikrlashlarini tayyor mavjud bo'lgan yo'llar bilan o'stirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi-tabalalar tahlillar asosida qo'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil yangi axborotni oladi. Boshqacha aytganda, bu bilimni kengaytirish, chuqurlashtirishni ilgarigi olgan, o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zlashtirish, qo'llay bilishdan iborat.

Olgan bilimlarini yangicha qo'llashda o'qituvchi qo'llanma, darslikdan tayyor xolda bermaydi, u o'quvchi-tabalalar tomonidan mustaqil izlab topiladi. Mana shu holat izlanuvchanlik, sinchkovlik metodida ishslash ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Aqliy izlanish** – juda murakkab jarayon, u asosan muammoli vaziyat vujudga keltirilganda, aniq muammolar kuchaygandagina vujudga keladi. Agar o'qituvchi topshiriq berib, uni qanday bajarish yo'lini aytib, uni bajarishga undasa, bu muammoni yechishga kirmaydi. Bu o'quvchi-talabani tanho yechimga o'rgatadi xolos.

O'quvchi-tabalarni hakiqiy faolashtirish, ularni muammoni mustaqil fikrlash, nazariy, amaliy tomonlarini hisobga olish, tahlil orqali muammo yechimini o'zi o'ylagandek yakun toptirishga olib kelishi kerak.

Muammoli ta’lim an’anaviy ta’limdan o‘zining maqsad, prinsip, metodlari, vazifalari jihatdan keskin farq kiladi. An’anaviy ta’limning bosh maqsadi ilgaritdan fanga ma’lum bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quvchi-talabalarda fan haqida ma’lum ma’lumot bilan qurollantirish, ularda tushuncha va malakalar hosil qilishdan iborat.

**Birinchi bosqich.** O‘qituvchi muammoni to’liq yoritadi va uni yechimini topib beradi, qarshi savollar yordamida o‘quvchi-talabalarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

**Ikkinci bosqich.** O‘qituvchi muammoni qo‘yib, uning mazmunini ifodalaydi. Keyin o‘quvchi-talabalarni muammo yechimini mustaqil izohlashga yo‘naltiradi.

**Uchinchi bosqich.** O‘qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O‘quvchi-talabalar mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlab topadilar.

**To‘rtinchi bosqich.** Bunda o‘qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni va yechimini ko‘rsatmaydi. O‘quvchi-talabalar mustaqil faoliyatga yo‘naltiriladi.

Muammoli ta’limda o‘qituvchi o‘quvchi-talabalarni murakkab tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish jarayonida sistemali ravishda muammolar qo‘yib beradi, o‘quvchi-talabalarga axborot beradi, o‘quvchi-talabalar mustaqil ravishda xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va o‘qituvchi yordamida ma’lum tushunchalar, qoidalar, xulosalar chiqaradilar.


**O‘qitish** – shunday holatki, o‘qituvchi o‘z faoliyatida ta’lim mazmunini bayon qilishda qator muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Bir vaqtda shu yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida muammoni hal etishga undaydi.

**Muammo** – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya’ni jamiyat rivojlanish jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat.

**Muammoli o‘qish** – o‘quvchi-talabalar o‘quv-biluv jarayonida muammoli vaziyatni tahlil etish, sintez kilish, umumlashtirish asosida uning yechimi bo‘yicha takliflar, gipotezalar keltiradilar, qarashlarining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qiladilar.

**Muammoli vaziyat** – bu insonning intellektual qiyinchilikda paydo bo‘lgan vaziyatdan chiqish jarayoni, bunda ma’lum va noma’lum faktlarga suyanib, maqsad sari intilish, vaziyatdan chiqa olishga intilish, qiziqishlar orqali ijodkorlikka, mahsulot olishga yo‘l ochadi.


Psixologlar tomonidan muammoli vaziyatdan chiqishda sermahsul ishlay olish, chiqa olish ketma-ketligi aniqlangan. U quyidagicha ko‘rinishga ega:



Muammoli vaziyatlardan aqliy harakat orqali chiqish ketma-ketligi bir qancha bosqichlardan iborat:

- muammoning vujudga kelishi;
- qiyinchilik nimadan iboratligini tushunib olish;
- uning yechimi yo‘llarini qidirib topish, bunda yechim bo‘yicha fikr, takliflarni keltirish, isbotlash;
- taxminlarni isbotlash;
- muammo yechimining to‘g‘riligini tekshirish.

## Muammoli ta'limning bosqichlari



### Muammoli ta'limning umumfunksiyalari:

- bilimlar tizimining o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirib olinishi va aqliy-amaliy, ijodiy yechimlar faoliyati;
- mustaqil ravishda bilimga bo'lgan qiziqishlarining ortishi, o'quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatları o'sishi;
- o'quvchi-talabada dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi.

### Muammoli ta'limning o'ziga xos funksiyalari:

- ta'lim oluvchilarining ijodiy fikrlashi orqali bilimlarni o'zlashtirishi shakllanadi (ayrim mantiqiy va ijodiy fikrlash faoliyatlarining shakllanishi);
- olgan bilim, malakalarini hayotda qo'llay olishlari shakllanadi (olgan bilimlarini yangi sharoitda qo'llay olishlari) o'quv muammolariga mustaqil yo'l ochish ko'nikmalari hosil bo'ladi.
- ijodiy fikrlash tajribalari shakllanadi, ilmiy metodlar asosida izlanishga o'rganadilar, ularni amalda qo'llaydilar.

### Muammoli o'qitish metodlari:

1. Mavzuni muammoli bayon etish jarayonida pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va uning mustaqil yechimini qidiradi, topadi.

2. Pedagog mustaqil ravishda muammoni qo'yadi, ammo uning

yechimini o‘quvchi-talabalarni jalb qilgan holda hamkorlikda izlaydilar, yechimini topadilar, xulosalaydilar.

3. Pedagog o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalar oldiga muammoni qo‘yadi. O‘quvchi-talabalar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o‘zlarining ishtiroklaridagina yechimini topadilar.

4. Muammoli vaziyat o‘quvchi-talabalarning o‘zлari tomonidan vujudga keltiriladi. Uning yechimini boshqa o‘quvchi-talabalar izlanish, yangicha fikrlash orqali topadilar, o‘zaro yechim qidiradilar. O‘qituvchi yo‘llanma, ma’qullah orqali passiv ishtirok etadi.

Muammoli ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot olib borgan M.I.Mahmudov, M.N.Skatkin, A.M.Matyugikven, I.Ya.Lerner, J.Yo‘ldoshev kabi olimlarning xulosalariga ko‘ra quyidagi metodlarni keltirish mumkin:

- tushuntirish, namoyish etish;
- reproduktiv;
- muammoli bayon qilish;
- ilmiy-izlanishli metodlari mavjud.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli o‘qitish metodlari juda zarur va kerak. Chunki muammoli ta’lim o‘quvchi-talabalarni izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikrlashga o‘rgatadi. O‘quvchi-talabalarda bunday sifatlarning shakllanishi, o‘quv-biluv mas’uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish uning kundalik odatiy holatiga aylanadi. Bu esa ta’lim mazmunini, yangi dastur va davlat ta’lim standartlari (DTS)ni o‘zlashtirib olishga kafolat bo‘ladi.

### **Mustahkamlash uchun savollari**

1. Muammoli o‘qitish nima?
2. Muammoli vaziyatlarni qanday yaratish usullari mavjud?
3. Mummoli ta’lim darajalari bosqichlari.
4. Muammoli o‘qish va Muammoli vaziyatni farqlarini ko‘rsating.
5. Muammoli vaziyatlarni hamma o‘quv faoliyatlariga nisbatan qanday tiplarga bo‘lish mumkin?
6. Muammoli o‘qitishning qanday metodlarini bilasiz?

## **13-MAVZU. MUALLIFLIK TEXNOLOGIYALAR**

O‘qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o‘qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo‘ladi.

Bunday texnologiyalarga quyidagjlari keltirish mumkin:

- *pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);*

- *o‘quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);*

- *o‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi va N.P.Guzikning o‘qitish tizimini*

*rejalashtirish texnologiyasi);*

- *o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S. Graniskaya va V.D.Shadrikovlar texnologiyasi);*

- *o‘qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bespalko).*

Shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar:

Shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya asosida insonparvarlik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasi yotadi.

Bu texnologiya **shaxsga** tayanadi. U o‘zini namoyon qilishga, yangi tajribalarni idrok qilishga maqsad sari intilgan, ongli, ma’suliyatli shaxsdir.

Shaxsni ko‘zda tutish texnologiyasi har tomonlama rivojlangan shaxs-fuqaroning shakllanishi, ijodiy qobiliyatini namoyon qilish, ma’naviy-ahloqiy tarbiya bilan bevosita bog‘langan intellektual rivojlanishga qaratilgan.

***Ta’lim mazmuni shaxsnинг shakllanishida yuz beradigan ayni muhitdir.***

**Hamkorlik pedagogikasi.** Hamkorlik pedagogikasi XX asming 80-yillarida rivojlana boshladi va ta’limdagi ko‘pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet el pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bem, S.T.Shaskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi:

- *shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;*
- *dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;*
- *tarbiya konsepsiysi;*
- *atrof-muhitni ta 'lim-tariyaga moslash;*

**Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi.** Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o‘zining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika o‘qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi.

Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- *bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oljanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug‘dirmoq;*
- *bolaning qalbi va yuragini ulug ‘lamoq;*
- *boladagi bilishga bo‘lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllanirish;*
- *keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug‘dirmoq;*
- *ideal tarbiya — bu o‘z-o‘zini tarbiyalamoq.*

Sh.A. Amonashvili o‘zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- *insonparvarlik;*
- *shaxsiy yondashuv;*
- *muloqot mahorati;*
- *oila pedagogikasining qo‘srimcha imkoniyati;*
- *o‘quv faoliyati.*

Sh.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish o‘ta cheklangan. Miqdoriy baholashdan ko‘ra sifatlari baholashga urg‘u beriladi, ya’ni tavsif, natijalar paketi va o‘z-o‘zini baholash.

**O‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi.** Bu texnologiyani Viktor Fedorovich Shatalov ishlab chiqdi va hayotga joriy qildi. U o‘qitishning an‘anaviy sinf-dars usulining hali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi.


## V.F. Shatalovning maqsad-mo‘ljali:

- bilim, malaka va ko‘nikmalami shakllantirish;
- har qanday individual xususiyatlarga ega bo‘gan barcha bolalami oqitish;
- o‘qitishni tezfashtirish.

## Tamoyillar:

- ko‘p marta takrorlash, majburiy bosqichma-bosqich nazorat, qiyinchilikning yuqori darajasi, katta bloklarda o‘rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xatti-harakatning tayanchi, va uning mo‘jaldagi asosini qo‘llash;
- shaxsni ko‘zda tutish asosida yondashuv;
- insonparvarlik;
- zo‘rlab o‘qitmaslik;
- o‘quv vaziyatlarining konfliktsizligi, har bir o‘quvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo‘lga solish), o‘sish va yutuqlarga istiqbolni ochish;
- o‘qitish va tarbiyani bo‘g‘lash

## Tayanch signallar konspekti



9-rasm. Tayanch signallar

### **V.F.Shatalov metodining o‘ziga xosligi:**

- materiallar katta hajmda kiritiladi;
- materiallar bloklar bo‘yicha joylashtiriladi;
- o‘quv materiali tayanch sxema –konspekt ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tayanch konspekt ko‘rgazmali sxemani tashkil etmoqda.

V.F.Shatalov tayanch (tayanish) deganda bola harakatlarining taxminiy asosini, ichki fikrllash faoliyatining tashqi tashkil qilinish usulini tushunadi.

Tayanch signal o‘zaro uzviy bog‘lovchi ramzlar (ishora, so‘z, sxema, rasm va h.k ) bo‘lib, qandaydir ma’noli mohiyatini almashtiradi.

Tayanch konspekt – o‘quv materiallari o‘zaro bog‘langan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g‘oyalarni tizimi o‘mida qo‘llana oladigan ko‘rgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko‘rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

V.F.Shatalovning xizmatlari shundaki, u mashg‘ulotlarda yetarli darajada va barchaning faolligini ta‘minlovchi o‘quv faoliyati tizimini ishlab chiqdi. V.F.Shatalovning o‘quv jarayoni texnologik sxemasi tablitsada ko‘rsatilgan.

V.F.Shatalov metodikasi 4 bosqichdan iborat bo‘lib, ular bir qancha usul va metodik yechimlami o‘z ichiga oladi:

1. Nazariyani sinfda o‘rganish: taxtada oddiy tushuntirish (bo‘r, ko‘rgazmali quroq, O‘TV bilan); bo‘yalgan plakat — tayanch konspekt bo‘yicha qayta tushuntirish; plakat bo‘yicha qisqacha bayon qilish; o‘quvchilarining o‘z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari bo‘yicha keng mustahkamlash.

2. Uydagi mustaqil ishlar: tayanch konspekt+darslik+ota-onalar yordami. O‘quvchilarga uqtirish: konspektidan foydalangan holda o‘qituvchining tushuntirganlarini esla, berilgan materialni kitobdan o‘qi; o‘qiganlarining konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so‘zlab ber (kodlashtirish-dekodlashtirish); konspektni so‘zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspektni qayta ishlab chiqqish va namunaga qiyosla.

3. Birinchi takrorlash - konspektni o‘zlashtirishni har tomonlama keng nazorat qilish: barcha o‘quvchilar konspektni xotirasida qayta


ishlab chiqadilar, o'qituvchi ularni peshma-pesh tekshirib boradi; bir vaqtning o'zida «asta» va magnitafon orqali so'rash boradi; yozma ishdan so'ng og'zaki so'rash boshlanadi.

Tayanch konspekti og'zaki so'zlab olish - o'zlashtirishdagi tashqi nutq (og'zaki) faoliyatining eng muhim bosqichi, u turli savol-javoblar jarayonida yuz beradi.

4. Ikkinchisi takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): o'zaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari ro'yxatini nashr qilish; tayyorlash; barcha turdag'i nazoratlardan foydalanish (taxtada, astagina, yozma va b.); o'zaro so'rash va o'zaro yordam; o'yinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.).

Nazorat, baholash. V.F. Shatalov o'quvchilaming bilim, malaka va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich nazorat qilishning bosh muammosini hal qildi. Doimiy tashqi nazoratni o'zini-o'zi nazorat qilish va o'z- o'zini baholash bilan bog'lash, har birini bosqichma-bosqich nazorat qilish, kuchi yetadigan darajada talab qilish, doimo tuzatishning imkoniyati mavjudligi, natijalar oshkorligi, ikki bahoning yo'qligi va past bahodan qo'rqishning yo'qligi.

### V.F.Shatalov tizimining texnologiyasi



10-rasm

Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so'rash, magnitafonda, juftlikda o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat va uy nazorati, o'z-o'zini baholash.

O'quvchi tomonidan olingen har bir baho bilimlar uchun maxsus ochilgan ko'zguga qo'yib boriladi. U go'yo o'quvchiga xizmat qiladigan ro'yxat vazifasini bajaradi. Baholar esa ijobjiy shifrlangan tavsifnomada ahamiyatiga ega bo'ladi. Bunday tavsifnomani e'lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tavsifnomaning eng muhim tomoni shundaki, unda o'quvchi xohlagan vaqtida har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga o'zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, - deb ta'kidlaydi V.F. Shatalov, awalambor, o'quvchida ijobjiy e'tiborni qo'zg'atadigan vosita, turki bo'lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo'ladi hamda o'qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi.


Metodik usullar (pedagogik mikrounsurlar) tirkamasiga: uchirma takrorlash, releli (almashma) nazorat ishlar, desant metodi, zanjir metodi, vazifalar ichida «cho'milmoq», kitobdagagi xatolami topmoq, varaqchalarda misol-masala yechish, tanlov asosida misol-masala yechish, 4 qo'lda yechish, tajriba darslari, «miyaga» niqtash, quyidan yuqoriga qarab yechish, aytib berganni rag'batlantirish, ochiq fikrlar darsi, oltinchi ball, ijodiy konspekt, tezaytish hamda keskinlikni yumshatish usullari (musiqa, yorug'lik, tanaffus va b.) va b.

V.F. Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o'quv faoliyati tizimi maktabo'quvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o'qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o'qitishda ham keng tarqaldi.

V.F. Shatalov metodikasi oliy o'quv yurtlarida ham muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

**O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar.** G.K. Selevko pedagogik texnologiyani rejallashtiriladigan natijalar bilan birga boshqariladigan tizim deb ta'riflaydi. Texnologik jarayon tuzilmasini axborotlarning uch asosiy harakat yo'nalishi bilan tavsiya etiladi.

## O'qitishning texnologik jarayoni tuzilmasi



11-rasm

Bu tuzilmada G.K.Selevko uch shahobchani belgilaydi:

**1. Asosiy shahobcha** — mazmunning harakati bo'lib, u axborotning manba (o'qituvchi)dan qabul qiluvchi (talaba)ga uzatish (o'quvchilar e'tiboriga uzatish, o'quv-bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, o'quvchilar tomonidan bilimlami idrok etish, o'zlashtirish va mustahkamlash). Unda axborotlami qo'shimcha boshqarish manbalari — kitoblar, texnik vositalar, kompyuterlar va o'quvchi tomonidan ulami mustaqil idrok etish (o'z-o'zini boshqarish jarayoni) muhim holat hisoblanadi.

**2. Boshqarishga ta'sir o'tkazish shahobchasi.** U o'z ichiga rejorashtirishni (strategik va taktik), ta'limiyl axborotlarning asosiy psixologik harakati korreksiyasini qamrab oladi.

**3. Jarayonlar haqidagi (qayta bog'lanish, nazorat, baholash, qo'shimcha axborotlar shahobchasi) axborotlar o'qituvchidan o'quvchiga uzatilish shahobchasi.**

O'quv jarayonining samaradorligi:

- o'quv axborotlari mazmunining eng maqbul tuzilmasi;
- boshqarish samaradorligi va bilish faoliyatini tashkil etish;

- axborotlarni o'zlashtirishda individual o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish;
- axborotlarni o'zlashtirishning samarali nazoratini tashkil etishga bog'liq.


**Tayanch sxemalar izohidan foydalangan holda istiqbolli o'qitishni boshqarish S.N.Lisenkova texnologiyasi.** Bu texnologiya asosida quyidagilar yotadi:

- hamkorlik pedagogikasiga bo'lgan shaxsiy yondashuv;
- o'zlashtirish (muvaqqiyat) – o'qitish jarayonida bolalar rivojlanishining eng muhim sharti;
- sinfdagi fayz: xayriyohlik, o'zaro yordam;
- xatolaridan ogoh qilish, lekin xatolar ustida ishlash emas;
- o'quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;
- vazifaning har bir o'quvchiga qulayligi va ularga alohida-alohida bo'lib berilishi;
- asta-sekin to'liq mustaqillikka o'tish;
- bilag'on o'quvchi vositasida bilmaydigan o'quvchilarni o'qitish.

S.N.Lisenkova metodikasining xususiyati shundaki, qiyin mavzular dasturda belgilangan soatlarda emas, balki undan oldin o'rganila boshlanadi. Bu istiqbolli tayyorgarlikdir.

**Istiqbolli tayyorgarlik** o'rganilishi yaqinlashib kelayotgan qiyin mavzulami yo'l-yo'lakay o'tishning boshlanishidir.

**Umumlashtirish** bu muayyan bilimlar asosidagi mavzuni umumlashtirishdir.



**12-rasm**

## S.N.Lisenkova texnologiyasi

S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o‘zlashtirish uch bosqichda kechadi:

1. *Kelgusida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlami oldindan kichik hajmlarda berib borish;*
2. *Yangi tushunchalami aniqlashtirish, ulami umumlashtirish va qo‘llash;*
3. *Fikrlash usullari va o‘quv xatti-harakatlarining ravonligini rivojlantirish.*

### O‘qitishni tabaqalashtirish

G.K.Selevko tadqiqotlarida o‘qitishni tabaqalashtirish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o‘zida bilim darajasi bir xil bo‘lgan, u yoki bu jihatdan o‘quv jarayonida umumiyligini sifatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhi bilan o‘qituvchi ishlaydi. O‘qitishni tabaqalashtirish o‘quv jarayonidagi ta’lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta’minlaydigan umumiyligini didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

### O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi (N.P. Guzik).

«O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi» saviyasiga va darslarda mavzu bo‘yicha davriylikni rivojlantirishga ko‘ra sinf ichidagi o‘qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi. Darslar har bir mavzu bo‘yicha ketma-ket joylashgan besh tipdan iborat bo‘ladi:

1. mavzuni umumiyligini tahlili qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
2. ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o‘quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko‘zda tutgan, tuzilgan;
3. seminar mashg‘ulotlari (bunday darslar uchtadan beshtagacha bo‘lishi mumkin);
4. bilimlami umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhash) darslari (mavzular bo‘yicha sinovlar);
5. fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo‘yicha vazifalami himoya qilish);
6. dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilaming saviyalariga ko‘ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko‘nikmalami nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: «A», «V», «S» dasturlari ajralib turadi.

Dasturlar quydagi vazifalami hal qiladi:

- *muayyan darajadagi bilim, malaka va ko‘nikmalami egallahshi ta’minlaydi;*
- *ta’lim oluvchilarining ma’lum darajadagi mustaqilligini ta’minlaydi;*

«S» dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta’lim oluvchilar fan bo‘yicha o‘quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o‘zlashtiradilar. «S» dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o‘tmasdan oldin har bir o‘quvchi bajara olishi lozim.

«V» dasturi mavzuni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan o‘quv va aqliy faoliyatining umumiyligi va o‘ziga xos usullari bilan birga egallahshi ta’minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo‘shimcha ma’lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlami isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarning amal qilish va qo‘llanishini ko‘rsatib turadi.

«A» dasturi o‘quvchilarning bilimlarini to‘la anglash, ijodiy qo‘llash darajasiga ko‘taradi. Bu dasturda ijodiy qo‘llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma’lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan.

Materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalami erkin tiklash metodikasi qo‘llanadi.

Tabaqalashtirilgan vazifalami nazorat qilishda individuallikka o‘tiladi va u chuqurlashtiriladi.

### O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi

Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi. Unda:

- *pedagog faqat birligina talaba bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi;*
- *bir talaba faqat o‘qitish vositalari (kitoblar, kompyuter va b.) bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.*

**Individual o‘qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va sur’ati talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi.**

Shaxsiy yondoshish deganda:

- *u pedagogikaning tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra pedagog o‘quv — tarbiya ishlari jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo‘yicha o‘zaro munosabatda bo‘lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;*
- *o‘quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;*
- *barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik—pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.*

O‘qitishni individuallashtirish;

- *o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘lib, unda o‘qitish usullari, sur’atini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bog‘lanadi;*
- *individual yondashuvni ta‘minlovchi turli o‘quv-metodik, psixologik—pedagogik va tashkiliy-ma’muriy tadbirlardir.*

Shunday qilib, didaktika bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra o‘qitishni individuallashtirish o‘quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O‘qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:

- *Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi;*
- *A.S. Gransikayaning moslashuvchan o‘qitish texnologiyasi;*
- *V.D. Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida o‘qitish texnologiyasi.*

Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o‘qitishni individuallashtirishning muhim shakli o‘quvchilaring muktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Untning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o‘quv vazifalari, joriy o‘quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo‘llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlарini tushunadi.

A.S.Graniskaya o‘zining moslashuvchan o‘qitish tizimini sinf-dars tizimida tashkil etish va unda o‘qituvchi 60-80% vaqtini o‘quvchilar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S.Graniskaya metodikasining o‘ziga xosligi uning darsni muayyan g‘ayri odatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

- *Birinchi qism — barchani o‘qitish;*
- *Ikkinci qism — ikki parallel jarayon: oluvchilarning mustaqil ishlari va o‘qituvchining ayrim o‘quvchilar bilan individual ishlashi, ya’ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o‘qituvchi bo‘lib ishslash, moslashuvchan ko‘p qirrali vazifalar va b.*

V.D.Shadrikov gipotezasiga ko‘ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalaming tafsiloti berilsa, unga o‘rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishslash imkoniyati qoldirilsa, o‘quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi. V.D.Shadrikov metodikasi asosini har bir o‘quvchining qobiliyatiga qarab o‘qitishga imkon beradigan olti darajadagi o‘quv rejasi, dastur va metodik qo‘llanma tashkil etadi. Har bir farming murakkablik darajasiga ko‘ra kuchi yetgan variantni tanlab olib, o‘quvchilar sinfda tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo‘ldan chiqarmay biigalikda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi va «ba’ zan» uni amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki u sinfdagi o‘quvchilaming tenglashish, qobiliyati holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Murakkablikning olti darjasasi amalda barcha bolalarga e’tibor berishga, barchaning kuchi yetadigan hamda o‘quvchining qobiliyatiga, uning rivojlanishiga moslangan, o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Bu o‘qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiyl tamoyillar mavjud:

- *individuallashtirish o‘qitish jarayoni strategiyasidir;*
- *individuallashtirish—individuallikni shakllantirishning zaruriy omili;*
- *barcha o‘rganiladigan fanlarda individuallashtirilgan o‘qitishdan foydalanishning mumkinligi;*

- *individual ishlarni o'quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integrasiyalash;*

- *individual suratda, uslubda o'rghanish.*

Individuallashtirish texnologiyasining umumiyligini xususiyatlara qayidalar kiradi;

- *o'zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillami qayd qilish;*

- *fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko'nikmalami egallash asnosida individual kamchiliklami tuzata olish usullari;*

- *oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo'linmasligi hamda iroda sustligi kamchiliklarini qayd qilish va yenga olish;*

- *qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarga nisbatan o'quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, sinf va sinfdan tashqari ishlami hisobga olish);*

- *o'qitish jarayonini tanlash erkinligini berish;*

- *umumiyligini o'quv malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish;*

- *o'quvchilarning o'z-o'ziga mos baho bera olishini shakllantirish;*

- *o'qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish.*

- O'qitishni individuallashtirish texnologiyasiga quyidalar kiradi:

Batov tizimi. AQShda ishlab chiqilgan bu tizimda o'quv jarayoni ikki qismga bo'linadi:

Birinchi qism- butunicha sinf ishi.

Ikkinci qism- individual mashg'ulotlar.

Bunday mashg'ulotlar unga zaruriyat sezgan o'quvchilar bilan yoki umum tomonidan qabul qilingan me'yordlardan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan qobiliyatlari bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo'lishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Yuqori qobiliyatli kategoriya o'quvchilar bilan o'qituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va qoloq o'quvchilar bilan o'qituvchi yordamchisi shug'ullanadi.

**Tramp rejasi** - bu texnologiya AQShda juda mashhur. Bu o'qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg'ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg'ulotlar bilan qo'shib olib boriladi.

Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o'qituvchilar, professorlar leksiya o'qiydilar. 10- 15 kishidan iborat kichik guruhlari esa leksiya materiallarini muhokama qiladilar, babs yuritadilar.

Individual ishlari esa maktab kabinetlarda, laboratoriyalarda o'tkaziladi. Leksiya mashg'ulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashg'ulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga esa 40% ajratiladi. Odatdagi sinf tushunchasi yo'q, kichik guruhlari ham doimiy emas.

### **Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi**

Dasturlashtirilgan o'qitish XX asrning 50-yillari boshida paydo bo'ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog'liq. U materialarning o'zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlami qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.

N.Krauder tarmoqlangan dasturni ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarga mustaqil ishlari uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi.

G.K.Selevko dasturlashtirilgan o'qitishga quyidagi ta'rifni beradi, ya'ni dasturlashtirilgan o'qitish deganda o'qitish uskunalari (EHM, programmalashtirilgan darslik, kinotrenajer va b.) yordamida programmalashtirilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Dasturlashtirilgan o'quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo'Imagan o'quv axborotlari («kadrlar», «fayllar», «odimlar») seriyasidan iborat bo'ladi.

V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsiya etdi. U o'qituvchi va ta'lim oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarni quyidagicha belgilaydi:

- *berk-* (*o'quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati*);
- *davriy* (*nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat*);
- *tarqoq* — (*frontal*) yoki yo'nalganlik (*individuallik*);
- *qo'l* (*og'zaki*) yoki avtomatlar (*o'quv vositalari*) orqali.

V.P.Bespalko texnologiyasi turlari:

1. klassik leksiya metodida o'qitish (boshqaruv-berk, tarqoq, qo'lda);
2. audiovizual texnik vositalarda o'qitish (berk, tarqoq, avtomatlashtirilgan);
3. «Konsultant (maslahatchilar)» tizimi (berk, yo'naltirilgan, qo'lda);
4. o'quv adabiyotlari yordamida o'qitish (berk, yo'naltirilgan, avtomatlashtirilgan) — mustaqil ish;
5. «Kichik guruuhlar» tizimi (davriy, tarqoq, qo'lda) — guruuhlardagi o'qitishning tabaqalashtirilgan usuli;
6. kompyuter o'qitishlari (davriy, tarqoq, avtomatlashtirilgan);
7. «Repetitor» tizimi (davriy, yo'naltirilgan, qo'lda) — individual o'qitish;
8. «Dasturlashtirilgan o'qitish» (davriy, yo'naltirilgan, avtomatlashtirilgan), ular uchun oldindan programmalar tuzib qo'yiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitishning beshta asosiy tamoyili farqlanadi:

**1. Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichliligi (ierarxiya) tamoyili.** Bu programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasining ierarxiya tuzilmasida avvalambor pedagog turadi, va bu fanda dastlabki umumiy mo'ljal hisoblanadi; o'qitishning murakkab nostonstandart vaziyatlarida individual yordam va korreksiya o'rinni oladi.

**2. Qayta aloqa tamoyili.** U o'quv faoliyatining har bir tadbiri bo'yicha o'quv jarayonini boshqarishning davriy tashkil etish tizimini talab qiladi. Bunda avvalo to'g'ri aloqa o'rnatiladi — zaruriy harakat obrazi to'g'risidagi axborot boshqaruvchi ob'yeqtidan boshqariluvchiga uzatiladi. Qayta aloqa, V.P. Bespalko ta'kidlashicha, pedagog uchungina emas, balki ta'lif oluvchiga ham zarur; birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa o'quv materialini tushunish uchun.

**3. Ichki va tashqi qayta aloqa ham mavjud.** Ichki qayta aloqa ta'lif oluvchilarning o'z natijalarini va o'zining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi.

**4. Tashqi qayta aloqa ta'lif oluvchiga bevosita o'quv jarayonini boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki pedagog tomonidan ta'sir etishda amalga oshiriladi.**

**5. O'quv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili.** Odimlovchi o'quv tadbiri — bu texnologik usul bo'lib, unda o'quv materiali programmada axborot bo'laklari va o'quv vazifalari (bilim va malakalarni samarali o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladigan va ta'lim oluvchining bilimlami o'zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirgan)ning kengligi bo'yicha alohida, mustaqil, lekin o'zaro bog'langan va optimal bo'lgan qismlardan iboratdir.

6. To'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa uchun zarur bo'lgan axborotlar to'plami, bilish harakatlari va qoidalarining ta'limiy programma odimini hosil qiladi. Bu odim tarkibiga uch o'zaro aloqador kadr (zveno) qo'shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o'quv tadbirlari izchilligi programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi asosini tashkil etuvchi ta'limiy programmani hosil qiladi.

**7. O'qitishda individual namuna va boshqarish tamoyili davom ettiriladi.** Bu tamoyil ta'lim oluvchining har biriga shunday axborot jarayonini yo'naltiradi va tavsiya etadiki, u ta'lim oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishga imkoniyat beradi, chunki uning bilish kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo'ladi.

**8. Programmalashtirilgan o'quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili.**

Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qator ta'limiy programmalarini farqlash imkoniyatini beradi:


- *ravon programmalar;*
- *tarmoqlanuvchi programmalar;*
- *soddalashtirilgan programmalar;*
- *aralash programmalar;*
- *algoritm;*
- *blokli o'qitish;*
- *modulli o'qitish;*
- *bilimlami to'la o'zlashtirish;*

**Ravon programmalar** — bu nazorat topshiriqlari va o'quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo'lmagan bloklari ketma-ketligidir.

Ravon programmada ta'lim oluvchi to‘g‘ri javob berishi shart. Ba‘zan ehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To‘g‘ri topilgan

javobda u yangi o‘quv axborotiga ega bo‘ladi. Agar javob to‘g‘ri chiqmasa, axborotni qaytadan o‘rganishga tavsiya etiladi.

### *Ravon programmalar*



**Tarmoqlanuvchi programma.** Ta’lim oluvchi noto‘g‘ri javob berganda, unga qo‘srimcha o‘quv axboroti beriladi va u ta’lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to‘g‘ri javob qaytarish va o‘quv axborotlarining yangi bo‘laklarini olish imkoniyatini beradi.

**Soddalashtirilgan programma.** U ta’lim oluvchiga yangi o‘quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o‘zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o‘zgartirish, oddiy ma’lumotnomha, lug‘at va qo‘llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

**Aralash programma.** U ravon, tarmoqlanuvchi, soddalashtirilgan programma bo‘laklarini o‘zida qamrab oladi.

Algoritm. U aqliy va amaliy tadbirlar izchilligini belgilovchi tafsilotdir.

U o‘qitishning mustaqil vositasi hamda ta’limiy programmlaming qismi bo‘lishi ham mumkin.

**Blokli o‘qitish.** Bu moslashuvchan programma asosida o‘quvchilaming turli-tuman intellektual tadbirlar va egallagan bilimlaridan o‘quv vazifalarini yechishda foydalanish imkoniyatlarini ta’minlaydi.

Quyidagi izchil bloklar farqlanadi:

- *axborot bloki;*

- *test-axborot* (*o'zlashtirishni tekshirish*);
- *korreksion-axborot* (*noto'ri javob qaytarilganda qo'shimcha o'qitish*); • *muammoli blok*: *olingan bilimlar asosida vazifalami yechish*;
- *tekshirish va korreksiya bloki*.

**Modulli o'qitish.** U modullar bo'yicha tuzilgan o'quv programmalari asosida o'qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o'zida barcha ehtimol ko'rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so'z bilan berilishi mumkin.

O'qitish moduli o'quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo'lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- *aniq ifodaga ega bo'lgan o'quv maqsadi* (*maqsadli programma*);
- *axborotlar banki*: *o'qitish programmasi shaklidagi ayni o'quv materiali*;
- .. • *maqsadlarga erishish bo'yicha metodik qo'llanma*;
- *zaruriy malakalami shakllantirish bo'yicha amaliy mashgiulotlar*;
- *qo'yilgan modul maqsadiga qatiy muvofiq keluvchi nazorat ishi*.

**Bilimlami to'la o'zlashtirish texnologiyasi.** o'quv materiallari bir necha bo'laklarga bo'linadi: o'zlashtirilishi tegishli bo'lgan o'quv unsurlari, undan so'ng bo'limlar bo'yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so'ng o'qitish, tekshirish — joriy nazorat, korrektirovka va qayta, o'zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o'qitish.

*Xulosa. Hozirgi davr o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalami tatbiq qilish bilan xarakterlidir. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalami eksperiment qilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. Pedagogik texnologiyaga yaxlit hodisa sifatida qaraladi. Texnologiyaning interfaol sifatlari, tarkibiy qismlari, tuzilmasi, funksional tavsifi, kommunikativ xususiyatlari, tarixiyligi va uzyiyligi tadqiq qilinmoqda.*

## **Mustahkamlash uchun savollari**

1. Muallifning pedagogik o‘qitish texnologiyasi nima?
2. Sh.A.Amonashvili texnologiyasi nimalarni o‘z ichiga oladi
3. V.F. Shatalovning ta’lim texnologiyalari nimalarni o‘z ichiga oladi?
4. Mualliflik texnologiyalarining nimasi bilan ajratib ko‘rsatish mumkin?

## **14-MAVZU. MASOFAVIY VA MEDIA TA'LIM**

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o'zgarmay kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdagি xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi.

Endilikda esa ta'lism tizimida ta'lism olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lism elementlari kirib keldi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lism jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lism tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lism olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzlucksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertikal o'quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo'ldi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lism muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqoza etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga,

elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirib o‘tamiz.

**Masofaviy o‘qitish** – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

**Masofaviy o‘qish** – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

**Masofaviy ta’lim** – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet elliq ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuaidir.

**Masofaviy o‘qitish tizimi** – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Nima uchun masofaviy ta’lim kerak bo‘lib qoldi? – degan savol tug‘ilishi tabiyi. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- Ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog‘liqmasligi va boshqalar).
- Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.
- Ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

- Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o‘qitishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

Masofaviy o‘qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagi qo‘llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriysi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);

- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;

- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;

- ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo‘llanish darajasi;

- ta’limda qo‘llaniladigan an’analari;

- masofaviy o‘qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

- Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagи barcha o‘quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

- Yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potensiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish.

- Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo‘srimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

- Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish.

- Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish.

- Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipal ta’lim darajasini ta’minlash.


Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlhma

foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonida (xususan, masofaviy ta'lim jarayonini) qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo'lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir.

- Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qo'rilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferensiya jihozlari va hakazo.

- Dasturiy ta'minotga: Mavjud qurilmalarni ishlataligani dasturiy ta'minotlardan tortib shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami kiradi. So'nggi yillarda G'arbda ta'lim tizimini boshqarishda qo'llanilib kelinayotgan Internet yoki Interanet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lim turini Elearning (elektron ta'lim) atamasi bilan kirib keldi.



#### Masofaviy ta'lim modellari.

**Elektron ta'lim** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir.

Elearning o'z ichiga elektron o'quv kontenetrarni bilim oluvchiga yetkazish usulidan kelib chiqqan holda guruhlarga ajratish mumkin.

YuNESKO institutining 2000 yildagi tahliliy tadqikot materiallarida ("Distance Education for the Information Society:

Policies, Pedagogy and Professional Development") keltirilgan masofali o'qitish modellarini keltiramiz:

**Birlamchi (Yagonalik) modeli.** Ushbu model tashkiliy tuzilishiga ko'ra faqat masofali o'qitishda va «masofali» talabalar bilan ishlash maqsadida tashkil etiladi. O'kitish shunday amalga oshiriladiki, bunda ta'limning kunduzgi shakli zarur bo'lmaydi. Barcha o'qitish masofadan amalga oshiriladi. Ushbu modelda o'qitishda xududiy markazlar bo'lib, ularda talabalar o'qituvchilardan maslahatlar olishi eki yakuniy imtihon topshirishlari mumkin.

Bunday oliygoxlarda o'qituvchilarga ham talabalarga ham o'quv faoliyatining shakl va uslublarini tanlashda katta erkinlik beriladi. Vaqt va o'quv jadvallariga qat'iy chegaralar qo'yilmaydi. Bunday tamoyilda o'qitish Ochiq universitetlarda, masalan, Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University – <http://www.open.ac.uk>) da tashkil etilgan.

**Ikkilamchi (Ikkilangan) modeli.** Bunday tizimda oliygox kunduzgi talabalarni ham, qisman kunduzgi va qisman masofali dastur asosida o'qitadi. Har ikkalasida ham dars jadvallari, o'qitish dasturlari, imtihonlari va baholash mezonlari bir xil bo'ladi. Odatda ikkilangan modelni rivojlantiraetgan oliygox kunduzgi talabalar soni masofali o'qiётgan talabalar sonidan katta bo'lgan ana'naviy oliygoxlardir. Shuning uchun bir universitetning o'zida ikki shaklning birgaligida ko'proq o'zlarida katta o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan kunduzgi ta'lim olayotgan talabalar yutadilar. Bunday oliygoxlarda masofali kurslar har doim ham foyda keltirmaydi, ba'zan u qisman kunduzgi talabalarni o'qitish hisobidan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda asosiy urg'u tajribaga, pedagogika va uslubiy innovatsiyalar tadqiqotiga va boshqalarga beriladi. Masofali o'qitishning bunday modeli Avstraliyaning yangi Angliya universiteti (University of New England, Australia – <http://www.une.edu.au>) da tashkil etilgan.

**Aralash model.** Ushbu model universitet talabalarini masofali o'qitishning turli shakllarini, aniqrog'i shakllarning integratsiyasini nazarda tutadi. Masalan, kunduzgi shaklda o'qiётgan talabalar masofali o'qitish kurslarining dasturlaridagi larni yoki ushu universitetining o'qituvchisi o'qiyotgan kunduzgi kurslari bilan parallel ravishda

qisman o‘qiydilar. Shuningdek, bu modelda an’anaviy kurslar doirasida virtual seminarlar, taqdimotlar, ma’ruzalar ko‘rinishidagi mashg‘ulotlar alohida shakllarining birlashmasi bo‘lishi mumkin. Universitet axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan qanchalik yuqori jihozlangan bo‘lsa, shunchalik o‘qitish shakllari turlituman bo‘ladi. Integrallashgan bunday kurslar Yangi Zelandiyadagi Massey universitetida (Massey University, New Zealand – <http://www.massey.ac.nz>) tashkil etilgan.

**Konsorsium.** Ushbu model ikki universitetni birlashmasidan iborat. Bunda ular o‘quv materiallari bilan almashadilar yoki ba’zi vazifalarni bo‘lishib oladilar. Masalan, bir universitet masofali o‘qitish uchun o‘quv materiallar ishlab chiqaradi, boshqasi virtual o‘quv guruhlarini o‘qituvchilar bilan ta’minlaydi yoki masofali o‘qitish dasturlarini rasmiy akkreditatsiyasini o‘tkazadi. Bunday hollarda universitet butunlay éki uning alohida markazlari, fakultetlari, xatto ta’lim xizmati bozorida ishlayotgan tijorat yoki davlat tashkilotlari hamkor bo‘lishlari mumkin. Konsorsiumlar faqat qattiy markazlashgan boshqarish va yaratilayotgan ashyolarning mualliflik hamda material xuquqlarini rioya etish shartlaridagina samarali bo‘ladi. Kanadadagi Ochiq o‘quv Agentligi (Open Learning Agency, Canada – <http://www.ola.bc.ca>) konsorsiumga misol bo‘lishi mumkin.

**Franchayzing.** Franchayzing tamoyiliida tashkil etilgan masofali o‘qitish modelida hamkor universitetlar bir – birlariga o‘zlarining masofali kurslarini beradilar. Bunda ta’lim xizmati bozorida o‘zini ko‘rsatgan qandaydir universitet o‘zida ishlab chiqqan kurslarini masofali o‘qitishni endigina tashkil qilayotgan va masofali o‘qitish uchun o‘quv ashyolarini mustaqil ishlab chiqish tajribasiga ega bo‘lmagan boshqa oliygox – hamkorlariga o‘qitish huquqini berishi mumkin. Bunday modelning qiziq tomoni shundaki, talabalar o‘zlarining universitetida o‘qishga yozilib, konsorsiumga kirgan ilg‘or oliygox talabasi kabi o‘sha hajmda va o‘sha sifatda ta’lim xizmatlariga, o‘qishni bitirganlaridan keyin xatto diplomlariga ega bo‘ladilar. Bunda ilg‘or universitetning barcha atributlari o‘z kuchini saqlab qoladi. Franchayzing modeliga misol sifatida Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business

School, Great Britain) va uning Sharqiy Yevropadagi universitetlari bilan aloqasini olish mumkin.

**Validatsiya.** Masofali o‘qitishning juda keng tarqalgan modeli bo‘lib, bunda ta’lim muassasalarini masofali o‘qitish bo‘yicha xizmatlarni barcha hamkorlari teng darajada bajarishlari haqida kelishuv imzolab oladilar. Ularning biri diplom validatsiyasi, kurs va dasturlarni akreditatsiyasini qiladi, rasman tan olinadigan diplom va sertifikatlarni berishga mas’ul bo‘ladi, ilmiy darajalar beradi va xokazo. Bosh oliyox (davlat akkreditatsiyasiga ega bo‘lgan taniqli oliyox) va uning xududlardagi ko‘p sonli filiallari orasidagi munosabatlar ham shu model asosida tashkil etiladi.

**Uzoqlashtirilgan auditoriyalar.** Bu modelda zamonaviy axborot texnologiyasi vositalari faol foydalaniladi. Qandaydir oliyoxda o‘tkazilayotgan o‘quv kurslar, ma’ruzalar yoki seminarlar talabalar yig‘iladigan uzoqlashtirilgan o‘quv auditoriyalarga sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman, radioeshittirish ko‘rinishida telekommunikatsiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o‘qituvchi bir vaqt ni o‘zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi. Ushbu model bo‘yicha AQSh ning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA) da, shuningdek, Xitoyning markaziy radio va televedenie universiteti (China Central Radio and TV University) da masofali o‘qitish tashkil etilgan.

**Loyihalar.** Davlat ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida keng qamrovlik loyihami amalga oshirish uchun mo‘ljallangan masofali o‘qitish modelidan iborat. Ushbu modelda asosiy ahamiyat o‘quv materiallarini ishlab chiquvchi asosiy mutaxassis xodimlar, masofali kurslarni olib boruvchi o‘qituvchilar va olimlar yig‘iladigan ilmiy – uslubiy markazga qaratiladi. Markazda ishlab chiqiladigan masofali kurslar u yoki bu davlat (xudud) ning katta auditoriyasiga uzatiladi. Bunday o‘qitish vaqtinchali hisoblanib, loyiha da mo‘ljallangan ishlar bajarilgandan yoki tugagandan so‘ng tugatiladi. Bu modelga misol sifatida Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan qishloq xo‘jaligi, agrotexnikaning yangi uslublari, ekologiya bo‘yicha va sh.k. masofali o‘qitish kurslari olish mumkin.

## **Masofaviy ta’lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari**


Elektron ta’limni tashkillashtirishning ko‘pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

2. Virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems). Hammamizga ma’lumki, har bir universitet yoki ta’lim muassasi o‘z ta’lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o‘zining virtual axborot ta’lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta’lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagи dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta’lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta’limga yo‘naltirilgan fondlar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotlar yaratilgan.

**O‘quv muassasasida masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirishga qo‘yiladigan texnik va dasturiy talablar**



#### 14-rasm.Elektron ta'limgan tashkillashtirishda ishlataladigan dasturiy ta'minot strukturasi

Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirishda qo'yida ko'rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin:

- 1-bosqich: Tahlil
- 2-bosqich: Loyihalashtirish
- 3-bosqich: Joriy qilish
- 4-bosqich: O'quv kontentlarini yaratish
- 5-bosqich: Ishga tushirish
- 6-bosqich: Rivojlantirish

1-bosqichda o'quv muassasining masofaviy ta'lif jarayoniga bo'lgan ehtiyojlari, ta'lif jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarning soni, o'qitish usullari va shakllari, loyihami amalga oshirishdakerak bo'ladigan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihami iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi.

2-bosqichda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko'lami va texnik topshiriqlayhalashtiriladi.

3-bosqichda esa tanlangan masofaviy ta'lif jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuua tegishli serverda o'rnatiladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta'lif jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik qo'llab quvvatloshchi ishchi xodimlarni o'rgatish bo'yicha o'quv mashg'ulotlar tashkillashtiriladi.

4-bosqichda masofaviy ta'lif jarayonining asosiy elementlaridan biri bo'lmish o'quv kontentlar o'quv bo'limi va soha mutaxasislari bilan hamkorlikda yaratiladi. Yaratilgan o'quv kontentlar eskiertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqichda masofaviy ta'lif jarayoni ishga tushiriladi. Ta'lif jarayonida o'quv jarayoni doimiy nazoratda bo'lib turadi. Tizimdag'i havfsizlik choralari monitoring qilib boriladi.

6-bosqichda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo'lgan kamchiliklar to'g'rilanadi, yangi o'quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo'lgan ishlar ko'lami bajariladi.

Media ta'lif interaktiv, o'quvchi-talabalarga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lif jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Media ta'lif o'quvchi-talabalarni shaxsiy fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish uni qayta ishlash, analiz va sintez qilish, shaxsiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Sinf xonalariga va auditoriyalarga matbuot, televidenie, radio, kino, video va internetlar olib kirilmoqda. Bularning barchasi **media darslar** nomi bilan ta'lif jarayonini tashkil etishga yordam bermoqda.

Media darslari quyidagi metodik imkoniyatlar va afzalliklarga ega:

O'quv jarayonida dars sifati, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday jarayonda bir vaqt ni o'zida o'qituvchi nazariy axborotlarni berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamонавиј

texnika ta'lif vositalarida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv obyektlarini va voqealarini modellashtiradi, uni avtomatik ravishda test ketma-ketligida namoyish etadi. Tasvirini tushiradi.

• O'quv mehnat faoliyatlarini tashkil etishda kompyuter texnikalarini qo'llash, foydalanish imkoniyatini tug'diradi. Shaxsan o'zlar o'quv materialini amaliyotda sinab, bajarib borish imkoniyatiga ega bo'ladir.

• O'quvchi-talabaning yakka tartibda ishlagan holda qiziqish va ijodiy ishlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

• Multimedia texnikasi ularning o'quv mazmunini o'zlashtirishlariga qiziqishini yanada oshiradi.

• O'quvchi-talabalarda ko'rgazma – obrazli ta'sirda fikr yuritishga, motorik va verbal kommunikativ ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

• Axborot bilan ishslash, (axborot qidirish, zarurlarini ajrata bilish, qayta ishslash, tartibga keltirish. Axborotlardan mazmunni tushunish, mantiqiy yaqinlarini ajratishga o'rganadi. Shular asosida axborotni olish madaniyati shakllanadi.

Media ta'limning bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam berish, oddiy yo'naliishlardagi media axborotlar tilini o'rganish; o'quvchi-talabani badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, media matn (tekst)larni malakali tahlil eta olish, o'rgatish va qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Media ta'limning asosiy mazmuni media madaniyat tilini, uning tarixini bilish (kino san'ati, badiiy televidenie va badiiy media) material tekstlarini tushunishdir.

Uning pedagogik strategiyasi media matnlarni badiiy tahlil qila olish, unga interpretatsiya asosida baho bera olishdan iboratdir. Shuni aytish kerakki, media ta'lif qanday shakllanadi, u bir haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmuni nimalardan iborat va o'quvchi-talabalar uni qanday qabul qiladilar?

Lekin shuni yodda tutish kerakki, media ta'limning markazida o'quvchi-talaba shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish, istaklari hisobga olinishi, olingan axborotlarga tanqidiy ko'z bilan qarab, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak.

Media ta’lim haqidagi Rossiya va chet ellik olimlar fikriga ko‘ra, media ta’lim tarbiyaviy, ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchi-talabalarni o‘kuv-bilish jarayonida kreativ fikrlashga o‘rgatadi.

Media ta’limning o‘quv-bilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- Media ta’lim tarixi haqidagi bilimlar, uning tuzilish nazariyasini o‘rganish-o‘zlashtirish;

- Media matn (tekst)larni ongли qabul qila olish, uning tilini bilish va «o‘qita olish» shu haqida tasavvurlarini kengaytirish, ko‘rish orqali xotirasini mustahkamlash, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy, obrazli, muammoli fikr yuritishni o‘rganish;

- Media ta’lim materiallarini kreativ fikrlash orqali amaliyotda foydalanishdan iborat.

Media ta’limning eng muhim vazifalaridan biri o‘sib kelayotgan yangi avlodni tobora jadallahib borayotgan axborotlar oqimida har xil axborotlarni olish, tushunib yetish, uni inson psixikasiga ta’sirini bilish va undan to‘g‘ri, maqsadli foydalanishga olib keladi.

Media ta’lim olingen axborotlarni integratsiya qilish shu asosida shaxsiy fikrini bildirish va qayta olishga chorlaydi. O‘z fikrini erkin bildirish, shaxsiy rivojlanish, turli informatsion hurujlarga qarshi fikr bildirish orqali uning ijtimoiy jamiyatdagi faolligi oshadi. Media ta’lim axborotlardan faol va to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantiradi. O‘quvchi-talabalar shu orqali berilayotgan axborot haqida fikr yurita boshlaydi.

Media ta’limda o‘quvchi-talabalar kreativ fikr yuritadi, ya’ni yangi tushunchalarni o‘zlashtira boshlaydi. Jumaladan, «*fabula*», «*syujet*», «*mavzu*», «*konflikt*», «*kompozitsiya*», «*kadr*», «*plan*», «*montaj*» kabi tushunchalarni o‘quv jarayoniga aloqadorlikda tushunib, amalda qo‘llab, o‘zlashtirib boradi.

Shuning uchun ham media-darslar:

- «Badiiy-immitatsiyali» – kichik ssenariyalar, minissenariya, media- matnlari tuzish, uni interfaol usulda namoyish etish;

- Teatrlashgan vaziyat hosil qilish, (media matn asosida ayrim epizodlarni inssenirovka qilish, media matn jarayonini namoyish etish);

- Tasviriy-immitatsiya tayyorlash (afishalar yaratish, fotoko‘rgazma, ma’lum mavzuda asarlardagi rasmlarni namoyish etish)

kabilarni tushunish, qo'llay olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Yuqoridagi didaktik materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tahlil asosida xulosa qilish, o'quvchi-talabalarni emotsiyonal qabul qilish orqali nafis san'atni tushunishga olib keladi. Bu holat o'quvchi-talabalarni umumintellektual rivojlanishida, bilim olishi, tarbiya topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Media ta'lism darslari berilayotgan axborotlarni qabul qilib olish, o'zlashtirib olish jarayonida ikki yangi komponentlar ishtirotkini ta'minlaydi.

1. Media ta'lism darslarida kompyuterlar universal holda qo'llanishi va ishtiroti bilan xarakterlanadi.

2. An'anaviy texnologiyalar vositalari yoniga dasturli vositalar to'ldiruvchi bo'lib kiradi. U holda ayrim predmetlar, temalarni o'qitishga, o'zlashtirishga qulay muhit yaratadi. Unda ta'lism mazmuni teksti aniq, ravon shakllantirilgan bo'ladi. U ta'lism mazmuni tasvirlangan holda sxema, rasmlar, tablitsalar, videofragmentlar, ovozli, animatsion ta'minotlar bilan namoyish etiladi.

Yuqoridagi faoliyatni amalga oshirishda kompyuter va dasturlar bir biri bilan uyg'unlashgan, moslashgan holda bir-birini to'ldirishi kerak; ta'lism maqsadi, mazmuni, shakli, o'qitish metodlari, o'qituvchi va o'quvchi-talabalar faoliyati muvofiqlashtiriladi.

Bunday holda tashkil etilgan media ta'limga didaktik prinsiplari, imkoniyatlari kengayadi, boyib boradi. Bu esa ta'limga yangi prinsip – individuallashtirilgan, faollashtirilgan holda tashkil etishni ta'minlaydi.

Media ta'lism darslarining eng afzallik tomoni shundaki, ta'lism jarayonida o'quvchi-talabalarning hozirgi axborot oqimlari jadallahayotgan bir vaqtida mustaqil ijod qila olish imkoniyatlari, qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Shu munosabat bilan media darslar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina predmet yoki mavzu mazmuniga qarab qolmay, balki uning ta'limiyligi, tarbiyaviy, umumrivojlantiruvchi tomonlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Ular axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga yo'g'rilgan bo'lmos'i, ya'ni, kerakli axborotni olish qobiliyatini, ularni yangi texnikalar yordamida kayta ishslash, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi talab etiladi.

Media ta'lism darslari kompyuterlashtirilgan sinflarda,

multimediani proektorlar bilan jihozlashda o'tkaziladi.

Kompyuterlashgan sinflarda o'quv faoliyatining namunali-samarali kechishi uchun u yerda qo'shimcha joylashtirilgan o'quv stollaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu holat sanitar-gigienik me'yorlarga rioya etish, o'quvchi-talabalarning o'quv faoliyatini boshqa joyda tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Agar o'qituvchi ko'rgazmali tasvirlardangina foydalansa, ularni bir komplekt kompyuterda ekranga namoyish etish bilan cheklanadi. Sinfda yoki auditoriyada o'quvchi-talabalar bilan ishlashni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- video fragmentlarni frontal ko'rish;
- topshiriq, mashqlarni bajarishda amaliy mashg'ulotlarni individual ishlash;
- umumiy o'quv loyihalarini modelli eksperimentni bajarishda kichik guruhlarda ishlash;
- media-darslarni tashkil etishda ham o'quv jarayonining hamma komponentlari o'z aksini topishi va faoliyat kompyuter va kompyutersiz almashinib turishi mumkin;
- faollashtirish (o'quv materialini takrorlash, materialni birinchi bora o'zlashtirish, kompyuterda yoki kompyutersiz);
- bilim, ko'nikma, malakalarni shakkantirish, o'quv axborotlari blokining mohiyatini bilib, tushunib olish va uni mustahkamlash) kompyuterda yoki uning ishtirokisiz;
- o'quv materiallarini amalda qo'llay olish, o'quv materialini o'zlashtirganligini nazorat qilish: kompyuter va kompyutersiz variantda;

Yuqoridagilardan xulosa shuki, media ta'lif ta'lif darslarini tayyorlash, samarali o'tkazish o'qituvchilardan quyidagilarni talab etadi.

- yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lish;
- zamonaviy metodik tayyorgarlikka ega bo'lish;
- o'quvchi-talaba bilan muloqotga kirishish, malakali psixologik, pedagogik bilimlarga ega bo'lish;
- yuksak ma'naviy, ma'rifiy madaniyatga ega bo'lish;
- zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirib olish va internetdan foydalanish;

- o‘quv faoliyatiga innovatsiya, pedtexnologiya, interfaol usullarni o‘zlashtirish orqali o‘quv jarayonini tashkil eta bilishi tiladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Masofaviy o‘qitish tushunchasiga tarif bering.
2. Masofaviy ta’limning o‘ziga xos muhim jihatlariga nimalar kiradi?
3. Masofaviy o‘qitishning asosiy tamoyillari.
4. Masofaviy o‘qitishning funksional yo‘nalishlari.
5. Media ta’lim tushunchasiga tarif bering
6. Media ta’lim darslarining afzallik tomoni nimada?

## **15-MAVZU: SMART TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

Axborot asrining kirib kelish davri haqida so'z borganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ularni real o'quv jarayoniga qo'llash, zamonaviy axborot infrastrukturasini yaratish, mutlaq yangi multimedia o'quv dasturlarini yaratish va ta'limga tatbiq etish bosqichlari asta-sekin nihoyasiga yetib bormoqda.

Shu o'rinda, tabiiy bir savol paydo bo'ladi: orttirilgan bilim va tajribalarni qanday baholash mumkin, keyingi qo'yiladigan qadam qanday bo'lmog'i kerak?! Masalan, an'anaviy o'quv jarayonlarining AKT qo'llash bilan bog'liq muammolari, jumladan: dunyo internet tarmoqlarida tobora taraqqiy etib borayotgan turli ko'rinishdagi noformal ta'lif birlashmalari, «real» ta'lif maskanlarini «virtual» lari bilan almashinuvi, masofaviy ta'lif va boshqalar.

AKT rivojlanishining zamonaviy bosqichida nafaqat klassik ta'lif texnologiyalari, balki elektron ta'lif (e-learning) ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlar kuzatiladi. Ayni vaqtida e-learning tizimidan Smart (ingl. — aqlii, mushohadali, harakatchan) e-learning hamda Smart Education (aqilli ta'lif) ga o'tish jarayoni bormoqda. Bu konsepsiya ta'lif sohasining barcha jarayonlarini, shuningdek, bu jarayonda qo'llaniluvchi barcha usul va texnologiyalarni kompleks modernizatsiyasini mujassamlashtiradi.

Smart konsepsiysi ta'lif kesimida o'zi bilan birga, «aqilli taxta», «aqilli ekran», ixtiyoriy nuqtadan Internetga chiqish kabi texnologiyalarni shakllantiradi. Ushbu texnologiyalarning har biri kontentni ishlab chiqish jarayonini yangidan qurish, yetkazib berish va aktuallashtirish imkonini beradi. Natijada ta'lif olishni nafaqat sinfda, balki uyda, ish joyida, jamoat joylarida, dam olish joylarida ham amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bunda ta'lif jarayonini baholovchi asosiy element sifatida faol ta'lif beruvchi kontent maydonga chiqadi. Uning asosida vaqt va fazo tushunchalari to'sig'idan holi qiluvchi yagona repozitor yaratiladi.

**Smart ta'lif konsepsiysi** — mavjud manbalarga tez moslavchanchilik, multedianing maksimal xilma-xilligi, tinglovchining saviyasi va talabi darajasiga tezkorlikda moslashuvchanlikdan iborat. Kompetentlikning uzlusiz rivojlanishi, bilimlarni doimiy o'sishi va

yangilanib borishi zamonaviy ta’lim tizimidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sababi bilimni rivojlantirish uchun endi inson kapitalining ta’siri kamlik qila boshlaydi. Bu kabi masalalarни hal qilishda nafaqat ta’lim muhitining o‘zini, balki ta’lim tizimining tarkibi, instrumentlari, usullari tubdan o‘zgartirilishi shart. Analitik kompetensiyalar, kompleks muammolarni yechish mahorati, yangi g‘oyalarni rivojlantiruvchi — innovatsion xususiyatlar, o‘zaro kommunikatsiya madaniyati kabi bilimlarni takomillashtirish zarur. Chunki an’anaviy ta’lim parametrlari asosida bilim berish insonlarni Smart — jamiyat uchun tayyorlamaydi. O‘z navbatida, Smart — texnologiyasisiz, innovatsion faoliyat yuritib bo‘lmaydi. Agar ta’lim shu yo‘nalishda ortda qolsa, u tormozlanib, qotib qoladi.

Hozirgi kunda, o‘quv darslarida, multimedia vositalaridan foydalangan holda, Microsoft Power Point yoki Macromedia Flash dasturiy paketlarida tayyorlangan taqdimotlarni qo‘llash oddatiy holga aylanib bormoqda, biroq shu bilan birga, ta’lim sohasiga shunday interfaol texnologiyalar kirib kelmoqdaki, ular slayd-shou turkumidagi taqdimotlarni siqib chiqarmoqda. Axborotlarni talabalarga yangi interfaol uskunalar (interfaol taxta — Smart Boards, interaktiv display — Sympodium) yordamida uzatish, ma’ruzachiga dars jarayonining o‘zida taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Interfaol Smart Boards taxtalariga maxsus markerlar yordamida yozish, o‘quv materiallarini namoyish etish, ekrandagi tasvir ustidan yozma sharhlar berish mumkin. Shu bilan birga, interfaol Smart Board taxtasiga yozilgan ma’lumotlarni magnit tashuvchilarda saqlanib qolib, ularni bosib chiqarish, darsga kelmagan talabaning elektron pochtasiga yuborish amalga oshiriladi. Ma’ruza davomida Smart Board taxtasida yaratilgan o‘quv materialini esa, o‘rnatilgan videokoderga yozib olib, ko‘p marhta qayta qo‘llanishi mumkin.

Albatta bugungi kunda interfaol smart taxtalar imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun maxsus dasturiy ta’minotlar (Smart Notebook, Bridgit, Synhron Eyes) ishlab chiqilgan. Mazkur dasturiy ta’minotlar har birining o‘z imkoniyatlari mavjud. Masalan, Smart Notebook matnlar va obyektlar bilan ishlaydi, axborotlarni saqlaydi, yozma harflarni bosma harflarga aylantiradi.

Bridgit dasturi taqdimotlarni tez va osonlik bilan butun dunyoning turli nuqtalaridagi hamkorlarga tarqatadi, o‘z hujjatlariga taqrizlar oladi. Buni amalga oshirish uchun o‘qituvchi chiqishidagi muhim pozitsiyalarini umumiylar «ishchi stol»da ajratib ko‘satishi bilan shu onning o‘zidayoq, dastur real vaqtda, barcha konferensiya ishtirokchilari oynasida paydo bo‘ladi. Synhron Eyes (sinxron ko‘z) dasturiy paket yordamida o‘qituvchi barcha o‘quvchilarini kuzatib turishi, o‘quvchilar ishchi monitorlarini ekranga chiqarishi, blokirovka qilishi, interfaol taxta yordamida o‘quv materiallarini, darsliklarni, testlarni yuborishi va jarayonni nazorat qilishi mumkin.

Interfaol taxtalár bilan ishslash jarayonida barcha ishtirokchilarning diqqati konsentratsiyalanadi va ular o‘quv materiallarini juda tez o‘zlashtirishni boshlaydilar. Buning natijasida har bir ishtirokchining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi oshib boradi. Yangi ta’lim texnologiyasini ta’limga joriy etilishi o‘zi bilan birga, ta’lim sxemasini reproduktiv shakldan kreativ shaklga o‘tishini ta’minlaydi.

Zamonaviy Smart ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan ikkita asosiy maqsadi mavjud bo‘lib, ular:

1. O‘quvchilarda bilim olish uchun zarur bo‘lgan barqaror motivatsiyani yaratish.

2. Ijodiy yechimlar yordamida bilim o‘zlashtirishning yangi shakli va instrumentlarini izlab topishdan iborat.

«Smart-ta’lim» tushunchasi. Smart o‘rab turgan atrof muhitida o‘zgarishlarga obyekt yoki jarayonni bir onda moslashtirishga imkoniyat beradigan xususiyat sifatida, zamonaviy ijtimoiy rivojlanishda, ayniqsa, ta’limda eng talabli bo‘lmoqda. Smart-ta’limning yangi konsepsiyasini shakllanishi, ta’lim tizmida yangi iqtisodiy va ijtimoiy samaralarga erishish va yangi samaradorlik olishga imkoniyat beradigan axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining yutuqlariga asoslanadi. Smart-ta’lim paradigmاسini asta-sekinlik bilan shakllanishini doimiy ravishda smart-ta’lim va smart-o‘qitish mazusidagi anjumanlarni o‘tishi tasdiqlamoqda.

«Smart-ta’lim» tushunchasini ko‘rib chiqishdan oldin, ta’limni ta’rifiga to‘xtalamiz. «Ta’lim – ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan va inson, oila, jamiyat va davlat manfaatlarida amalga oshiriladigan yagona maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya va ta’lim jarayonidir,

shuningdek insonning intellektual, ma'naviy, axloqiy, ijodiy, jismoniy va (yoki) kasbiy rivojlanishi uchun, uning ta'lif ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beradigan ma'lum bir miqdor va murakkablikning erishiladigan bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatları, qadriyatları, faoliyat tajribalari va kompetensiyalari yig'indisidir».

**Smart ta'lif** — bu ta'lif muassasalari hamda professor-o'qituvchilar tarkibining umumiyligi standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida yagona Internet tarmog'i orqali ta'lifni amalga oshiruvchi birlashmasidir.

Shuni qayd etish lozimki, ta'lif – bu inson, oila, jamiat va davlat manfaatlari yo'lida amalga oshiriladigan jarayondir. So'ngi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdagi, AKTning turli sohalarga keng tarqalishi, shu munosabat bilan hamma joyga -bosimi ostida inson, oila va jamiatning o'ziga xosligi o'zgarmoqda.

Shunday qilib, -Aqlii mulk, iqtisodiyot, ishlab chiqarish texnologiyalari va ilm - fandagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, individual va jamiatning talab va ehtiyojlari mos keladigan ta'lifni rivojlantirish uchun zarurdir.

Smart – ta'lif (education) – mohiyat jihatdan yangi ta'lif muhitidir; butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o'tish uchun o'qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya'ni ta'lif faoliyatini birlashtirishdir.

Smart-ta'lif - umumiyligi standart, texnologiyalar va o'quv yurtining tarmog'i va professor o'qituvchilar tarkibi orasidagi kelishuvlar negizida internetda ta'lif faoliyatini tashkil etishdan iboratdir.

Smart – o'quv jarayoni - innovatsiyalar va internetdan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lif jarayonidir; u tizimli ko'p o'lchovli ko'rish va ko'p aspektliligi va yangilanishining uzluksizligini e'tiborga olgan holda predmetlarni o'rganish asosida kasbiy kompetensiyalar egallashga imkoniyat beradi.

-Aqlii ta'lif ning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni olish mumkin:

1. Ta'lif muammolarini hal qilish uchun ta'lif dasturida tegishli ma'lumotlardan foydalanish. Ta'lifda axborot oqimining tezligi va hajmlari hamda har qanday kasbiy faolit jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Talabalarni amaliy mashg'ulotlarni o'tishga, haqiqiy vaqt

sharoitida ishlashga tayyorlash uchun namunalar va modellardan foydalanmasdan mayjud o‘quv materiallarni haqiqiy vaqtida uzatilayotgan maeriallar bilan to‘latish lozim.

2. Talabalarning o‘zini – o‘zi anglash, ilmiy tadqiqot, loyihalash ishlarini tashkil etishda foydalanish. Ushbu tamoyil kasbiy masalalarni yechish uchun ijodiy izlanishga, mustaqil axborot va tadqiqot faoliyatiga tayyor bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash asosidir.

3. Taqsimlangan o‘quv muhitida o‘quv jarayonini amalga oshirish. O‘quv muhitini universitet hududi yoki masofali o‘qitish tizimi chegaralari bilan cheklanmaydi. O‘quv jarayoni uzlucksiz bo‘lishi kerak, jumladan, kasbiy faoliyat vositalaridan foydalanib, kasbiy muhitda o‘qitishni o‘ziga olishi kerak.

4. Talabalarning kasbiy jamoa bilan o‘zaro aloqasi. Kasbiy muhit nafaqat mutaxassislarni tayyorlash uchun mijozlar, balki o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. AKT talabalarga kasbiy jamoalar ishida ishtirok etish bo‘yicha yangi imkoniyatlar yaratib beradi va mutaxassislar tomonidan muammolarni hal etishni kuzatishga imkoniyatlar beradi

5. Ta’lim egiluvchan traektoriyalari, ta’limni yakkalashtirish. Ta’lim tizimiga ishlayotgan fuqarolarni jalb etish, kasbiy faoliyat turlarini tez-tez almashish, texnologiyalarni jadal rivojlanishi hisobiga ta’lim sohasi sezilarli darajada kengaymoqda. Universitetlarga kelayotgan talabalar, odatda o‘zlarining ta’limdagi ehtiyojlarini yaxshi anglaydilar va ifodalaydilar.

Universitetning vazifasi – talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos holda ta’lim xizmatlarini ta’minalashdan iboratdir.

Ta’lim faoliyatining xilma-xilligi talabalarni ta’lim dasturlari va kurslariga o‘qitish, o‘quv jarayonida asbob-uskunalardan foydalanish, ularning salomatliklariga, moddiy va ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda imkoniyatlarni taqdim etishni talab qiladi.


Aqlii ta’lim – bu yangi ta’lim tizimining asosini tashkil etadigan shunday ta’lim paradigmasi bo‘lib, u aqlii axborot texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim jarayonini mos ravishda amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Aqliy ta’lim paradigmasini amalga oshirilishi o‘zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik muhit bilan egiluvchan va moslanuvchan ta’sir o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma

va kompetentlikni olish uchun o‘qitish va ta’lim jarayonini shaklantirishga qaratilganligini belgilash maqsadga muvofiqdir. Ushbu komponentalarga aqlii ta’lim o‘lchovlari deb nom berilgan.

Aqlii ta’lim o‘lchovlari qatoriga: texnologik, tashkiliy, pedagogik kabi uchta o‘lchovni kiritish mumkin.

Shakllanayotgan Smart – ta’lim sistemasi o‘zining universalligi bilan:

- kunduzgi tizimda – talabalarning mustaql ishlarini sifatli va samarali tashkil etishda;
- masofali o‘qitishda – ishlayotgan talabalarga bilim berishda;
- mutaxassischlarni malakalarini oshirishda;
- aholining umumiy norasmiy ta’lim tizimida muvaffaqiyatli foydalaniishi mumkin.



**15-rasm**

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Smart ta’limni tushuntiring?
2. Smart ta’lim konsepsiyasini tushuntiring?
3. Smart texnologiyalari qanday texnologiya?

## **16-MAVZU: BILIMLARNI TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Pedagog va talabaning dasturli faoliyati ta'lif jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga va pirovard natijada – ko'zlangan yakuniy natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ifodalaydi. Didaktik jarayonni loyihalashda pedagog «texnolog» sifatida faoliyat ko'rsatadi: har bir darsda ta'lif maqsadini aniq o'rnatishi, o'tilayotgan o'quv materiallarini mazmunan saralashda talabalarning o'zlashtirish faoliyati darajalarini, fanni bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi lozim. Shuningdek, tashkiliy shakllarning mosini tanlab, belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich talabiga mos holda o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish uchun unga oldindan alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Umuman ta'lif jarayoniga oldindan ishlov bermasdan, yakuniy natijalarining ta'lif maqsadiga mos kelishini chamalamasdan, o'qitish davomida yuzaga keladigan noqulay holatlarga bog'liq holda boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib ta'lif jarayonini texnologiyalashtirish mumkin emas.

Baholash joriy, oraliq va yakuniy nazoratni o'z ichiga oladi. Joriy nazorat uzlusiz qayta bog'lanishni ta'minlaydi va odatda baholashsiz o'tkaziladi, shuning uchun u bilimlarni shakllantirishda ishtirot etadi. Pedagogik texnologiyada qayta bog'lanish nafaqat o'qitish jarayonini tuzatib borish uchun, balki o'quv maqsadlarini aniqlashtirish uchun ham xizmat qilishadi. Yakuniy nazoratda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishganlik darajasi baholanadi.

Reyting nazorati og'zaki, yozma va test usulida bo'lishi mumkin:

**Og'zaki va yozma nazorat.** Og'zaki nazoratning afzalliliklariga shaxsiy munosabat, o'qituvchining o'quvchi-talaba bilan jonli muloqoti, uning fikrlarini nutq shaklida ifodalashga mashq qildirish, bilimlarni yanada chuqurroq tekshirish maqsadida pedagog tomonidan qo'shimcha savollar berish imkoniyatlari kiradi. Pedagog tomonidan qo'yilgan savolga og'zaki javob berishga tayyorlanish doimo talabaning faol fikrashi bilan bog'langan.

Og'zaki javob yaxshi tayyorlangan talabaga o'zining iqtidorini, qo'shimcha egallagan bilimlarini namoyish etishga ikmon beradi.

Bevosita muloqot tufayli pedagogda savol-javob davomida talabaning bilimlari to‘g‘risidagi barcha gumanlarni bartaraf etish imkonni bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtida og‘zaki nazoratda talabalar bilimlarini baholashda ma’lum darajada pedagog shaxsiyatining aks etishi namoyon bo‘ladi. Har bir pedagogda talabalarning o‘zlashtirish darajalarini baholashda doimo xolis va shaxsiy munosabat bir vaqtning o‘zida ro‘yobga chiqadi. Yuqorida tilga oлganimizdek, xorijda xorijda olib borilgan ko‘p sonli tadqiqotlar ko‘rsatadikи, «qisqa vaqt oralig‘ida bir - biridan mustaqil ravishda bitta o‘quvchi-talabani bitta bilimlar sohasida bitta o‘quv maqsadlarida tekshirish ikkita imtihon oluvchi bahosining mos kelishi faqat 40-60% hollarda mos kelgan». Bunda bitta imtihon topshiruvchi bir imtihon oluvchida eng yuqori bahoni, boshqasida esa eng past bahoni oлgan.

Shuningdek, turli pedagoglar tomonidan bitta yozma nazorat ishiga qo‘yilgan baholarning ancha farq qilishi ham tasdiqlangan.

Shunday qilib, talabaning yozma va og‘zaki nazoratda oлgan bahosi ba‘zan xolisona bo‘lmaydi. Talabaning bahosi, odatda, nafaqat uning bilimlari darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bilimlarni baholash amaliyotida pedagoglar guruuhning o‘rtacha darajasini mo‘ljalga oladi. Shuning uchun kuchsiz guruhlarda baholar odatda ko‘tarilgan, kuchli guruhlarda pasaytirilgan bo‘lib chiqadi.

Yozma nazorat o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini hujjatli tarzda o‘rgatish imkonini beradi, shuningdek, o‘quvchi - talabaga o‘z fikrlarini qog‘ozda bayon qilish imkonini beradi. Ikki-uch mustaqil ekspertlarni ishlarini tekshirish uchun jalb qilish bilan o‘tkaziladigan tashqi yozma nazorat aniq mezonlar bo‘lgan taqdirda obyektiv bahoga yaqin baholashga imkon beradi. Ammo bilimlarni og‘zaki va yozma nazorat qilishning an‘anaviy usuli ma’lum kamchiliklarga ham ega:

- imtihonda o‘quvchi-talaba berilgan biletning 3-4 savoliga javob beradi, baho esa butun o‘quv fanini bilish uchun qo‘yiladi;
- farq qilish qobiliyati kuchsiz bo‘lgan 5 ballik shkala ishlatilgan;
- og‘zaki va yozma nazorat har doim ham bilimlarni baholashning obyektivligini, aniqligini va ishonchliliginini ta‘minlamaydi;
- og‘zaki so‘rov ko‘p o‘quv vaqtি sarflanishini talab qiladi, yozma ishlar pedagoglarning ularni tekshirishga ko‘p mehnat sarflashlari bilan bog‘liq.

So‘nggi yillarda pedagogika fanida bilimlarni og‘zaki va yozma nazorat qilish obyektivligini, ishonchligini etaricha oshirish usullari ishlab chiqilyapti. Ammo shuni hisobga olganda ham bilimlarni og‘zaki va yozma tekshirish etaricha texnologik emasligicha qoladi, ularni kompyuterlar yordamida avtomatlashtirish qiyin. Bu nisbatda bilimlarni test usulida nazorat qilish ulardan bir necha marta ustun turadi.

2. Test (inglizcha–sinash) – bu biror bir faoliyatni bajarish uchun ma’lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlardir. Testning to‘g‘ri bajarilganligini o‘lhash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi. O‘z etaloniga ega bo‘limgan har qanday test, odatdagidek, bajarilish sifati haqida subyektiv mulohaza yuritish evaziga xulosa chiqaruvchi nazorat topshirig‘iga aylanib qoladi.

#### **Test nazoratlari va uning afzallikkлari:**

a) etarli tarzda tuzilgan pedagogik test natijalari nazorat o‘tkazayotgan shaxsga bog‘liq bo‘limgan xolis pedagogik o‘lchov quroli hisoblanadi;

b) test o‘quv mavzularining barcha asosiy mazmunini qamrab olishi mumkin, o‘qitish natijalarini test usulida o‘lhash barcha tekshiriluvchilarga baravar qo‘llanadigan oldindan ishlab chiqilgan mezon asosida aniq va ishonchli baho beradi;

v) test nazorati texnologiyalashuvchan, u nisbatan qisqa vaqt ichida ma’lum o‘quv mavzulari o‘zlashtirilishining to‘la nazoratini kam kuch va vositalar sarflab o‘tkazish imkonini beradi.

g) test nazorati kompyuterlar yordamida oson avtomatlashtiriladi. Bu pedagogik test o‘tkazishning asosiy afzallikkлaridan biridir.

To‘g‘ri tashkil qilinganda pedagogik test talabalar bilimlarini xolis baholash samarasini beradi, chunki bu baho uni qo‘yayotgan odamga bog‘liq bo‘lmaydi. U barcha tekshiriluvchilarga bir xil qo‘llanadigan qilib tuzilgan mezon bo‘yicha to‘g‘ri echilgan test topshiriqlari foizi asosida aniqlanadi. Shuning uchun pedagogik test to‘la asos bilan o‘qitish natijalarini aniq va ishonchli baholashga imkon beradigan pedagogik o‘lchov quroli deb ataladi. Ammo bunday baholash faqat ilmiy talablarga rioya qilingan holda tuzilgan, tekshiriluvchan va me’yoriga etkazilgan sifatli test tufayligina amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik testlardan foydalanilganda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qitish sifatini so‘zsiz oshirish mumkin bo‘lgan etarli ijobjiy imkoniyat mavjud. Test o‘tkazish o‘qitishni olib borish va uning natijalariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sifatli testlar bilish faolligini oshirishga qodir, ular talabalar faoliyatida yuqori mo‘ljallarni belgilaydi, aksincha, yomon tuzilgan testlar ta’lim jarayonida aks samara berishi mumkin.

Bilimlarni o‘zlashtirish nazoratining yangi, ilg‘or vositalarini kiritadigan reyting tizimidan samarali foydalanishni o‘rganish ham juda muhimdir. Talabalar bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi deganda har bir talabani o‘qitishning borishi va natijalarini baholashga bir xil shaklda yondashuvning o‘zaro bog‘liq ko‘rsatmalari va qoidalar majmuasi tushuniladi.

Oliy o‘quv yurtlarida reyting nazorati tarkibida quyidagilar ifodalanadi:

- nazorat turlari (joriy, oraliq va yakuniy);
- nazorat usullari (og‘zaki, yozma, pedagogik test o‘tkazish, ma’lum amallarni bajarish);
- davriylik va o‘qitish davri mobaynida baholashlarning eng kam soni;
- baholash mezoni;
- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha yakuniy bahoga talabaning ayrim baholarini birlashtirish qoidalari;
- natijalarni rasmiylashtirish qoidasi va boshqa ko‘rsatmalar;

Oliy o‘quv yurtlarida reyting tizimini kiritishning maqsad va vazifalari, odatda quyidagi natijalarga erishish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat:

- talabalar tomonidan davlat ta’lim standartlari talablarining o‘zlashtirilishi;
- bilimlarni baholashning xolisligi va uzlusizligini ta’minlash;
- talabalardagi bilish faoliyatining faollashuvi, ularda o‘qishda yutuqlarga erishishga intilishning shakllanishi, ta’limga musobaqa hissini kiritish, mustaqil ishga muntazam jalb qilish;
- o‘qish jarayonidagi yutuqlar bo‘yicha talabalar o‘rnini aniqlash bilan o‘quv faoliyati natijalarini muvofiqlashtirish, ularni o‘qishdagi yutuqlari uchun rag‘batlantirish;

- o‘qitish natijalarining taqqoslanishini ta’minlash.

Talabalar bilimlarini baholashning ilg‘or reyting tizimi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- uzluksiz ta’lim bosqichining o‘ziga xosligini inobatga olishi;

- o‘quv fanining alohida qismlarini emas, balki yalpi nazoratini amalga oshirishi;

- talabalarni o‘qishdagi yutuqlari bo‘yicha yaxshiroq tabaqalash maqsadida baholarning ko‘p balli mezoni qo‘llanishi;

- pedagog tomonidan qo‘yiladigan birlamchi baho murakkab matematik hisoblashlar bilan bog‘liq bo‘lmasligi (o‘quv vaqtining sarflanishini talab etadigan). Ú pedagog tomonidan o‘quv muassasasida oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida qo‘yiladi;

- har bir o‘quv yurtining uslubiy idorasi ma’muriyat ko‘rsatmalari asosida yoki o‘zining qaroriga binoan natijalari yakuniy reyting baholashga kiraqidigan, o‘qitish davridagi barcha predmetlar bo‘yicha og‘zaki, yozma va test nazoratlarining eng zarur majburiy sonini o‘rnatadi;

- oliv o‘quv yurtining reyting tizimlari ma’lum bosqich chegarasida o‘qitish natijalarining taqqoslanish imkonini ta’minlashi va boshqalar.

Ma’lumki, bir xil sharoitda tegishli metodikalar va mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanim o‘qitganda o‘quvchi-talabalar turli darajadagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishadi. Buning asosiy sababi ular qobiliyatlarining turlichaligidadir.

B.B. Blum o‘tkazgan tadqiqotlarida yuqori qobiliyatlilar yuqori natijalarni, o‘rtacha darajadagilar o‘rtacha ko‘rsatkichlarni berishligi aniqlandi. Bunda vaqt sarfi ham turlicha ekanligini ko‘rish mumkin: qobiliyatlilar o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o‘rtacha» lar uchun ulardan ko‘proq vaqt, «bo‘sh» lar uchun eng ko‘p vaqt zarur bo‘lar ekan. Mavjud ta’lim tizimidagi hamma bolalar uchun bir xil teng vaqt, teng sharoitdagи ta’lim jarayoni biz xohlaymizmiyo‘qmi «kuchlilar», «o‘rtachalar» va «bo‘shlar» ni vujudga keltiraveradi. An‘anaviy ta’limda ushbu nomuvofiqlikdan chiqishning ikki yo‘li mavjud; birinchisi – ikkinchi yil qoldirib o‘zlashtirish darajasiga erishtirish; ikkinchi yo‘l – guruh talabalarini gomogen guruhlarga ajratish yo‘li bilan ta’limda yuqori samaradorlikka erishish.

B.Blum an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, ta'lim sharoitining eng optimal sharoitini tanlash, bиринчи navbatda o'qish sur'atini oshirish orqali to'la o'zlashtirishga erishish mumkinligi g'oyasini ilgari suradi. Bunday sharoitda «kuchli» va «bo'sh»lar o'rtasidagi o'zlashtirish farqi keskin kamayadi. To'la o'zlashtirish modelida mavjud o'quvchi-talabalar guruhining hammasi yuqori natijalarga erishishi uchun o'quv maqsadlaridan kelib chiqadigan natijalar tegishlicha yuqori darajalarda ifolanishi kerak.

Nº	Toifa (darajalar)	Talaba faoliyati
1.	BILISH	Dalillarni bilish va ularni tanlash usulini bilish, rivojlanish qonuniyatlarini bilish, baholash mezonlarini bilish, umumiy tushuncha, qonun-qoidalarni bilish
2.	TUSHUNISH	Anglash, o'z so'zi bilan ifodalash, bir til (tizim)dan boshqasiga (masalan, matematik tildan og'zakiga yoki aksincha) aylantiradi, formula, sxema va diagrammalarni talqin qila oladi.
3.	QO'LLASH	Bilimlarni amaliyotda qo'llash (masala yoki misol echish, mehnat operatsiyalarini bajarish, vaziyatlarni hal qilish, qonun-qoidalardan foydalanish).
4.	TAHLIL	Bir butun tushuncha, qonun-qoidalarni qismlarga ajratish, ular orasidagi o'zarlo bog'liqlikni va munosabatlarni o'rnatish, yaxlitlikni tashkil etuvchi tamoyillarni aniqlash.
5.	SINTEZ	Yangi tarkib hosil qilish maqsadida berilgan qismlarni umumlashtirish, insho rejasini tuzish, berilganlarga asoslanib yaxlit qiyofani yaratish. Berilgan mehnat operatsiyalariga asoslanib yaxlit texnologik jarayonni loyixalash.
6.	BAHOLASH	Munosabat bildirish, xulosa yasash; muayyan mezonlarga asosan ý yoki bu faoliyat qonun-qoida, tushunchalarning ahamiyatini baholash

Pedagogik texnologiyalar ta'limda reproduktiv o'zgarish darajasini egallahni kafolatlaydi. Talaba produktiv (mahsuldar) va ijodiy o'zlashtirish darajalarini egallahda an'anaviy metodikadagi o'qitishning muammoli usul va metodlaridan unumli foydalanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishda an'anaviy o'qitish

metodikasidagi boy tajriba va ilg‘or pedagogik jarayonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagog kurs (bo‘lim, bob)ni loyihalashtirishga kirishar ekan, eng avvalo, mezonni to‘g‘ri aniqlashi, ushbu modelda ishlashning asosiy holatini hisoblashni biliishi zarur. Shundan keyin kurs maqsadlarini toifalashtirish, maqsadlaridan aniqlashtirilgan natijalar olinishini ketma-ketlikda ishlab chiqish va ularga mos ravishda diagnostik testlar tayyorlanishi, o‘qituvchi (pedagog) o‘rganiladigan materialni qismlarga bo‘lib o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv birliklarini aniqlashi, ularni tahlil qilishi va o‘rganish bo‘yicha qayta ishlab chiqishi lozim. O‘quv birliklari aniqlangach, ularni o‘rganishda qanday natijalarga erishishni birma-bir aniqlash, erishilgan natijalarni tekshirish uchun diagnostik xarakterdagি test nazoratlarini o‘tkazishi va bu nazorat natijalari baholanmasligi kerak. Bunda faqatgina «o‘rgangan», «o‘rganmagan» mezonlarida baholanadi va zarur tuzatishlar kiritib boriladi.

Navbatdagи bosqichda har bir test javoblaridagi xato va kamchiliklarni tuzatish bo‘yicha o‘quvchi-talabalar uchun yangi bo‘lgan o‘quv metodikasiga oid qayta o‘rganishni tashkil etadi. Ushbu metodikani amalga oshirish quyidagi ketma-ketlikda kechadi.

1. Kirish qismi: o‘quvchi-talabalarni to‘la o‘zlashtirish metodikasida ta‘limga tayyorlash va ularda rag‘batni vujudga keltirish.

2. To‘la o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan holda har bir o‘quv birligi bo‘yicha o‘qitish.

3. Har bir o‘quvchi-talabada o‘quv materialining to‘la o‘zlashtirilganligini baholab borish.

4. Har bir o‘quvchi-talabaga qo‘yilgan bahoni izohlash.

Loyihalashtirilgan o‘quv jarayonining birligi ikki kichik loyihaga ajratiladi. Birinchi qismida an‘anaviy ta‘limdagidek tushuntirish, ko‘rsatish, izohlash, asoslash, tushunchalarni shakllantirish, ularni bilish, amalga tatbiq qilish kabilar aniq ifodalangan maqsadlar asosida olib boriladi.

Loyihaning ikkinchi qismida har bir o‘rganilgan o‘quv birligi bo‘yicha joriy test sinovlari olinadi. Test sinovlari diagnostik ahamiyat kasb etib, teskari aloqa vazifasini o‘taydi, uni o‘tkazishdan maqsad

tuzatishlar kiritish, to‘ldirishlarni amalga oshirishdan iborat bo‘lib, buning uchun qo‘srimcha o‘quv tadbirlari belgilanadi.

Test natijalariga ko‘ra o‘quvchi-talabalar ikki guruhga ajratiladi: to‘la o‘zlashtirishga erishganlar va to‘la o‘zlashtirishga erishmaganlar guruhi.

O‘quv birliklarini to‘la o‘zlashtirmagan o‘quvchi-talabalar o‘qituvchi (pedagog) rahbarligida ushbu o‘quv birliklarini o‘rganishni davom ettiradi. Ular bilan qo‘srimcha tuzatish ishlari tashkil qilinadi va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanadi hamda kamchiliklarni tuzatish uchun mashg‘ulotlar olib boriladi. Bu mashg‘ulotlar takroriy bo‘lgani uchun uni bayon qilishda yangi usullardan foydalanish va ko‘rgazmali qurollar va o‘qitishning texnika vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish orqali ushbu guruh to‘la o‘zlashtirishga olib chiqiladi. To‘la o‘zlashtirishga erishganlar uchun qo‘srimcha topshiriqlar beriladi, ular navbatdagi o‘quv birligiga o‘tkazilmaydi. Navbatdagi o‘quv birligini o‘rganishga ikkala guruh ham birga kiradi.

O‘z navbatida o‘quvchi-talabalar o‘quv elementini qaysi darajada o‘zlashtirishlari yoki qanday mahorat bilan bajarishlari kerak? Bu savolga psixologlar tomonidan yaratilgan faoliyat nazariyasi javob beradi. Har qanday faoliyat inson tomonidan oldin o‘zlashtirib olingan axborotlar yordamida amalga oshiriladi. Axborotlardan foydalanish xarakteriga qarab faoliyatning ikki ko‘rinishini farqlash mumkin: nomahsul va mahsuldor. Ularning bir-biridan farqi shundaki, nomahsul faoliyatida inson o‘ziga ma’lum bo‘lgan harakat qoidalardan foydalanadi va bu jarayonda har qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi, chunki u faqat oldin o‘zlashtirgan usullarni qaytadan ishlab chiqadi.

Talabalar mahsuldor faoliyatni bajarishda doimo yangilikka duch keladi yoki yangi obyektlar, hodisa va jarayonlar, faoliyat metodlari vujudga keladi. Har ikki faoliyat turi ham mustaqil ravishda yoki tashqridan ko‘rsatilgan ta’sir yordamida bajariladi. Nomahsul faoliyat yo‘riqnomasi, lug‘at orqali yoki harakatlarni bajarish qoidalari to‘g‘risida boshqa bir axborot manbalari asosida ko‘rsatmasiz bajarilsa, mahsuldor faoliyat ma’lum metodik ko‘rsatmalar ostida bajarilishi mumkin.

Talabalarni zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O'quv-tarbiya jarayoni va pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizasiyalash, hamkorlik pedagogikasiga asoslanish.

2. O'quv-tarbiya jarayonida didaktik o'yin, muammoli, modulli ta'lif, loyihalash va hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning yakka tartibda va kichik guruhlarda mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etib, ularni o'z o'quv-bilish faoliyatining subyektiga aylantirish.

3. Talabalarning mustaqil ishi va tahsilini rejali, bosqichma-bosqich, evolyusion tarzda tashkil etish.

4. Talabalarning bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga ilmiy-metodik jihatdan tayyorgarligini tahlil qilish, ularda ko'nikmalar shakllanishini hisobga olgan holda har bir talabaga o'zini o'zi rivojlantirishning individual ish rejasini tavsiya etish.

5. Ta'lif jarayonini tashkil etish va boshqarish, talabalarda mustaqil tahsil olish va mustaqil fikr lashni shakllantirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ongli tanlash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini egallashiga erishish.

6. Talabalarning bitiruv malakaviy ishlari mavzularini o'quv-tarbiya jarayonining dolzarb muammolariga bag'ishlash orqali izchil va muntazam ravishda o'z saviyasini oshirish va faol ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishiga zamin tayyorlash.

Talabalarning ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ularning ilmiy dunyoqarashi va ilmiy nazariy tayyorgarligiga asos bo'ladigan ijtimoiy-gumanitar va mutaxassislik fanlarini o'qitishda kasbiy yo'naltirilganlik, umumkasbiy fanlarni o'qitishda g'oyaviy yo'naltirilganlikni amalga oshirish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradigan pedagogika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, psixologiya kabi o'quv kurslari o'rtaida uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ta'lif jarayoni ham maqsadga muvofiq ravishda boshqariladigan tizim hisoblanadi. Har qanday tizimni maqsadga muvofiq boshqarish esa o'z navbatida, faqat teskari aloqa vositasida

amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida teskari aloqa sifatida talabalarning bilim darajalarini nazorat qilish va baholash qabul qilingan. Mazkur masala ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lib, bu sohada etarlicha ilmiy-uslubiy tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Ta’lim jarayonining yana bir muhim sohasi borki, bu soha ta’lim jarayonini boshqarishni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu masala har bir yangi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarning undan avval o‘zlashtirilgan bilimlar darajasiga bog‘liqligidir. Agar navbatdagi o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarni undan oldingi o‘zlashtirilgan bilimlar asosida prognoz etish masalasi ilmiy-uslubiy jihatdan hal etilsa va amaliyotda qo‘llansa, bu hol, birinchidan, o‘qituvchilar uchun har bir talabaning navbatdagi bilish faoliyatini boshqarishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchidan, har bir talaba o‘zini o‘zi nazorat qilish imkoniga ega bo‘lib, o‘z faolligini oshiradi.

Bugungi kunda mutaxassis tayyorlashda talabalarning turli fanlardan, shu jumladan, pedagogik va kasbiy uslubiyotlar bo‘yicha bilim, iqtidor va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini nazorat qilish muhim o‘rin egallaydi.

To‘g‘ri tashkil etilgan nazorat talabalarni olinayotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va eng asosiysi, ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi. Talabaning o‘quv faoliyatiga ta’sir etishning ikki qirrasi bor. Birinchisi-pedagog qo‘llayotgan usul va metodlar bo‘lsa, ikkinchisi pedagogning faqat shaxsiy xislatlariga bog‘liq bo‘lgan ta’sir etish vositalardan foydalanishdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limning uzlusiz takomillashishida o‘quv-tarbiya jarayonlarining usul va metodlarini yanada mukammallashtirish va talabalar o‘quv faoliyatini boshqarish masalalari uzlusiz echimli muammolar qatoriga kiradi.

Ta’lim jarayonida bilim, iqtidor va ko‘nikmalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o‘rin egallaydi. O‘tkazilgan tajribalarga va o‘quv adabiyotlarida izohlangan ilg‘or uslublarga asoslanib nazoratning mezonи va bajaradigan funktsiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

Nazoratning diagnostik funktsiyasi.

1. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2. Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqini o'stirish funktsiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o'z bilim, iqtidor va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish ehtiyoji uyg'onadi.

3. Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xususiyatlari shakllantiriladi va, eng asosiyasi, rivojlantiriladi. Rivojlanish-aqliy va jismoniy faoliyatning birligida ko'proq namoyon bo'ladi.

4. Nazorat jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydi. O'quv materiali yanada chuqur o'zlashtiriladi, hodisalar o'rtasida yangi bog'lanishlar o'rnatiladi, shu bilan aqliy faoliyat yanada takomillashadi.

5. Nazoratning tarbiyaviy funktsiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobjiy xislatlari shakllanib bormog'i lozim.

6. Nazoratni baholash funktsiyasi. Nazorat natijasida sifat o'zgarishlarining me'yori aniqlanadi.

7. Nazorat – ko'p qirrali murakkab jarayon. Nazorat talabalarda doimo jonli qiziqish, kyunish, ayanch, xursandchilik hislarini uyg'otib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. Yuqorida ko'rsatilgan funktsiyalar bir-biriga uzviy bog'langan holda yuz beradi.

To'g'ri tashkil qilingan o'z-o'zini nazorat esa o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy va tanqidiy yondashish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, yangi predmet o'rganilayotganida bundan oldingi o'quv predmetlarida o'zlashtirilgan bilimlarning darkorligida ko'rindi. Talabalar mustaqil ishlab etishmaydigan bilimlarini to'ldirib borsa yaxshi, ammo o'zini o'zi nazorat qila olmaydigan talabalarning yangi mavzuni o'zlashtirishi ancha murakkab kechadi. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlarida ishlaydigan pedagoglar yangi predmet va yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning yangi dasturni o'zlashtirishga qanchalik tayyorligini aniqlash maqsadida dastlabki nazoratni amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Nazoratning joriy, oraliq, yakuniy kabi 3 ta turi va yozma, og'zaki va test sinovlari hamda turli amalgi shakllari mavjud.

Nazoratning turli testlar orqali amalga oshiriladigan shakli ko'pgina ustunliklarga ega. Pedagog olimlar I.Y.Tursunov va

U.N.Nishonalievlarining ma'lumotlariga qaraganda. testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- talabalar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli talabalar bilimini nazorat qilish mumkin;
- barcha talabalarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;
- test natijalarini o'qituvchi tezlikda tekshirishi mumkin;
- turli guruh talabalari bilimini solishtirib qo'llanayotgan metodning samaradorligini aniqlash mumkin;
- ta'lim jarayonining kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Ko'pgina oliv o'quv yurtlarining talabalari fanlarni mustaqil o'zlashtirishni kompyuterlar yordamida tashkil qiladi. Kompyuterlar yordamida tashkil qilishning asosiy manbalaridan biri zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv-nazorat dasturlari ta'minotini yaratishdan iborat. Kompyuter zamonaviy texnika vositasi sifatida ular yordamida talabalarning nazariy bilim asoslari bilan quronishiga yordam beradi, o'quv materialini faol o'zlashtirishga, egallangan nazariy bilimlarni amalda tatbiq qila olishga o'rgatadi hamda talabalarning o'zlashtirish darajasini tez va haqqoniy aniqlashda qulay vosita bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonining ko'pgina elementlarini kompyuterlashtirish bo'yicha, ya'ni o'quv materialini bayon qiluvchi o'qitish dasturlari, tasavvur qilish qiyin bo'lgan jarayonlarni namoyish qiluvchi dasturlar, talabalar o'zlashtirish darajalarini har xil usullarda nazorat qiluvchi dasturlarni amaliyotga tatbiq qilish kabi bir qator ishlardan amalga oshirildi. Ammo ta'lim-tarbiya jaaryonida foydalanish uchun mo'ljallangan dasturlar yaratishga va ulardan keng foydalanishga etarlicha e'tibor berilmayapti. Ushbu masalalarni hal qilish maqsadida talabalarning mustaqil ravishda bilim olishi va o'zlashtirish darajalarini aniqlash kompyuter dasturi yaratilgan bo'lib, undan foydalanish natijasida talabalar fanlarni mustaqil tarzda o'zlashtirishlari bilan birga, o'z bilim darajasini aniqlashga ham erishishadi. Dasturdan foydalanish sodda bo'lib, unda xuddi Windows operasion tizimida ishlagandek ishlash imkoniyatiga

ega bo'lamiz. Dastur ishga tushirilgach, u bilan ishlash bo'yicha ko'rsatma oynasi hosil bo'ladi. Ko'rsatma bilan tanishib bo'lgach, talabalar tanlagan ko'rsatmalari bo'yicha bir necha oynalar birin-ketin hosil bo'ladi. Dastur oynalaridan eng asosiyalaridan biri «o'quv dasturi» bo'limi bo'lib, buni tanlash orqali

«Mavzuni tanlash» oynasi hosil qilinadi. Talaba bu oynadan ketma-ket fakultet, kafedra, fan va mavzu nomlarini tanlashi, so'ng oynadagi «mavzuni o'qish» bo'limi ustida «sichqoncha» tugmasini bosishi zarur. Natijada talabadan ismi, sharifi va guruh raqamini kiritish so'raladi. Bu ma'lumotlar kiritilgandan so'ng «davom etamiz» ko'rsatmasi tanlanadi hamda talabadan

«Kerakli mavzuni tanlash» va «Mavzu bo'yicha test sinovi» bo'limlaridan birini tanlashni talab qiluvchi navbatdagi oyna hosil bo'ladi. Talabalar xohishiga ko'ra ushbu bo'limlardan birini tanlashi mumkin.

Dasturda talabaning mavzuni o'zlashtirish darajasini hisobga olishda reyting tizimi e'tiborga olingan bo'lib, agar talaba 55% dan ortiq o'zlashtirishga erishsa, boshqa fanni (yoki mavzuni) tanlashi va o'z bilim darjasini aniqlashi yoki mavzuni qayta o'rganishga va o'z bilim darjasini aniqlashga erishishi mumkin. Talabalarning mavzuni mustaqil o'zlashtirganlik darajasini tahlil qilish uchun «mavzuni tanlash» oynasidagi

«Ma'lumotlar ombori» bo'limi tanlanadi. Natijada «tekshiruv oynasi» hosil bo'ladi va kerakli parolni kiritish so'raladi. Kerakli parol kiritilgandan so'ng, «tekshiruv» oynasidagi «yangi parol kiritish», «Parolni tasdiqlash», «bazani tozalash», «omborga kirish», «hisobotlar» va «chiqish» kabi bo'limlar ishchi holatda bo'ladi. Oynaning «hisobotlar» bo'limi orqali dasturdan mustaqil shug'ullangan talabalar haqidagi ma'lumotlarni olish mumkin. Bu dasturning qulaylik tomoni shundaki, fan bo'yicha tayyorlanaadigan didaktik materiallar (nazariy ma'lumotlar va test savollari) Word dasturida tayyorlangan bo'lsa, uni o'qish imkoniyatiga ega. Ushbu dasturdan ixtiyoriy fanlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Buning uchun fanlar bo'yicha tayyorlangan didaktik materiallar ushbu dastur bazasiga kiritilsa va dasturga bog'lansa, mashg'ulot sifati yanada yaxshilanadi, talabalar kompyuter orqali mustaqil tarzda bilim olishga erishadi.

Xorijda olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘quvchi-talabalar faoliyatini shakllantiradigan reproduktiv-esda qolganlarni tiklashga oid o‘zlashtirishdan tashqariga olib chiqishga harakat bo‘lyapti. Amerikalik ruhshunoslar-R.Gane va L.Briggslar (1979) aniq o‘quv maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan va shu bilan birga mahsuldor tafakkur darajalariga erishishga rag‘batlantiruvchi unsurlarni o‘z ichiga olgan quyidagi dars qurilmasini tuzishni taklif qilishgan, dars o‘tishning bu usuli xususiy o‘quv maqsadlariga erishishga hamda fikrlash (tafakkur)ning mahsuldor darajasini rag‘batlantirishga qaratilgan:

- o‘quvchi-talabalar diqqat-e’tiborini bir joyga jamlash;
- o‘quvchi-talabalarni dars maqsadlaridan xabardor qilish;
- zaruriy bilim va mahoratlarini yodda saqlab qolish ko‘nikmalarini egallah zarurligini uqtirish;
- ma’lum aks-sado qabilida, ya’ni qiziqish uyg‘otadigan va ularni harakat qilishga undaydigan o‘quv materialini taqdim qilish;
- o‘quvchi-talabalarning o‘quv materialidan ta’sirlanib qiladigan aks-sado qabilidagi javoblarini yuzaga keltirish;
- fikrlash faoliyatiga ta’sir qilish, olingan bilimlar va mahoratning mustahkam bo‘lishiga erishish;
- o‘quvchi-talabalar faoliyatini rag‘batlantirish.

Ingliz olimi A. Romishevskiy pedagogik texnologiya metodining quyidagi variantini tavsiya etadi:

1. O‘quvchi-talabalarni kerakli bilimlardan xabardor qilish.
2. Esda qolganlarni tiklashga doir mahoratni shakllantirish.
3. O‘quvchi-talaba bajaradigan ish-harakatni yaxlit holda va qismlari bo‘yicha namoyish etish.
4. Malaka hosil qilishni soddalashtirish (berilgan vazifani bo‘laklarga bo‘lib bajartirish).
5. O‘quvchi-talaba mustaqil bajarayotganidan xabardor bo‘lib, uni rag‘batlantirib borish.
6. Mahsuldor, izlanuvchan davrga o‘tish.
7. Turli xil muammoli vaziyatlarni tashkil etish va yangi hamda o‘ziga xos masalalarni echish.

8. O‘quvchi-talabalar o‘z faoliyatini tahlil qilishlari, o‘qituvchi (pedagog) ham o‘z navbatida ularning vazifani qanday bajarganliklarini guruhda muhokama qilishlari.

Amerikalik ruhshunos olim F.S. Keller oliy o‘quv yurtlari uchun pedagogik texnologiyalarning individuallashtirilgan o‘qitish tizimini taklif qildi.

F.S. Keller rejasining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv materialining mazmunini to‘liq o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, avvalgi bo‘limga qo‘yilgan talablarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oluvchi usulni keyingi bo‘limga o‘tishning bevosita sharti deb qaralishi;

- o‘quvchi-talabalar har qaysisining o‘z o‘zlashtirish sur’atiga mos ravishda alohida-alohida ishlashlari;

- va’z-ma’ruzalardan faqat motiv hosil qilish va o‘quvchi-talabalarни umumiyo‘naltirish maqsadlaridagina foydalanish;

- chop etilgan o‘quv axborotlarini bayon qilish uchun nashr etilgan o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish;

- o‘quv materialining qanday o‘zlashtirilganligini aniqlashda yordamchi - assistant (aspirant, a’lochi talaba)lar kuchidan foydalanish.

Har bir o‘qitilayotgan fan (har qaysi o‘rgatilayotgan bo‘lim yoki bob yuzasi)dan o‘quvchi-talaba ma’lum yo‘l-yo‘riq oladi. Bunda bo‘lim yoki bobning maqsadlari ko‘rsatilishi, o‘quv ishlarining ma’lum turlari tavsiya qilinishi, o‘quvchi-talaba o‘zini-o‘zi tekshirishi va nazorat savollarining ro‘yxati keltirilishi kerak. O‘quvchi-talabalarga o‘quv faoliyatining turlari va ishslash tartibini erkin tanlash imkonini beriladi. O‘zlashtirilgan bob, bo‘lim bo‘yicha imtihondan avval har bir o‘quvchi-talabani yordamchi assistant o‘qituvchi ishlab chiqqan aniq talab va mezonlarga mos holda (materialning to‘liq yoki noto‘liq o‘zlashtirilganligiga qarab «o‘tdi», «o‘tmadi» shaklida sinovdan o‘tkaziladi) baholanadi. Qoniqarsiz baho olishganida yordamchi tavsiyasiga ko‘ra o‘quvchi - talabalarga qo‘srimcha materialni o‘zlashtirilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi. Sinovdan o‘tish keyingi bo‘limni o‘rganish uchun o‘ziga xos ruxsatnomasi bo‘lib xizmat qiladi. Ma’ruzalar soni ko‘p bo‘lmaydi (bir semestrda 6 tagacha), ularga qatnashish majburiy emas.

Kellerning rejası AQSh olıy o‘quv yurtlarida keng tarqalgan, u erda ham tabiiy-ilmiy hamda gumanitar-ijtimoiy fanlar o‘qitishda qo‘llaniladi. 70 - 80-yillarning o‘rtalarida o‘tkazilgan pedagogik tajribalar Keller rejasini o‘qitishning an‘anaviy turlariga qiyoslaganda o‘qituvchi (pedagog) tomonidan o‘quv yurtlariga qo‘yilgan o‘quv vazifalarini amalga oshirishda yuqori samarador ekanligini tasdiqladi.

V.Guzeev Rossiya Federasiyasida asosiy tarkibiy qismlari umuman olganda quyidagilar hisoblanuvchi integral pedagogik texnologiyani ishlab chiqdi va uning asosiy qismlari, umumlashgan holda quyidagilardan iborat:

1. O‘qitishning har bir ixtisos-mutaxassisligi uchun tashxisli va o‘ylanganlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan maqsadlarning ko‘p darajali tizimlari rejalashtirilgan o‘qitishning natijalari ko‘rinishida taqdim etiladi.

2. Ta’lim jarayonining yirik tuzilmasi darslar bloki bilan eng kichik birliklar sifatida birlashtirilib, ta’lim mazmunining katta birligini tashkil etadi.

3. Guruhlar tarkibi va faoliyatida aniq qurilgan dinamika - rivojlanish sur‘ati bilan guruqli o‘rgatish jarayonining muvaffaqiyatlari monitoringi asosida har bir qadami avvalgilarning natijasiga bog‘liq ravishda loyihalashtiriladi.

4. Ta’lim jarayonini boshqarish va o‘qitish jarayoni kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi.

O‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi yuqori darajada bo‘lishiga imkon yaratadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasi.
2. Og‘zaki va yozma nazoratlari va uning afzallikkleri nimalardan iborat?
3. Test nazoratlarining afzalliklarini ko‘rsating?
4. Yevropa mamlakatlarida qanday baholash tizimidan foyladalanadi?
5. B.Blum taksonomiyasi qanday jarayonlarni o‘z ichiga olgan?

## **17-MAVZU. INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

«Innovatsion texnologiya» tushunchasi ta'lismi samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullarini qamrab oladi. «Oliy ta'lismi tizimida innovatsion texnologiyalar» deyilganda turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o'zlashtirish va amalda tatbiq etish jarayonini boshqarish tushuniladi. Oliy ta'lismi muassasalarda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar eng so'nggi innovatsiya namunalarini joriy etish uchun moslashtirilgani professor – o'qituvchi va talaba yoshlarning ijodiy faolligini kuchaytirish uchun xizmat qilmoqda.

Hozirgi davr ta'lismi taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lган tadqiqotlar XX asrning 60-yillarda G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lган. Dastlab innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina, V.A. Slatenin, A.I. Щербаков ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limgagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning "hayoti va faoliyati" uchun zarur bo'lган shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovativ olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lган munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan. Ahborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta'lismi jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e'tibor yanada kuchaytirildi.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lismi tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lismi jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

1. Ta’lim tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini “Ta’lim to’g’risidagi Qonun” hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi misolida ko’rishimiz mumkin. Bu ta’lim tizimini tubdan islox qilishning huquqiy asosi bo’lib xizmat qildi.

2. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga quyidagi:

- a) Gendr pedagogikasi;
- b) Evristik pedagogika;
- v) Majburiy pedagogika;

g) Androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi.

O’qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta’lim mazmunida, o’qitish metodlarida, dars shakli, o’qitish turlari, o’qitish vositalarida ko’rishimiz mumkin. – ta’lim mazmuniga innovatsiya an’anaviy, noan’anaviy va masofaviy o’qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi. – o’qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko’ramiz. Aktiv metodni qo’llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izoxlanadi.

Interaktiv metod esa birlgilikda faol harakat qilishi (o’qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi. – dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandard hamda vortal dars shakllari misolida ko’rishimiz mumkin. – o’qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta’lim, evristik ta’lim, darajalangan ta’lim, integratsiyalangan ta’lim, interfaol ta’lim, informal ta’lim, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim turlari bilan izoxlanadi. – o’qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izoxlaymiz. – o’qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagilarda ko’rishimiz mumkin;

1. Aktiv metod. Bu metod talabalarni dars jarayonida faollashuviga, ma’lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi.

2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o’rganilayotgan mavzu bo’yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo’lishiga olib keladi.

3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qituvchi va talabalarni birqalikdagi faol hatti-harakatlariga asoslanadi. Dars shaklida innovatsiya qo'yidagi shaklda ko'rishimiz mumkin:

a) Standart dars –dars ichidagi struktura o'zgarmaydi.

b) Nostandard dars –dars ichidagi struktura o'zgaradi.

v) Virtual dars - ya'ni masofadan o'qitish. «Innovatsion «iborasiga bir qancha pedagog olimlar o'zlarining turli hil fikrlarini aytib o'tishgan. Jumladan, pedagogika soxasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.I. Prigojin «innovatsiya» deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi.

Tadqiqotchilar A.I. Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: – yangilikning individual mikrosathi – alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi. Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchisi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rmini ikkinchisi egallashi tushuniladi. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi kontseptsiyasini farqlaydilar. Bu kontseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonining sxemasi beriladi va u quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik kontseptsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyat bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobililik asosida almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasining qisqartirish bosqichi. V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng

yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli kontseptsiyasi mualliflari (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar. Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir. Ikkinci shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish bilan bog'liq jarayonlar kiritiladi. Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rinn tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamонавиylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuhan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. R.N. Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'limgan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi. Pedagogik innovatsiyada R.N. Yusufbekova innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi: Birinchi blok – pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shartsharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini

yaratish bosqichlari kiradi. Ikkinci blok – yangini idrok qilish, o’zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o’zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi. Uchinchchi blok – yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya’ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M. Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e’tiborini o’ziga tortadi. U, innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- **faoliyat tuzilmasi** – motiv – maqsad – vazifa – mazmun – shakl – metodlar – metodika komponentlari yig’indisi;
- **sub’ektiv tuzilma** – innovatsion faoliyat sub’ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- **sathiy tuzilma** – innovatsion faoliyat sub’ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari; mazmun tuzilmasi – o’quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.) da yangilikning paydo bo’lishi, ishlab chiqilishi va o’zlashtirilishi;
- **bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi** – yangilikning paydo bo’lishi – ildam o’sish – yetuklik – o’zlashtirish – diffuziya (singib ketish, tarqalish) – boyish (to’yinish) – qoloqlik – inqiroz – irradiatsiya (aldanish) – zamonaviylashtirish;
- **boshqaruv tuzilmasi** – boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o’zaro aloqasi: rejorashtirish – tashkil etish – rahbarlik qilish – nazorat qilish;
- **tashkiliy tuzilma** – diagnostik, oldindan ko’ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiq etuvchi. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir. Quyida uning asosiy qonuniyatlari ko’rsatilgan:

### Mustahkamlash uchun savollar

- 1)Innovatsiya nima?
- 2)Innovatsion faoliyat nima?
- 3)Innovatsion ta’lim texnologiyasini tushuntiring?
- 4)Innovation ta’lim texnologiyalariga misollar keltiring?

## **18-MAVZU. KREATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

Kreativ ta'lif o'quvchi-talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ayniqsa muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta'lilmarning qo'llanishi o'quvchi-talabalarda yaratuvchanlik, bунyodkorlik qobiliyatlarini o'sishiga olib keladi.

An'anaviy shaklda olib boriladigan ta'lif o'quvchi-talabalarga ilgaritdan ma'lum axborot, bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarni berish bilan chegaralanadi.

Lekin kreativ orientasiyadagi darslar jarayonida qabul qiluvchi obyektdan ijodkor (kreativ) subyektga aylanadi. Predmetni (tomoni, mazmuni) o'zlashtiruvchi o'ziga nisbatan yaratuvchanlik bilan yondoshish asosida o'zlashtirib oladi. Har bir faktik materialga ijodiy va tanqidiy qaray oladi. Olinayotgan o'quv materiali unga yangicha qarash, qo'shimcha materiallarni olish, o'zlashtirishga yo'l ochadi. Ko'pincha bunday hollar o'zlashtirishga evristik yondashuvni shakkantiradi.

Bu esa malakali mutaxassislarni kelajakda olgan bilim, ko'nikmasining fakat ijrochisigina bo'lib qolmay, balki o'z kasbiy faoliyatiga ijodkorlik, yaratuvchanlik asosida qarashga olib keladi.

Hozirgi kun ta'lif tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan malakali mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Sir emaski, mamlakat taraqqiyotida texnologiya, xom ashyo, jihozlar, energo resurslar, ekologik o'zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Umuman ta'lif tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, davlat ta'lif standartlari (DTS) takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning zamonaviy texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta'lif, media ta'lifini, ya'ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'lifni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Kreativ ta'lifning maqsad va vazifalari hozirgi mavjud ta'lif asosan ilgaridan mavjud bo'lgan an'anaviy didaktikaga asoslangan, ya'ni o'quv jarayonida ilgaridan fanga ma'lum bo'lgan bilimlarni

o‘qitish, o‘rgatish, etkazish bilan xarakterlanadi. O‘qituvchi ilgaridan ma’lum reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan o‘quvchitalabalarining ta’lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab berishi bilan cheklanadi. Ya’ni, ta’lim ilgaridan ma’lum predmet «avval hunar o‘rgat, keyin shogird o‘z xohishicha nimani ijod qilsa – qilaversin» yo‘sinda ish tutish rasm bo‘lgan.

Bunday holda bilim olish kontsepsiysi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

- bilim bilan tanishish, ma’lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir-biridan ajrata olish;
- bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;
- bilim - malaka, olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish;
- bilim-transformasiya, olgan bilimlarini, keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda qo‘llash (ya’ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.

Agar umumta’lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari birinchi, ikkinchi darajadagi bilimlarni o‘rgatsa, oliy ta’lim uchinchi, oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘rtinchidagi, ya’ni ilmiy izlanish, stajer-tadqiqotchi va doktoranturada bilim berish davom ettiriladi. Undan keyingi ta’lim «beshikdan qabrgacha»., «umr bo‘yi uzluksiz» ta’lim davom ettiriladi.

Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor yaratuvchi shaxsni, malakali mutaxassisni tarbiyalash – fanga ma’lum bo‘lgan bilimlarning o‘zinigina o‘zlashtirish bilan kifoyalanmay, olingan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Bunga yorkin misol, ulug‘allomalarimiz Muso al-Xorazmiy matematika fanining asoschisi, Al-Farg‘oniyning turli fanlarga tegishli buyuk kashfiyotlari, Al-Forobiyning (70 dan ortiq tillarda erkin so‘zlashgan), tovush tezligi, chastotasi, moddiyat, issiqqlik, harakat, optikaga oid kashfiyotlari, Abu Rayhon Beruniyning (qomusiy olim) mineralogiya, geodeziya, jo‘g‘rofiya, falaqiyot (astronomiya), tarix, tilshunoslik, falsafa va boshqa fanlar rivojiga qo‘sghan katta xissasi, Abu Ali Ibn Sinoning «Tib qonunlari» va boshqa asarlari, Ulug‘bekning «Ziji Ko‘ragoniy», «Tarixi arba ulus» («to‘rt ulus tarixi») asarlari hozirda ham mamlakatimizda va ko‘plab Evropa mamlakatlarida o‘qib o‘rganilmoqda. Ularning kashfiyotlari butun

jahon xalqlarining umummulkiga aylanmoqda. Bu shundan darak beradiki, allomalarimiz o‘z davrida mavjud bilimlarni chuqur va puxta o‘rganib, o‘zlashtirib qolmay, ular o‘z ishlariga izlanuvchanlik va ijodkorlik bilan yondoshib, juda ko‘plab kashfiyotlar qilganlar. Shuning uchun yangilangan didaktikaning vazifasi faqatgina fanga ma’lum bo‘lgan bilimlarning o‘zini o‘rgatish, uni takrorlash bilan cheklanmay, ularning ijodiy, tanqidiy va yaratuvchanlik ruhida ish yuritishlariga zamin yaratib bormoqdan iborat.

Hozirgi zamон ta’limining bosh va asosiy vazifasi – o‘quvchi - talabalarning intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmog‘i kerak.

Ma’lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko‘ra) olti yoshgacha bo‘lgan bolalar 40 % iste’dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo‘lar ekan. Agar shu davrda u bilan olib borilayotgan ta’lim jarayoniga faqat an’anaviy ta’lim asosida yondoshilsa, undagi ijodkorlikka moyilliк so‘nib boradi.

O‘quv-biluv ijodkorlikka yo‘naltirilsa – uning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi. Masalan:

1. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina obyektning o‘zi bilangina cheklanmay, ya’ni subyekt (o‘quvchi-talaba)ning ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab ish tutilsa, ijobiy natijalar beradi, ya’ni ijodkorlikka yoshlikdan o‘rgatish mumkin va zarur;

2. Umuman ulug‘kashfiyot namoyondalari fikrlash algoritmi yaxshi o‘zlashtirganlar, chuqur, atroficha bilimga ega bo‘lganlar. Ular asosan evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalarini namoyon qilganlar.

Create – lotincha so‘z bo‘lib – yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma’noni beradi.

Yaratuvchanlik va ijodkorlik metodlarini yaratishni, o‘rgatishni kreativ pedagogika o‘rgatadi.

Agar ta’lim jarayoni o‘quvchi-talabalar faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyiҳalar jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo‘nalishga ega bo‘lib, o‘quvchi-talabalarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari etaklaydi.

Ijodkorlik va madaniyatatlilik o'quv faoliyatida doimiy tizimli kechsa, u ijodkorlik sari boradi. Shuning uchun ham o'quv jarayonidan tashqari vaqtida «ilmiy-texnik ijodkorlik asoslari» yoki «texnik loyihalash ijodiy asoslari» va boshqa ilmiy izlanish yo'nalishidagi to'garaklar tashkil etilsa, o'quvchi-talabalarning loyihalash ijodkorligi oshib boradi. Shuning uchun ham o'quvchi-talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli va maqsadli yo'naltirish, ularning kelgusida kasbiy maxoratli, ijodkor bo'lib etishishiga sabab bo'ladi. Tarixan ta'lim ikki madaniyat yo'nalishida rivojlangan, taraqqiy etgan. Birinchisi, gumanitar – badiiy yo'nalishda bo'lsa, ikkinchisi ilmiy va texnika yo'nalishi. Shu sababli texnik ijodiy rivojlanish kontsepsiyasida texnika ta'limini insonparvarlashtirish va nazariy muhitda rivojlanishning asosi qilib olingan. Aniq fanlarning ham rivojlanishini texnika taraqqiyoti va axborot-informasion texnologiyalar bilan chambarchas bog'lash yaxshi natijalar bermoqda. Ta'lim bilan bog'liq har qanday faoliyat loyihalashtirish asosida kechsa:

3. Dizayn bilan bog'lashda yaxshi natijalarga olib keladi. Shuning uchun kreativ pedagogika shu loyihalashtirishga asoslangan bo'ladi. Hozir texnik jihatdan katta o'sish, o'zgarishlar davri;

4. O'z navbatida ta'lim jarayoni oldiga vazifalar qo'ymoqda, ta'lim oluvchi olgan bilimlarini o'zlashtirib, ko'paytirib borishdan tashqari, o'quv-biluv jarayonida qo'shimcha bilimlar berish orqali ijodiy yondashuvga moyilliklari ortib boradi;

5. Ta'limni olib boruvchi - o'quv jarayonini olib boruvchi, o'quvchi - talabalar o'quv jarayonining faol ishtirokchisi o'kuv-biluv mas'uliyatini o'z bo'yninga oluvchi hamdir;

6. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, innovasiyalar, ilg'or texnologiyalar, yangi o'quv obyektlari o'quvchi-talabalarning tafakkurini abstrakt fikrlash, ijodiy fikrlar yuritishga olib keladi.

7. O'quv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish o'quvchi - talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini oshiradi. Ularda motivasiyaning kuchayishi orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish asosida o'z bilimini boyitib borish ehtiyojini tug'diradi. Xullas, o'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun:

1. O'quv jarayoni o'kuv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchi-talabalarni izlanishga,

ijodkorlikka yo‘naltiruvchi material asosida ularni o‘z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2. O‘quv jarayonini ham shunday o‘zgartirish kerakki, o‘quvchi-talabalar o‘quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o‘quv materiali o‘sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3. O‘quv materillariga yangi qo‘shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o‘quvchi-talabalarning ijodiy fikrlashga bo‘lgan qiziqishini oshirish kerak.

Umuman, o‘quvchi-talabalar faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihami echishda sermahsul jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalar mustaqil ravishda masalaning echimiga intilsa, o‘quvchi muammoli vaziyatni o‘z vaqtida tashkil etsa, o‘quvchi-talabalarda sekin-asta ko‘nikma va malaka shakllana boradi.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Kreativ ta’limning boshqa ta’limlardan nima farqi bor?
2. Kreativ ta’limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Kreativ so‘zining ma’nosi nima?
4. Kreativ ta’limdan qaysi fanlar foydalansa bo‘ladi.
5. O‘quv jarayonini kreativ yo‘naltirishda olib borish uchun nimalar qilish kerak?

## **19-MAVZU. LOYIHALI TA'LIM**

**Loyiha ta'lism texnologiyalarining didaktik mohiyati.** Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

**Loyihalash** – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalahtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

**Loyihalash “g'oya–maqsad–kutiladigan natija–taxmin qilish–bashoratlash – rejalahtirish”** tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog'oz, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o'quv materiali mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

**Ta'lism jarayonini loyihalash** – alohida olingen ta'lism jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

**Ta'lism jarayonini loyihalash qonuniyatları:**

- ta'lism jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy

ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;

2) ta’limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog‘liq holda tanlanadi;

- loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

- loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o‘rtasidagi) ko‘lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog‘liq.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani to‘g‘ri belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to‘g‘ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishning asosiy bosqichi – o‘quv jarayonini loyhalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- 1) Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
- 2) Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
- 3) Ta’lim resurslarini tanlash.
- 4) O‘qitish va o‘qish strategiyasini belgilash.
- 5) Dars turini tanlash.
- 6) Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

**Dars maqsadi va natijasini belgilash** – o‘qitish va o‘qish jarayonlarining eng muhim omili bo‘lib, ta’lim jarayonida aynan ular yetakchi o‘rin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, darsning maqsadi o‘qituvchi tomonidan talabaga qanday bilim, ko‘nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki talabalar tomonidan darsda qanday bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. O‘z mohiyatiga ko‘ra darsning maqsadi o‘qituvchi va talabalarning umumiy natijalarga qarab harakatlanishlarini belgilaydi. Shu sababli darsning maqsadi tashxisli ifodalanishi lozim. Ya’ni dars maqsadi aniq bo‘lishi kerak.

Dars maqsadining aniq bo‘lishiga erishish uchun o‘qituvchidan quyidagilarga e’tibor qaratish talab etiladi:

1)darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma’lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta’lim maqsadiga erishishni to‘la ta’minlay olishi;


2)o‘qitish jarayonining yakuni bo‘yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to‘g‘risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko‘ra aytish mumkinki, ta’lim maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta’lim natijalari belgilanadi.

Ta’lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o‘qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o‘qitish va o‘qish jarayoni, natija qo‘yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.


**Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish** – darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o‘quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko‘ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**Ta’lim resurslarini tanlash** – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o‘qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta’lim vositalarining o‘rinli tanlanilishini, ulardan o‘quv jarayonida to‘g‘ri foydalanishni ko‘zda tutadi.O‘qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta’lim vositalari sirasidan quyidagilar o‘rin oladi:



17-rasm

**O'quv loyihalarini yaratishning ilmiy nazariy asoslari.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv loyihalari yaratishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida o'quv loyihalar modeli ishlab chiqdik:



**18-rasm.** O'quv loyihalarini yaratishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish modeli


O'quv loyihalarini tayyorlashga o'rgatish jarayoni ilmiy asoslangan dastur va darsliklar mazmunida tizimli ifodalanishi kerak. Bunda fanlararo uzviylikni ta'minlash haqidagi tushunchalar bo'lajak o'qituvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariiga qarab quyidagicha moslanishi talabga yaqinroq bo'lar edi:

- o'quv loyihalarini tayyorlashga o'rgatish mashg'ulotlarini ko'rgazmali qurollar asosida tashkil etilsa;
- talabalarda o'quv loyihalarini ishlab chiqishga o'rgatishning psixologik va ma'naviy qiziqishlari shakllantirilsa, bo'lajak o'qituvchilarda fanlarga bo'lgan moyillik va qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari amaliy jihatdan o'z isbotini topgan bo'ladi.

Loyha tayyorlashga o'rgatishning mazmuni Davlat ta'lim standartlariga mos kelishi kerak. Shundagina bo'lajak o'qituvchilarning darslarda turli xil usullar ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishni

shakllantirish mumkin. *O'quv loyihasi – bu ta'lim-tarbiya jarayonini to'laqonli ravishda davlat ta'lim standartlari, shuningdek, ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy talablar asosida tashkil etish uchun ishlab chiqilgan ma'lum meyoriy-huquqiy hujjat (o'quv rejalar, rejalar, dasturlar, jadvallar, chizmalar, yo'riqnomalar, talablar, tarmoq standartlar va hok.)dir.*

O'quv loyihalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda asosiy vazifa yoshlarning - intellektual rivojlanishini o'rganishga qaratilar ekan, uslubiy holatlarga e'tibor qilish lozim bo'ladi. Malakaviy ishimz jarayonida ushbu holatni tahlil qilish quyidagi ketma-ketlik asosida olib borilishini taklif etdik:



**19-rasm**

O'quv loyihalari ishlab chiqishga bo'lajak o'quvchilarni o'rgatishda ijtimoiy fanlardan ta'lim berish jarayonida beriladigan bilimlar asosan tezkorlik bilan amalga oshiriladi va ular quyidagilardan iborat:

- Bo'lajak o'quvchilarda hosil bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar ketma-ket, izchil shakllantiriladi.

- Bo'lajak o'quvchilarning dastlabki nazariy va amaliy bilimlarni egallashiga ko'maklashiladi.

3. Bo'lajak o'quvchilarga kundalik sharoitda murakkab bo'lgan ilmiy so'zlar, jumlalar, tushunchalarni tushunishlari va ularni qo'llash usulidan xabardor bo'lishlari lozimligi tushuntiriladi.

- Ilmiy va o'quv loyihalariga qiziqtirishning psixologik va pedagogik xususiyatlari biron-bir sohaga yo'naltirilgan holda ishlab chiqiladi.

- Bo'lajak o'quvchilarning faoliyati uchun zarur bo'lgan tadbirdirlarni

o'tkazish esa ilmiy-nazariy holatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun an'anaviy ravishda o'quv

rejasidagi ijtimoiy, tabiiy yoki aniq fanlarni puxta o'zlashtirishda ta'lim va tarbiya faoliyatini qo'shib olib borishning pedagogik asoslarini ta'minlashda didaktik tamoyillardan foydalaniladi.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash, ularda dastlabki kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish yo'lida faoliyat yurituvchi oliy ta'limning pedagogik jamoasi tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni o'quv loyihalari yaratishga o'rgatish jarayonini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish talab qilinadi.

Xususan, bo'lajak o'qituvchilarda o'quv loyihalari yaratishga bo'lgan ishlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali tashkil etilishi quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

- bo'lajak o'qituvchilarda shaxs sifatida shakllanishlari, ilmiy dunyoqarashlarini boyitish va yanada rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lishlariga erishiladi;

- ularning turli fanlar yo'nalishida bilim olishlarining asoslari ta'minlanadi;

- bo'lajak o'qituvchilarda turli fanlarga, pedagog jamoaga, xususan, ustozlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, hayotlari va faoliyatları uchun zarur bo'lgan ijtimoiy subyektlarni e'zozlash va ularni ko'paytirish istagi uyg'onadi;

- bo'lajak o'qituvchilar ning ertangi kunga, ilm-fanga qat'iy ishonch bilan qarash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi;

-kasbiy jihatdan kamolga yetishish yo‘lida mutaxassislik bilimlarini chuqur o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarini uslubiy jihatdan boyitish hamda malakalarni shakllantirish, shuningdek, yaratuvchilik talabalar faoliyatining muhim yo‘nalishiga aylanadi.

Pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiyaga oid adabiyotlar tahlilini o‘zkazar ekanmiz, “o‘quv loyihalari” iborasiga nisbatan turlituman tariflar mavjudligini ko‘rsatadi.


Bu ta’riflar obyektiv mavjud bo‘lgan ilmiy-uslubiy hodisani mushohada va idrok qilish, uning eng muhim xususiyatlarini his qilish hamda ushbu mavzusi yuzasidan chop etilgan qator adabiyotlarni tahlil qilish natijasida yuzaga kelganligini bilish mumkin.

Manbalarni o‘rganish “ta’lim loyihasi” tushunchasi ilk bor nemis olimi V.fon Gumboldt tomonidan qo‘llanilganligidan dalolat berdi. Olimning fikriga ko‘ra jahon fanlar tarixida ilmiy izlanishlarni anglashga bo‘lgan intilishni ifodalovchi sayi-harakatlar va ijodiy qobiliyatni o‘zida namoyon etuvchi tartiblar natijasida loyihalar shakllangan.

Ushbu jarayonda, qolaversa, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zi bajarayotgan ishga qiziqish, ongli munosabat, ko‘nikma, malaka hosil qilishda mas’uliyatni his etish kabi sifatlar orqali til o‘rgatishda uslubiy jihatlarni ham hisobga olish, tashkil etish hamda ilmiy talablarga tegishli e’tibor bilan yondashish muhimdir.

Hali borliqni to‘la anglab yetmagan, muayyan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lman yoshlarni loyihalar tayyorlash jarayonlariga to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. Shu sababli uslubiy ishlarni tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda olib borish taqozo etiladi. Shu bois, mazkur muammolar ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Insonning jamiyatda ma’naviy muammolar bilan shug‘ullanishidan oldin uning moddiy qiziqishlari, ehtiyoji ta’minlangan bo‘lishi zarur. Insonni o‘rab turgan muhit, moddiy hayot uning ongida aks etadi. Ma’naviy hayot, ma’naviy boyliklar qay darajada taraqqiy etsa, jamiyatning moddiy rivojlanishi va taraqqiyot darajasi shu qadar kuchayadi, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyatlar yuzaga keladi va ma’rifiy savodxonlikka keng imkoniyatlar yaratiladi.

## **Umumiy o‘quv loyihalari yaratishda ilmiy xususiyatlarni belgilovchi mezonlar mavjud bo‘lishini ta’minlovchi omillar**



Shundan kelib chiqib ta’kidlash barcha bosqichlarida, bo‘lajak o‘qituvchilarini joizki, ta’lim tizimining axloqli va ma’rifatli qilib voyaga yetkazishda o‘quv loyihalari ishlab chiqishni o‘rgatishning ijtimoiy roli alohida ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik zarur.

Shu bilan birga, o‘quv loyihalari yaratish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ravishda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakkantirishning ilmiy-nazariy asoslari, mazkur jarayonda turli xil o‘quv-teknika vositalaridan foydalanishning mexanizmlari, ta’lim subyekti bilan uning obyekti o‘rtasidagi faol munosabatlari hozirgi vaqtgacha maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmaganini qayd etishimiz zarur bo‘ladi.

Inson turmushi jarayonida moddiy ehtiyojlar qanchalik muhim bo‘lsa, bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj undan ham kuchliroqdir.

Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quv loyihalari tayyorlashni o‘rgatish ijtimoiy voqelik bilan birgalikda olib borish yoki mazkur sohada barcha ishlarni muvofiqlashtirgan holda tashkil etish jamiyatning ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga sabab bo‘ladi, desak yanglishmagan bo‘lamiz.

O‘quv loyihalari yaratishda ba’zi uslubiy mexanizm va vositalarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir, bunda, masalan:

– birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv loyihalari yaratishga oid ko‘nikmalarining didaktik asoslarini qayta ko‘rib chiqishni tashkil etish;

– ikkinchidan, o‘quv loyihalari yaratishga oid ko‘nikmalarini shakllantiruvchi mazmun, vosita va usullardan foydalanishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ma’lum elementlarini ularga qo‘sish;

– uchinchidan, o‘quv loyihalari yaratish ishlarini uslubiy jihatdan rivojlantiruvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi.

– turtinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quv loyihalari yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining mazmunini tahlil qilishda o‘qitishning ochiq, innovatsion ahamiyat kasb etishini ta’minlashga hizmat qiladigan yangi omillarga tavanish;

– beshinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv loyihalari yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni natijasida hosil bo‘lgan ko‘nikmalarning sifatini aniq uslubiy talablar asosida baholash;

– oltinchidan, o‘quv jarayonining talabalarda o‘quv loyihalari yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradigan uslubiy-didaktik asoslarni bilish o‘qituvchi pedagogik mahoratini boyitishga hizmat qilishini yodda tutish.

Demak, o‘quv loyihalari yaratish tizimini solishtirish, o‘quv loyihalari ishlab chiqishni o‘rganishning dastlabki bosqichini mustahkam egallash maqsad yo‘lidagi birinchi qadam bo‘lmog‘i zarur. Bu muammoning ilmiy jihatdan ishlab chiqilmaganligi esa bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quv loyihalarini ijtimoiy fanlar materiallariga qiyoslab o‘rgatish bugungi kunda dolzarb bo‘lgan uslubiy masalalar qatoriga kiradi.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Loyerha va loyihalash nima?
2. Ta’lim jarayonini loyihalash necha bosqichda tashkil etiladi?
3. Texnologik pasport va texnologik xaritaning didaktik ahamiyati nimada ko‘rinadi?
4. Loyerhali ta’lim texnologiyalarining qanday imkoniyatlarga ega?

## Tayanch atamalar

**An'anaviy ta'lim** – XVII asrda Ya.P.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyoning aksariyat maktablarida eng ko‘p qo‘llanayotgan sinf-dars tizimi.

**Aql** – inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqyelikka bo‘lgan munosabatlarini boshqarib turadigan faoliyati.

**Baholash** – ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materiallari o‘zlashtirilganligini, bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lganligini tekshirish va baho berish ta’lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Baholash** – ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

**Bilim** – borliqning, bilish jarayonining amalda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat (o‘xshashlik) aks etishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). Kundalik bilim, sog‘lom fikr va amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi.

**Bilish** – obyektiv borliqni ongda aks ettirishning oliy darajasidagi shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni.

**Bilish faoliyati** – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

**Bilish jarayoni** – qabul qilish, eshitish, his qilish, tushunish, anglash, umumlashtirish, mustahkamlash, qo‘llash jarayoni.

**Binar dars** – ikki ta’lim beruvchi shaxs (mas: pedagog-professor va yordamchi assistent, nazariyachi va amaliyotchi) tomonidan olib boriladigan dars.

**Blum taksonomiysi** – (taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). Blum tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratadi: bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez, baholash.

**Boshqarish** – jarayonni reja asosida tashkil etish, amalga oshirish, qaror qabul qilish, nazorat qilish, tartibga solish, tahlil qilish va yakun yasashga qaratilgan faoliyat, ta’lim oluvchilarining o‘quvfaoliyatini

faollashtirish maqsadlariga erishish dasturini ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan pedagogik faoliyat.

**Vazifa** – maqsadni amalga oshirish shakllari va bosqichlarining aniqlashtirilishi.

**Vosita** – o‘quvjarayonini olib borishda yordam beruvchi, bunga o‘qituvchi nutqi, muloqoti, uning mahorati, darsliklar, qo‘llanmalar, didaktik tarqatma materiallar, sinf jihoz, AKT va boshqalar kiradi.

**Guruhiy ta’lim** – o‘qituvchi bir necha o‘quvchilar guruhi bilan ishlaydigan ta’lim shakli. Guruhlar o‘quvchilar soniga qarab kichik (3-6 o‘quvchi), o‘rtta (7-15 o‘quvchi), katta (15 dan ortiq o‘quvchi) guruhlarga bo‘linadi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta’lim oluvchilarning yoshiga, ta’lim yo‘nalishiga, ta’lim topshiriqlari va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo‘llash jarayonida yakka va just bo‘lib ishslash, frontal shakllari ham amalga oshiriladi.

**Davlat ta’lim standarti** – uzlusiz ta’limning muayyan bosqichida ta’limning mazmun-mohiyatiga, kadrlar tayyorlash sifati va darajasiga davlat tomonidan qo‘yiladigan minimum talablarni belgilaydigan hujjat, o‘quvyuklamalarining zaruriy hajmi.

**Dars** – aniq maqsadni ko‘zlab, belgilangan vaqtida ma’lum xususiyatlariga ko‘ra birlashtirilgan ta’lim oluvchilar guruhi bilan o‘qituvchirahbarligida olib boriladigan asosiy o‘quvshakli; ta’lim maqsadlarini amalga oshirish, o‘qitishshakllari, metodlari va vositalari yordamida o‘quvdasturida belgilangan mavzuning o‘zlashtirilishini ta’minalash jarayoni.

**Didaktika** – pedagogikaning tarmog‘i, ta’lim-tarbiya maqsadlari, metodologiyasi, mazmuni, qonuniyatları, tamoyillarini o‘rganish va ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

**Forum** – saytda muloqot yuritish shaklidir. Forumda axborot beruvchining o‘z muammolari bo‘lib, u axborot mazmunini belgilaydi. Forumlar ma’lum mavzulariga ega bo‘ladi. Unda ishtiroy etuvchi ma’lum tomon mazmunini ochishga harakat qiladi. Forum mazmuni, mavzulari internetda uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

**Elektron forumlar** – Internet va elektron pochtalardan foydalanib o‘tkaziladigan seminaridir.

**Ijodkorlik** – insonning ongli, ma'lum maqsadga qaratilgan, yaratuvchanlikka yo'nalgan faoliyati.

**Innovatsiya** – yangilik kiritish, o'zgarishlarni joriy etish jarayoni va faoliyati.

**Innovator** – ta'lim mazmuni va o'qitishjarayonida yangiliklarni joriy qiluvchi shaxs.

**Integrativ** – (yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

**Intellekt** – insonning shaxsiy-individual sifati, bilish, tinimsiz izlanish faoliyati, fikrashi, aqliy mushohadasi, tug‘ma va orttirilgan qobiliyatlari to‘plami.

**Interfaol mashg‘ulot** – o‘qituvchiva ta’lim oluvchi o‘zaro faol ishtirok etadigan jarayon (o‘zaro faol harakatda, hamkorlikda kechadi).

**Interfaol metod** – ta’lim jarayonida o‘qituvchihamda ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro faollikni amalga oshirish orqali o‘zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradigan usul.

**Iste’dod** – har tomonlama rivojlangan, kuchli, noyob va takrorlanmas qobiliyatga ega bo‘lgan shaxs.

**Kasb** - muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb-hunar sirlarini egallashga umumiy hamda maxsus ma'lumot, amaliy ish-harakat usullarini o‘zlashtirish orqali erishiladi.

**Kasbiy bilmndonlik** – muayyan faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

**Kasbiy mahorat** – bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallaganligi, shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo‘yicharaqobatbardoshlik darajasini aks ettirishida namoyon bo‘ladi. Kasbiy mahorat yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o‘zlashtirishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olish kabi kasbiy sifatlari bilan belgilanadi.

**Kasbiy-pedagogik muloqot** – pedagog va talabaning o‘zaro ijtimoiy-psixologik aloqasi tizimi bo‘lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta’sir o’tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o‘zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

**Kasbiy tayyorgarlik** – bo‘lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

**Kafolat** – shaxslarga yuklatilgan vazifalarni yaratilgan vositalar, yo‘llar, shart-sharoitlar asosida davlat talablariga (standartlari) mos bajarilishini to‘la ta’minlash.

**Keys texnologiyasi** – ta’lim oluvchilarning amaliy vaziyatlarni o‘rganishi hamda tahlil qilishi orqali mustaqil qaror qabul qilishi, muammolar yechimini topishga qaratilgan, o‘qituvchikuzatuvchi va yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradigan ta’lim texnologiyasi.

**Kognitiv** – bilishga oid, bilish jarayoni.

**Kreativlik** – shaxsning ijodiy fikrashi, betakror qadriyatlar yarata olish qobiliyati, vaziyatga o‘zgacha va nostandard yondoshuvi, tadqiqotga moyilligi.

**Kuzatish** – biror pedagogik hodisa bo‘yichaaniq faktik material olish maqsadini ko‘zlagan idrok etishning o‘ziga xos shakli.

**Ko‘nikma** – egallangan bilimlar asosida ongli faoliyat (harakat) ni tez, tejamli, to‘g‘ri, kam jismoniy va ruhiy kuch sarflagan holda bajarish. Harakat turlari bo‘yicha 3 turga bo‘linadi: harakat (psixomotor), sensor-hissiy (affektiv), aqliy-bilish (kognitiv) ko‘nikmalarga.

**Ko‘nikma** – o‘zlashtirilgan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq xatti-harakatlarda, muayyan tayyorgarlikda ifodalangan ongli faoliyat. Ko‘nikmaning fiziologik asosi bosh miya katta yarim sharlari po‘slog‘ida hosil bo‘ladigan murakkab refleks. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar ixtiyoriy diqqat bilan bajariladi. Keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Ko‘nikmalar muntazam mashq qilish va takrorlash orqali zarur darajada shakllanadi.

**Laboratoriya ishi** – maxsus jihozlangan sharoitda asbob-uskunalar va boshqa texnik moslamalardan foydalangan holda talabalar bilan tajribalar o‘tkazish, biror hodisani maxsus jihozlar yordamida o‘rganish.

**Mazmun** – ilmiy bilimlar yig‘indisi, amalda qo‘llash uchun beriladigan ko‘nikma va malakalar jarayonida o‘quvchilar anglash, fikrlash, o‘ylash, mulohaza yuritish orqali amalga oshiriladi.

**Malaka** – egallangan bilim va shakllangan ko‘nikmalar asosida avtomatlashgan, muayyan usul bilan yuqori darajada bajariladigan harakat, mashq qilish va tajriba hosisasi.

**Malaka** – shaxsning ma’lum kasbga yaroqlilik, tayyorlarlik darajasi, shu kasbda ishlashi uchun zarur bilim, ko‘nikmalar yig‘indisi. Kasbiy bilim va ma’lumotlarning tez ko‘payib borayotgani hamda hayot tempining jadalligi ilgari o‘zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmovchilik qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to‘ldirib boriladi. Bu jarayon uzviy va uzluksiz davom etgandagina zamon talablari darajasidagi malakani kafolatlaydi.

**Malaka tavsifnomasi** – mutaxassisning nazariy va amaliy bilimlariga qo‘yiladigan umumiylab talablar.

**Ma’ruza** – odatda oliv o‘quvyurtida biror fan mazmunini og‘zaki va ko‘rgazmali bayon qilishga asoslangan o‘quvmashg‘uloti turi, jarayoni va metodi.

**Masofaviy ta’lim** – masofalararo radio, televidenie, kompyuter, internet vositalari asosidagi ta’lim jarayoni.

**Maqsad** – o‘qitishdan ko‘zda tutilgan natijalarga erishishni amalga oshiruvchi mo‘ljal, aniq yo‘nalishni belgilab beruvchi yetakchi g‘oya.

**Ta’limiy maqsad** – ta’lim oluvchilarni muayyan fanga oid tushuncha, bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning ta’lim mazmunini o‘zlashtirishi hamda amaliyatga tatbiq qila olishini ko‘zda tutish. Tarbiyaviy maqsad – ta’lim oluvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishi orqali ularda odob-axloq qoidalariga mos keladigan e’tiqod, axloqiy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, mas’uliyat, maqsad, ideal, qiziqish, e’tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirishni ko‘zlash. **Rivojlantiruvchi maqsad** – o‘qitish jarayoni ta’sirida ta’lim oluvchi shaxsini intellektual, irodaviy, emotSIONAL va jismoniy jihatdan rivojlantirish, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, mustaqil fikrlash va muloqot malakalarini shakllantirishni nazarda tutish.

**Mahorat** – o‘zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha kasbiy amaliy harakatlarni kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

**Mediata’lim** – ta’lim oluvchilar tomonidan ommaviy axborot vositalari – matbuot, televideonie, radio, internet, adabiyot, san’at, kino, teatr ma’lumotlarini o‘zlashtirish, tahlil qilish va bilim olishga asoslanadi.

**Metod** – grekcha so‘z bo‘lib, “yo‘l”, “usul”, “axloq” ma’nolarini bildiradi. Tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish faoliyati, harakat yo‘li, usuli, uslubi, tarzi yoki qiyofasi, shakli, ko‘rinishi.

**Metodist** – ta’lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis.Dasturlar, metodikalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida metodik maslahat beruvchi shaxs.

**Metodik** – metodikaga tegishli, qat’iy ketma-ketlikka, oldindan ishlab chiqilgan rejaga, tizimga aniq rioya qilish.

**Metodika** – biror jarayon yoki faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish metodlari, yo‘llari majmuasi, ma’lum o‘quvpredmetini o‘qitishqonuniyatları.

**Metodologiya** – bilishning ilmiy metodi haqidagi, biror fanda qo‘llaniladigan metodlar majmuasiga oid ta’limot.

**Moderator** – ta’lim mazmunini yaratuvchisi, modullarni ishlab chiquvchi shaxs.

**Moderator** – ma’muriy huquqga ega bo‘lgan forum ta’limi qatnashchisi, boshqaruvchi, maslahatchi, yo‘naltiruvchi, faollashtiruvchi, ta’lim uchun sharoit yaratuvchi.

**Motiv** – lotincha so‘z bo‘lib, “turtki”, “harakatga keltiruvchi, undovchi kuch”, “sabab”, “xohish”, “mayl” kabi ma’nolarni bildiradi, shaxsning o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun ichki uyg‘onishi, maqsadiga erishish uchun aniq maqsad sari intilishi.

**Modulli o‘qitish.** U modullar bo‘yicha tuzilgan o‘quv programmalari asosida o‘qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to‘la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o‘zida barcha ehtimol ko‘rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so‘z bilan berilishi mumkin.

**Moderator** – forumning tashkilotchilik, ya’ni administratorlik huquqiga ega shaxs – u ma’lum tajribaga ega, muhokama etilayotgan mavzu mazmunini chuqur, puxta o’zlashtirib olgan shaxs.

**Motivatsiya** – motivlar yig‘indisi, maqsadga erishish uchun qo‘zg‘ata olish, harakatga keltira olish faoliyati.

**Muammoli ta’lim** – ta’lim jarayonida o‘quvchilar oldiga o‘quvmuammosini qo‘yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg‘ulot davomida uning yechimini topish.

**Muammoli ta’lim texnologiyalari** – o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlash jarayoni muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qibiliyatlarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

**Muammoli vaziyat** – bu insonning intellektual qiyinchilikda paydo bo‘lgan vaziyatdan chiqish jarayoni, bunda ma’lum va noma’lum faktlarga suyanib, maqsad sari intilish, vaziyatdan chiq olishga intilish, qiziqishlar orqali ijodkorlikka, mahsulot olishga yo‘l ochadi.

**Multimedia** – ko‘p axborotli ma’nosini bildirib, qo‘llanmalar, ya’ni ma’lumotlar 3-4-o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida beriladigan o‘quv vositasi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tilganda multimedia vositalaridan foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi.

**Mustaqil ta’lim** – o‘z-o‘zini o‘qitish, shaxsiy dastur asosida ta’lim olish.

**Natija** – ta’lim jarayoni yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha, belgilangan ta’limiy maqsadni amalga oshirishda hosil qilingan tushuncha, egallangan bilim, shakllangan ko‘nikma va malakalarda ifodalananadigan pirovard mahsul.

**Obyekt** – yunoncha so‘z bo‘lib, 1 – bizdan tashqarida mavjud va bizning ongimizga bog‘liq bo‘lmagan tashqi olam bo‘lib, bilishning, shuningdek, subyektning amaliy ta’sir predmeti hisoblanadi, 2 - qaysidir faoliyatga yo‘naltirilgan hodisa.

**Pedagog** – tarbiyachi, o‘qituvchi, dars beruvchi, rivojlantiruvchi shaxs.

**Pedagogik jarayon** – ta’lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va talabalarning maqsadli o‘zaro munosabatlari.

**Pedagogik innovatsiya** – 1) pedagogik faoliyatga uning samaradorligini oshirish maqsadida yangiliklarning kiritilishi, ta’lim-tarbiyaning mazmun va texnologiyalaridagi o‘zgarishlar; 2) Ta’lim faoliyatida bola shaxsini rivojlantirish jarayoniga oid madaniy an’analarga asoslanib ta’lim jarayoniga yangicha qarash va yondashuvlar.

**Pedagogik mahorat** – pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi o‘qituvchining kasbiy sifatlari va shaxsiy xususiyatlari majmui.

**Pedagogik texnologiya** – o‘qituvchimahoratiga bog‘liqbo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan ta’lim oluvchi shaxsjini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.P.Bespalko)

**Pedagogik texnologiya** – bu o‘qituvchi(tarbiyachi)ning o‘qitish(tarbiya) vositalari yordamida talim oluvchilarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir. (N.Saydaxmedov)

**Pedagogik texnologiya** – bu o‘qitishga o‘ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi. (B.L.Farberman)

**Pedagogik texnologiya** tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik

va boshqa nuqtai nazarlardan yondashish mumkin.

**Pedagogik texnologiya** – axborotlarni o‘zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagи yangi ma’no-mazmunnlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog‘liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o‘rgatish jarayonidan iborat.

**Pedagogik texnologiya** – ta’lim metodlari, usullari, yo‘llari hamda tarbiyaviy vositalar yig‘indisi. U pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

**Pedagogik texnologiya** – ta’lim mazmunini qulay shakl va usulda uzatish hamda o‘zlashtirish jarayonidan iborat.

**Pedagogik texnologiya** ta’lim oluvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

**Pedagogik texnologiya** jarayonida o‘qituvchirahbarligida o‘quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o‘rganadi va o‘zlashtiradi.

**Pedagogik texnologiya** – oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha insonga ta’lim-tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat.

**Pedagogik texnologiya** – o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini, ijodiy izlanishlarini, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash, mushohada yuritishga qaratilgan ta’lim-tarbiya berishning faol shakl, usul va vositalari majmuasi. U pedagogik jarayonni mazmunli, samarali amalga oshirish texnikasi hisoblanadi. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqlashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyalari, ta’limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta’lim texnologiyalari kabilar kiradi.

**Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari.** Bularga o‘quvchi shaxsining ijodiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarni, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalar kiradi.

**Rivojantiruvchi maqsad** – ta’lim jarayoni ta’sirida shaxsning akliy kamolatini, bilish kobiliyatini, o‘kishga, mexnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

**Kreativ (ijodiy) texnologiyalar** tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

**Pedagogik faoliyat** – ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

**Reyting** – o‘quvfaoliyatining miqdoriy xarakteristikasi hisoblanadi. O‘quvchilarning barcha faoliyat turlarini ballarda (qoidaga ko‘ra 100 ballgacha) butun baholash.

**Refleksiya** – takrorlash, aks etish, o‘z harakatlari va holatlarini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash.

**Samaradorlik** – sifatning umumlashgan o‘lchovi.

**Standart** – ta’lim oluvchiga qo‘yilgan minimal bilim, ko‘nikma va malaka talablari bo‘lib, uning barkamol inson bo‘lishining kafolati sifatida belgilanadi.

**Subyekt** – yunoncha 1- tashqi borliq (olam)ni bilishga intiladigan va o‘z amaliy faoliyati bilanunga ta’sir ko‘rsatadigan inson, 2 - qandaydir xususiyatlarni tashuvchi inson, shaxs.

**Smart ta’lim** — bu ta’lim muassasalari hamda professor-o‘qituvchilar tarkibining umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida yagona Internet tarmog‘i orqali ta’limni amalga oshiruvchi birlashmasidir.

**Smart ta’lim (education)** – mohiyat jihatdan yangi ta’lim muhitidir; butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o‘tish uchun o‘qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya’ni ta’lim faoliyatini birlashtirishdir.

**Smart ta’lim** - umumiy standart, texnologiyalar va o‘quv yurtining tarmog‘i va professor o‘qituvchilar tarkibi orasidagi kelishuvlar negizida internetda ta’lim faoliyatini tashkil etishdan iboratdir.

**Smart o‘quv jarayoni** - innovatsiyalar va internetdan foydalanish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonidir; u tizimli ko‘p o‘lchovli ko‘rish va ko‘p aspektliligi va yangilanishining uzlusizligini e’tiborga olgan holda predmetlarni o‘rganish asosida kasbiy kompetensiyalar egallahsga imkoniyat beradi.

**sub’ektiv tuzilma** – innovatsion faoliyat sub’ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

**sathiy tuzilma** – innovatsion faoliyat sub’ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari; mazmun tuzilmasi – o‘quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.) da yangilikning paydo bo‘lishi, ishlab chiqilishi va o‘zlashtirilishi;

**Ta’lim** – ta’lim oluvchilarni axloqiy, intellektual, jismoniy, kasbiy, madaniy rivojlantirishning yuqori darajasiga erishish maqsadida amalga oshiriladigan o‘quv-tarbiyaviy jarayoni.

**Ta’lim dasturi** – ta’limning maqsadlari va aniq vazifalaridan kelib chiqqan holda, ma’lum daraja va yo‘nalishdagi ta’lim mazmun-mohiyatini o‘zida mujassam etgan dastur.

**Ta’lim sifati** – ta’lim jarayonining turli ishtirokchilari ta’lim xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi yoki ta’limda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasi tushuniladi.

**Tafakkur** - inson aqliy faoliyatining oliy shakli, atrof-olamdaggi o‘zaro bog‘langan narsa va hodisalarini bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish, muammolarni hal etish, mavhum voqye-hodisalarini anglash. Tafakkur hissiy bilish, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo‘ladi.

**Test** – (ingl. “test” - tekshirish, sinov, nazorat) aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini xolisona baholash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tizimidan iborat.

**Test topshiriqlari** – ta’lim natijalarini xolisona nazorat qilishning didaktik va texnologik vositalari hisoblanadi. Test savollari yordamida barcha o‘quvchilarning bilimini bir vaqtida tekshirish, ularni mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishga, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘rgatish, intizomini mustahkamlash kabi imkoniyatlar yaratiladi.

**Test usulida baholash** – ta’lim jarayoni natijalarini obyektiv, ishonchli aniqlashga yordam beradigan pedagogik diagnostika metodlaridan biri.

**Texnologiya** – 1) shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini mujassamlashtirgan va yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik hodisa, tizim; 2) ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uni boshqarish, pedagogik va o‘quvfaoliyatini tashkil qilish usullari tasnifi (klassifikatsiya).

**Texnologiya** – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini sifatli o‘zgartirish tizimi, mahsuldar metodlar to‘plami.

**Texnologik xarita** – integrallashgan darslarni tashkil etishda tushuncha va bilimlarning muayyan izchilligi va axborotli modellarni

o‘rganish usullari, yo‘llari, ko‘rsatmalari hamda ko‘rgazmali – texnologik topshiriqlar yig‘indisi.

**Tizim** – unsurlar (qismlar, elementlar, predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar, harakatlar va b.)ning ma’lum bir bog‘lanishda, ketma-ketlikda, o‘ta izchillikda, rejali hamda to‘g‘ri joylashish tartibi.

**Tushunish** – axborotning ma’no-mazmunini idrok qilish, qayta ishlash, undan ko‘rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

**Tushuntirish** – axborotning ma’no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo‘llab, tushuntiruvchining o‘zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon.

**Tyutor** – lot. “tueor”, ingl. “tutor” – xonaki o‘qituvchi, repetitor, murabbiy so‘zlaridan olingan bo‘lib, hozirgi vazifasiga ko‘ra konsultant-o‘qituvchi, masofaviy ta’lim orqali o‘rgatuvchi ma’nosida tushuniladi.

**Usul** – biror narsa, hodisa, jarayonni o‘rganish yoki amalga oshirish tartibi.

**Faollik** – biror maqsad yo‘lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

**Faoliyat** – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

**Shakl** – dars jarayonini amalga oshirishning eng qulay usullari, vositalari, ketma-ketligi, ta’lim oluvchilar soni, sarflangan vaqt, joy qulayliklarini o‘z ichiga oladi.

**Shaxs** – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, foydali faoliyat turi bilan shug‘ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘la oladigan, o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlar, muayyan xulq-atvor, mustaqil fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan inson.

**Evristik** – yo‘naltiruvchi savollarni berib borishga asoslangan o‘qitishtizimi, topqirlik, faollikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘quvizlanishli, optimallashtirilgan (qulaylashtirilgan) tafakkurni rivojlantiradi.

**O‘zlashtirish** – tushunish, o‘rganish orqali axborotning mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, muayyan xatti-harakat va xulq-atvor usullarini egallash jarayoni.

**O'rganish** – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash, takrorlay olish, faoliyatidan iborat jarayon.

**O'rgatish** – o'quvchilarda axborotdan foydalanish, xulq- atvor ko'nikmlari va odatlarini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan harakat, turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, amaliy mashqlar orqali ko'rsatish jarayoni.

**O'qitish-** ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

**O'qituvchi**– pedagogik-psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yichamaxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega, o'quvchilar tomonidan ta'lim mazmunining o'zlashtirilishini ta'minlovchi, o'quvjarayoniga rahbarlik qiluvchi shaxs.

**O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim** – o'quvchining o'quvshaxsiy imkoniyatlariiga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta'lim texnologiyasida har bir o'quvchini o'rganish, tushunish, hurmat qilish, unga ishonish, ta'limni unga moslashtirish katta ahamiyatga ega.

**Qiziqish** – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

**Qobiliyat** – ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadigan, imkoniyat darajalarining ustunligini ifodalaydigan shaxsiy-individual xususiyatlar.

**G'oya** – tushuncha, tasavvur, fikrlar paydo bo'lgan muammolarni yechishga yordam beradi. Agar u innovatsion yo'nalishda kechsa, ta'lim rivoji tezlashadi.

**Hamkorlik pedagogikasi** – ta'lim oluvchining shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi va rivojlanshiga imkon yaratadigan, ta'lim oluvchida bilishga bo'lgan intilishni rivojlantiradigan, keng va chuqur bilim va malakaga ega bo'lish uchun sharoit tug'diradigan, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltiradigan, o'zaro muloqot hamda birgalikdagi faoliyatga asoslangan yondoshuv. Uning metodik usullari: insonparvarlik, shaxsiy yondashuv, muloqot mahorati, o'quv faoliyati.

## ADABIYOTLAR

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi PF-4849-sonli Farmoyishi. - O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 7-son, 88-modda
2. SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni. Lex.uz.
3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoyev. —Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. - 48 b
4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O’zbekiston Respublikasi Prezidenta Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqolpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri saylovchilari vakillari bilan o’tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so’zlagan nutqlari o’rin olgan. /SH .M.Mirziyoyev. - Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. - 488 b
5. Yuldashev U.Yu, Zokirova.F.M. Metodika prepodavaniya informatiki. - T.: “Aloqachi”, 2005
6. Omonov N.T., T.X.Xo’jayev va boshq. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., “Iqtisod-moliya”, 2009 y.
7. Иванов В. И. Создание видеороликов с помощью скринкастинга [Текст] / В. И. Иванов. — Москва: Ролики и монтаж, 2014. — 248 с.
8. Инфоурок [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://infourok.ru/> (дата обращения: 15.12.2017). 52
9. Каталог статей [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://nitforyou.com/> (дата обращения: 10.12.2017).
10. Коджаспирова Г. М. Технические средства обучения и методика их использования [Текст] / Г. М. Коджаспирова, К. В. Петров. — Москва: Academia, 2009. — 154 с.

11. Аванесов В. С. Композиция тестовых заданий. — М.: Ассоциация инженеров-педагогов, 1996. - 192 с
12. Аванесов В. С. Научные проблемы тестового контроля знаний. — М.: Педагогика, 1994. - 135 с.
13. Комарова Н. И. Технические и аудиовизуальные средства обучения. Программа для студентов гуманитарных факультетов педагогических ВУЗов [Текст] / Н. И. Комарова. — Москва: МГПУ, 2004. — 146 с.
14. Кришна Г. Хороший интерфейс — невидимый интерфейс [Текст] / Г. Кришна. — Санкт-Петербург: Питер, 2016. — 256 с.
15. Купер А. Интерфейс. Основы проектирования взаимодействия [Текст] / А. Купер. — 4-е изд. перераб. и доп. — Санкт-Петербург: Питер, 2017. — 720 с.
16. Носкова Т. Н. Аудиовизуальные технологии в образовании [Текст] / Т. Н. Носкова. — Санкт-Петербург: СПбГУКиТ, 2004. — 197 с.
17. Программное обеспечение для медицинских организаций [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://www.tech2s.ru/> (дата обращения: 25.12.2017).
18. Протект [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://protext.su/> (дата обращения: 19.12.2017).
19. Пультиков А. В. Технические требования к видеороликам [Текст]: учебное пособие / А. В. Пультиков, Е. А. Типтей, С. Д. Пультикова. — Иркутск: ИрГУПС, 2015. — 80 с.
20. Розин В. М. Визуальная культура и восприятие: Как человек видит и понимает мир [Текст] / В. М. Розин. — Москва: Владос, 2005. — 157 с.
21. Соколов А. Г. Монтаж: телевидение, кино, видео — Editing: television, cinema, video [Текст]: учебник / А. Г. Соколов. — Москва: «625», 2001.—207 с. 53
22. Титоренко Г. А. Автоматизированные информационные технологии в экономике [Текст] / Г. А. Титоренко. — Москва: Компьютер; ЮНИТИ, 2016. — 352 с.
23. Тихомиров В. П. ДО: история, экономика, тенденции [Текст] / В. П. Тихомиров. — Москва: Аспект Пресс, 2004. — 221 с.

24. Утилова Н. И. Монтаж: [Текст]: учебное пособие / Н. И. Утилова. — Москва: Аспект Пресс, 2004. — 171 с.
25. Яворских Е. А. Видео на персональном компьютере: самоучитель [Текст] / Е. А. Яворских. — Санкт-Петербург: Техническая книга, 2005. — 141 с.
26. Анисимов А.М. Работа в системе дистанного обучения Moodle. Учебное пособие. 2-е изд. испр. и дополн. — Харьков, ХНАГХ, 2009. — 292 стр.
27. Турсунов С.Қ. Тылымда электрон ахборот ресурсларини яратиш ва уларни жорий килишнинг методик асослари. Монография.-Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
28. Pšenáková I. and Szabó T., «Interactivity in Learning Materials for the Teaching,» *2018 16th International Conference on Emerging eLearning Technologies and Applications (ICETA)*, Stary Smokovec, 2018, pp. 445–450. doi: 10.1109/ICETA.2018.8572208
29. Computer graphics. Rae Earnshaw, John Vince. ISBN 978-0-12-227741-2. Academic Press. 1995. 503 p.  
<https://doi.org/10.1016/C2009-0-21228-1>.
30. The computer Graphics Interface. Karla Steinbrugge Chauveau, Janet S. Chin and Theodore Niles Reed. ISBN 978-0-7506-1538-9. Butterworth-Heinemann. 1991. 394 p. <https://doi.org/10.1016/C2013-0-04613-0>.
31. H. Zaynidinov, M.Zaynutdinova, E. Nazirova. «Digital processing of two-dimensional signals in the basis of haar wavelets». Computer Systems and Technologies. 19<sup>th</sup> International Conference, CompSys Tech'18, (Indexed by SCOPUS), Ruse, Bulgaria, September 13-14, 2018, Proceedings, p.130-133. DOI: 10.1145/3274005.3274023.
32. 3D bioprinting of tissues and organs // Nature Biotechnology № 32, 773—785 (2014), doi:10.1038/nbt.2958
33. Study on voltage sag control of distribution network based on custom power technology. China International Conference on Electricity Distribution, CICED27 December 2018, Номер статьи 8592349, Pages 649-6532018
34. Beckers, J., Dolmans, D. and van Merriënboer, J. 2016. E-Portfolios enhancing students' self-directed learning: A systematic

review of influencing factors. *Australasian Journal of Educational Technology*, 32 (2), 32-46. DOI: <https://doi.org/10.14742/ajet.2528>

35. Buyarski, C.A., Aaron, R.W., Hansen, M.J., Hollingsworth, C.D., Johnson, C.A., Kahn, S., Landis, C.M., (...)and Powell, A.A. 2015. Purpose and Pedagogy: A Conceptual Model for an ePortfolio. *Theory into Practice*, 54 (4), 283-291. DOI: <https://doi.org/10.1080/00405841.2015.1076691>

36. Habeeb, K.M. and Ebrahim, A.H. 2019. Impact of e-portfolios on academic staff assessment and student performance on learning science concepts in kindergarten. *Education and Information Technologies*. Volume 24, Issue 2, 1661-1679.  
DOI: <https://doi.org/10.1007/s10639-018-9846-8>

37. Zakirova, F.M., Saidova, F. and Zakirova, M. 2018. Blended learning for the development of academic staff creativity: The experience of advanced training of pedagogical staff in the Republic of Uzbekistan. *In 2nd International Conference on Digital Technology in Education*, ICDTE 2018. Thailand. 143696. DOI: <https://doi.org/10.1145/3284497.3284501>

## **Internet saytlari**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
1-mavzu. Didaktika ta'lim nazariyasi sifatidagi taraqqiyoti .....	4
2-mavzu.Ta'lim jarayonining metodologik asoslari.....	13
3-mavzu. Asosiy didaktik konsepsiylar.....	24
4-mavzu. Pedagogik jarayon bir butun tizim sifatida .....	51
5-mavzu. O'qitish jarayonining mohiyati va imkoniyatlari .....	63
6-mavzu. Ta'lim qonunlari va tamoyillari.....	68
7-mavzu. Ta'lim mazmuni .....	88
8-mavzu. O'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari....	104
9-mavzu. O'qitish metodlari va vositalari.....	113
10-mavzu. O'qitishning rivojlantiruvchi texnologiyalari .....	126
11-mavzu: O'qitish jarayoniga texnologik yondashuv.....	132
12-mavzu. Muammoli o'qitish texnologiyasi.....	147
13-mavzu. Mualliflik texnologiyalar.....	156
14-mavzu. Masofaviy va media ta'lim .....	175
15-Mavzu: SMART ta'lim texnologiyalari.....	190
16-mavzu: Bilimlarni to'liq o'zlashtirish texnologiyasi .....	196
17-mavzu. Innovatsion ta'lim texnologiyalari.....	212
18-mavzu. Kreativ ta'lim texnologiyasi .....	217
19-mavzu. Loyihali ta'lim .....	222
Tayanch atamalar .....	232
<b>ADABIYOTLAR</b> .....	245

**ASHIROVA A.I., ALLABERGANOVA M.R.,  
DJURAYEVA D.SH.**

# **TA'LIM NAZARIYASI**

**O'QUV QO'LLANMA**

**Toshkent - "METODIST NASHRIYOTI" - 2024**

**Muharrir: Bakirov Nurmuhammad**

**Texnik muharrir: Tashatov Farrux**

**Musahih: Shoumarova Oqila**

**Dizayner: Ochilova Zarnigor**

**Bosishga 1.04.2024.da ruxsat etildi.**

**Bichimi 60x90. "Times New Roman" garniturasи.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i 16.. Nashr bosma tabog'i 15,75.**

**Adadi 300 nusxa.**

**"METODIST NASHRIYOTI" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Shota Rustaveli 2-vagon tor ko'chasi, 1-uy.**



**+99893 552-11-21**

**Nashriyat roziligidiz chop etish ta'qiqlanadi.**